## ZARARLI MODDALARNING ATMOSFEREDA KO‘CHISHI VA DIFFUZIYASI JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNI SONLI TADQIQ QILISH

*Atmosferada zararli moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi jaryonini monitoring qilish va bashoratlash uchun yaratilgan matematik model ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan matematik model atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli moddalarning fizik-mexanik xususiyatlari ko‘ra o‘zgaruvchan tezliklarini inobatga olgan holda kompyuterda hisoblash tajribalarini o‘tkazish imkonini beruvchi dasturiy majmua ishlab chiqilgan. Ushbu dasturiy majmua ishlab chiqarish obyektlari hududlarining ekologik holatini tahlil qilish, monitoring qilish va bashoratlash uchun hisoblash tajribalarini o‘tkazish imkonini beradi.*

**Kalit so‘zlar:** dasturiy vosita, zararli modda, hisoblash tajribasi, monitoring va bashoratlash.

*Разработана математическая модель для мониторинга и прогнозирования миграции и распространения вредных веществ в атмосфере. Разработанная математическая модель представляет собой набор программного обеспечения, позволяющего проводить вычислительные эксперименты на компьютере с учетом переменных скоростей выбрасываемых в атмосферу вредных веществ в соответствии с их физико-механическими свойствами. Этот программный комплекс позволяет проводить вычислительные эксперименты для анализа, мониторинга и прогнозирования экологического состояния производственных площадей.*

**Ключевые слова:** программное обеспечение, вредоносное ПО, опыт вычислений, мониторинг и прогнозирование.

*A mathematical model has been developed to monitor and predict the migration and diffusion of harmful substances in the atmosphere. The developed mathematical model is a set of software that allows you to perform computational experiments on a computer, taking into account the variable velocities of harmful substances emitted into the atmosphere according to their physical and mechanical properties. This software package allows you to perform computational experiments to analyze, monitor and predict the environmental condition of production areas.*

**Key words:** software, malware, computing experience, monitoring and forecasting.

**Kirish.** Jahonda mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi baravarida, respublikamiz iqtisodiyotining ham barcha sohalarida yaxshi o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligi ko‘zga yaqqol tashlanib kelmoqda. Bunday o‘zgarishlarni jamiyat va iqtisodiyotning avtomobilsozlik, oziq-ovqat, yengil sanoat, uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqa barcha sektorlarida ko‘rishimiz mumkin. Albatta, mamlakat rivojlanishi xalqning farovon hayotini ta’minlab beruvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi, ammo texnologik jarayonlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmini oshirish sezilarli miqdorda tabiatga, ya’ni ekologiya va atrof-muhitga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ishlab chiqarishning tabiatga zarar keltirishini bugungi kunda AQSH, Hindiston, Xitoy, Rossiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Atmosfera havosining ifloslanishi dunyodagi barcha kasallik va o‘limlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Juhon sog‘lijni saqlash tashkilotining statistik ma’lumotlariga qaraganda, 2016-yilda dunyoda 4.2 million erta o‘limlarning sababları atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq. Atmosfera havosining zararli moddalar bilan ifloslanishi yurak, qon-tomir tizimlari, o‘pka surunkali kasalliklari, o‘pka saratonini va bolalarda o‘tkir-respirator kasalliklarini keltirib chiqaradi.

**Asosiy qism.** Atmosfera havosidagi zararli moddalar inson organizmiga asosan nafas olish yo‘llari bilan kirib keladi. Bu zararli moddalarning eng kuchli ta’sirga egalari - qattiq zarrachalar, ozon (Oz), azot dioksid (NO<sub>2</sub>) va oltingugurt oksidi (SO<sub>2</sub>) kabi zararli moddalar hisoblanadi.

Atmosfera havosiga nafaqat zararli moddalar, shuningdek, chang zarrachalarining ko‘chishi ham uning sifatiga ta’sir qiladi. Cho‘llar, tog‘-kon obyektlaridagi rudalarni tashish, Orol dengizining qurib qolgan qismidan tuzli qum maydonlaridan chang zarrachalarining ko‘chishi ekologiya va atrof-muhitga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, ekologiya va atrof-muhit doimiy ravishda himoyada bo‘lishi, atmosferaga tashlanayotgan zararli moddalarning monitoringi, ularning turli iqlim parametrlariga mos tarqalishini bashoratlash, shuningdek, yangi qurilayotgan ishlab chiqarish, sanoat obyektlarini joylashtirishni loyihalashtirish, ular tomonidan ona tabiatga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarning oldini olish hamda baholash bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ekologiya va atrof-muhitning ifloslanishi, shu jumladan, atmosferaga zararli moddalarning tarqalishi va diffuziyasi jarayonlari bir nechta omillarga bog‘liq. Ya’ni u qaralayotgan zararli modda turi, uning fizik-mexanik xususiyatlari, atmosferaning turg‘unlik holati, zararli moddalarning atmosferada yutilish koeffisienti, shamol tezligi va yo‘nalishi, obyekt joylashgan hudud ob-havosi, iqlim sharoiti kabi omillarni o‘z ichiga oluvchi juda murakkab jarayondir. Atmosferada zararli moddalarning tarqalishi va diffuziyasi jarayonini bashoratlash, monitoring qilish va baholashda yuqorida aytib o‘tilgan omillarning qancha ko‘p hisobga olinsa, o‘tkazilgan tadqiqotlar shunchalik darajada reallikka mos keladi.

Shu sababli, hozirgi kunda zararli moddalarning atmosferada tarqalishi va diffuziyasi jarayonini tadqiq qilish uchun matematik modellashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiq. Matematik modellashtirish yordamida sanoat obyektingining ishlashi yoki shu obyektni loyihalashtirish jarayonida qaralayotgan hudud atmosferasida tashlanayotgan zararli moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi holatini kompyuterda imitatsiya qilish mumkin. Bu usul muhandislar uchun ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan ancha qo‘l keladi.

Yaratilgan matematik modellar va hisoblash algoritmlari yordamida kompyuter uchun dasturiy majmua yaratilib, monitoring qilish, bashoratlash va baholash ishlarini avtomatlashtirish mumkin. Hozirgi vaqtida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ushbu avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida doimiy ravishda ma’lumotlarni yangilab borish, mas’ul tashkilotlarda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yordam beradi.

Bugungi kunda zararli moddalarning atmosferada ko‘chishi va diffuziyasi jarayonlarini modellashtirishga tegishli ishlar bilan dunyoning yetakchi olimlari tomonidan juda keng ko‘lamdagisi ishlar olib borilyapti. Yaratilgan matematik modellar asosida bir necha davlatlar doirasidagi standartlar, dasturiy majmular yaratilgan bo‘lib, bu model va dasturlar hozirgi kunda takomillashtirilib borilmogda.

Atmosferaga tashlanayotgan zararli moddalarning tarqalishi va diffuziyasi jarayolarini hozirgacha dunyoning ilg‘or mamlakatlarida yetakchi olimlar asos solgan ilmiy maktablarda tadqiq qilib kelinmoqda. Sohani chuqur o‘rganishda sobiq Ittifoq davlatlari va xorijiy olimlardan Y.P.Mednikov, M.E.Berlyand, G.A.Marchuk, A.E.Aloyan, I.E.Naas, V.I.Naas, W.C.Reynolds, Zannetti, W.J.Layton, shu jumladan mamlakatimiz olimlari F.B.Abutaliyev, S.K.Karimberdiyeva, M.L.Arushanov, N.Ravshanov va boshqalar o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishgan.

Atmosferada zararli moddalarning tarqalishi va diffuziyasi qaralayotgan hududning gidrometeorologik sharoitlariga, hudud orografiyasining bir xil emasligi, zararli moddalarning fizik-mexanik xususiyatlari, shamol tezligi va yo‘nalishiga, atmosferada zararli zarrachalarning yutilish koeffisientiga, zarrachalarning cho‘kish tezligiga, balandlikka mos ravishda turbulentlik koeffisientining o‘zgarishiga va shu kabi boshqa ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan matematik modellar uchun analitik yoki sonli usullar yordamida unga hisoblash algoritmi tuziladi. Tuzilgan hisoblash algoritmi yordamida kompyuterda biror bir dasturlash tillari asosida maxsus dasturiy majmua yaratiladi. Yaratilgan ushbu uchlik – “matematik model - sonli algoritm – dasturiy majmua” zararli moddalarning atmosferada ko‘chishi va diffuziyasi masalasini monitoring qilish va bashoratlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Bu turdagisi uchlik komplekslar ushbu sohada ilmiy izlanish olib borgan va samarali natija olgan ko‘pchilik mualliflarning ishida batafsil yoritilgan [1, 141–183; 2, 58–62; 3, 149–156; 4, 196–198].

Atmosferada tarqalayotgan zarrachalarning ko‘chishi va diffuziyasining asosiy tenglamalari – aralashmalarning ko‘chish tenglamasi, moddalarning doimiy tarqalish tenglamasi, diffuzion yaqinlashish, og‘ir aerozollarning ko‘chishi va diffuziyasi hamda atmosferada turbulent harakatning strukturasi va uni modellashtirish G.I.Marchukning ishida [5, 37] keltirilgan. Muallif o‘z ishida diffuziya tenglamasidagi shamol tezligining o‘qlarida tashkil etuvchilarini vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchan funksiya ko‘rinishi bilan bog‘laydi.

Atmosferada zararli moddalarning ko‘chishi va diffuziya jarayoniga tegishli matematik modellar tahlili va ularni takomillashtirish masalasini A.E.Aloyanning ishlarida [6, 50–54; 7, 10–52] ham ko‘rishimiz mumkin. Muallif atmosferaga tashlanayotgan zararli zarrachalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayonlarini turbulent atmosferada bo‘lganligi sababli, masalaning yechimi sifatida gidrodinamika modellari yordamida ifodalashni tavsiya etadi. Gidrodinamikaning asosiy tenglamalari Nave-Stoks, Reynolds tenglamalari, issiqlik oqimi va namlik tenglamalari, shuningdek, vertikal turbulent almashinish ( $k - \varepsilon$  modeli) koeffisientini hisoblash uchun samarali sonli algoritm ishlab chiqilgan.

Tuproq eroziyasini hisobga olgan holda atmosferada tuz-chang aerozollarining tarqalishini modellashtirish masalasi [8, 6]da ko‘rib chiqilgan. Shamol eroziyasini natijasida tuproqdan havoga ko‘tarilgan qattiq zarralar miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilgan. Atmosferadagi havo massasining harakatlanish tezligi, zarrachalarning kattaligi va zichligiga, shuningdek, boshqa ta’sir etuvchi kuchlarning qiymatlari asosida tuproq eroziyasini jarayonini o‘rganish uchun hisob-kitoblar keltirilgan. Olingan sonli hisob-kitoblar yordamida tuproq eroziyasini jarayonida muhim rol o‘ynaydigan asosiy parametrlar tahlili keltirib o‘tilgan.

Sanoat obyektlarini sanitariya normalari asosida optimal joylashtirish masalasining matematik modeli [9, 1–7] maqolada o‘rganib chiqilgan. Atmosferadagi zararli moddalarning ko‘chishi va tarqalish jarayonining adekvat matematik modelini ishlab chiqish uchun mualliflar jarayonga ta’sir etuvchi havo massasining noqulay ob-havo sharoitlarida atmosferada zararli moddalar konsentratsiyasiga sezilarli darajada ta’sir etuvchi tuproq eroziysi, vaqtga nisbatan o‘zgaruvchan havo oqimi, atmosferaning turg‘un va noturg‘un stratifikatsiya holatida diffuziya va vertikal turbulentlik koeffisientlarining o‘zgaruvchanligi, vaqt o‘tishi va mintaqaning orografiyasi tufayli shamol yo‘nalishining o‘zgarishi, yer sathining xususiyatlariiga bog‘liq bo‘lgan o‘zaro ta’sir koeffisientining o‘zgaruvchanligi kabi omillarni tadqiq qilishgan.

Atmosferada zararli moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayonlarini modellashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki ishlarda, birinchidan, zarrachalarning fizik-mekanik xususiyatlardan kelib chiqib atmosferada ko‘chish tezligining vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarishi hisobga olinmagan, ikkinchidan, manbalardan tashlanayotgan zararli moddalar yechilayotgan masalaning chegaralaridan chiqib ketmaydi, deb olingen, uchinchidan, yechilayotgan masalaning chegaralaridan kiruvchi va chiquvchi zararli moddalar bo‘lmaydi, deb qaralgan.

**Muhokamalar va natijalar.** Yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalarda keltirilgan ishlardan farqli ravishda gidromexanikaning qonuni asosida uch o‘lchovli xususiy hosilali differensial tenglamalar yordamida qaralayotgan zararli modda zarrachalarining yo‘nalishlar bo‘yicha tezliklarini inobatga olgan holda atmosferada zararli moddalarning ko‘chish va diffuziyasi jarayonlarini quyidagicha matematik modelini taklif etamiz [10, 1-7; 11, 279-284; 12, 69-84]:

$$\frac{\partial \theta}{\partial t} + u_u \frac{\partial \theta}{\partial x} + v_u \frac{\partial \theta}{\partial y} + w_u \frac{\partial \theta}{\partial z} + \sigma \theta = \mu \left( \frac{\partial^2 \theta}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \theta}{\partial y^2} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left( \kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \right) + \delta Q, \quad (1)$$

$$m \frac{du_u}{dt} = 3\pi\eta d_u (u - u_u), \quad (2)$$

$$m \frac{dv_u}{dt} = 3\pi\eta d_u (v - v_u), \quad (3)$$

$$m \frac{dw_u}{dt} = 3\pi\eta d_u (w - w_u) - mg \quad (4)$$

va ularga mos ravishda boshlang‘ich va chegaraviy shartlar:

$$\theta|_{t=0} = \theta^0; u_u|_{t=0} = u_u^0; v_u|_{t=0} = v_u^0; w_u|_{t=0} = w_u^0; \quad (5)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=0} = \xi(\theta_e - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial x} \Big|_{x=L_x} = \xi(\theta_e - \theta); \quad (6)$$

$$-\mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=0} = \xi(\theta_e - \theta); \quad \mu \frac{\partial \theta}{\partial y} \Big|_{y=L_y} = \xi(\theta_e - \theta); \quad (7)$$

$$-\kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=0} = \beta \theta; \quad \kappa \frac{\partial \theta}{\partial z} \Big|_{z=H_z} = \xi(\theta_e - \theta). \quad (8)$$

Bu yerda  $\theta$  - tarqalayotgan zararli modda konsentratsiyasi;  $u_u, v_u, w_u$  - zararli moddalarning yo‘nalishlar bo‘yicha tezliklari;  $u, v, w$  - shamolning yo‘nalishlar bo‘yicha tezliklari;  $\theta^0$  - atmosfera havosidagi zararli moddalarning boshlang‘ich konsentratsiyasi;  $\sigma$  - atmosferadagi zararli moddalarning utilish koeffisienti;  $\delta$  - Dirak funksiyasi;  $g$  - erkin tushish tezlanishi;  $\mu$  - diffuziya koeffisienti;  $\beta$  - yer sathi bilan ta’sirlashish koeffisienti;  $Q$  - manbalarning quvvati;  $\kappa$  - turbulentlik koeffisienti;  $\xi$  - hisob chegarasi orqali tashqi muhit bilan massa almashinuv koeffisienti;  $\theta_e$  - masala yechimi sohasidan tashqaridagi zararli moddalarning konsentratsiyasi.

Shuni ta’kidlash kerakki, (1)-(4) masalalarning qo‘yilishida va ularga tegishli (5)-(8) boshlang‘ich va chegaraviy shartlar asosida atmosferada havo oqimi natijasida zararli moddalarning konvektiv ko‘chishi, molekulyar va turbulent diffuziyasi hisobida atmosferada zararli moddalarning tarqalishi va atmosfera havosidagi namlik hisobida zararli moddalarning utilishi kabi fizik jarayonlarni ko‘rshimiz mumkin.

Atmosfera havosiga ishlab chiqarish obyektlari tomonidan tashlanayotgan zararli moddalarning ko‘chish jarayonini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlardan farqli ravishda (1) tenglamadagi  $u_u, v_u, w_u$  zarrachalarning  $x, y, z$  yo‘nalishda tezliklari o‘zgaruvchan deb qaraldi. Zarrachalar tezliklarining o‘zgarishini ularning fizik-mekanik xususiyatlari - massasi, zarrachaning diametri, erkin tushish tezlanishi va muhitning dinamik yopishqoqligini hisobga olgan holda (2)-(4) tenglamalar va ularga mos ravishda (5) boshlang‘ich shart yordamida ifodalangan.

(1)-(4) masalani yechish uchun keltirilgan (5)-(8) chegaraviy shartlar atmosfera havosida zararli moddalarning tarqalishining matematik modellashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlaridan farqli ravishda, ularga “kiruvchi” va “chiquvchi” zararli moddalarning oqimlari ham inobatga olingan. Zararli moddalarning vaqtga bog‘liq ravishda yer yuzasiga cho‘kishi oqibatida yer bilan ta’sirlanish koeffisienti mavjud bo‘lib, bu koeffisient zararli moddaning yerga tushishi oqibatida uning keyinchalik yana tarqalishi yoki yutilib ketishini aniqlashda yordam beradi.

Zararli moddalar ularning fizik-mexanik xususiyatlari va atrof-muhitning sharoitlariga qarab turli masofada turli xil yuzaga kelib qo‘nishi mumkin. Shu sababli,  $\beta$  ning qiymatini doimiy ravishda o‘zgarmas deb olish maqsadga muvofiq emas [13, 45-60]. Biz taklif etayotgan matematik model (1)-(8)da  $\beta(x, y, z)$  funksiya ko‘rinishida hisobga olgan holda qabul qilish nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan (1)-(8) masala atmosfera havosida zararli moddalarning ko‘chish va diffuziyasi jarayonini atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli zarrachaning o‘zgaruvchan tezliklari yordamida ifodalanuvchi matematik modeli bo‘lib, model o‘zida zarrachaning fizik-mexanik xususiyatlari bilan bir qatorda, havo oqimining tezligi, balandlikka nisbatan o‘zgaruvchan turbulentlik koeffisienti va jarayonga ta’sir etadigan boshqa parametrlarni inobatga oladi.

**Masala yechish usuli.** (1)-(8) masala uch o‘lchovli differensial tenglamalar va ularga mos ravishda boshlang‘ich va chegaraviy shart bilan berilganligi sababli, uni analitik usulda yechish murakkablik keltirib chiqaradi. (1)-(8) masalani yechish uchun sonli usullardan foydalanamiz, ya’ni  $D = \{0 \leq x \leq L_x, 0 \leq y \leq L_y, 0 \leq z \leq L_z, 0 \leq t \leq T\}$  sohaga to‘r kiritamiz va bu yerda  $T$  - o‘rganilayotgan vaqtning maksimal qiymati.  $[0, L_x]$ ,  $[0, L_y]$  vaa  $[0, L_z]$  larni  $\Delta x$ ,  $\Delta y$ ,  $\Delta z$  qadamlarga bo‘lish bilan,  $[0, T]$  vaqt oralig‘ini esa  $\Delta t$  qadamlarga bo‘lib, quyidagi  $\Omega_{xyzt}$  to’rga ega bo‘lamiz:

$$\Omega_{xyzt} = \left\{ \begin{aligned} & (x_i = i\Delta x, y_j = j\Delta y, z_k = k\Delta z, \tau_n = n\Delta t); \\ & i = \overline{1, N}; \quad j = \overline{1, M}, \quad k = \overline{1, L}, \quad n = \overline{0, N_t}, \quad \Delta t = \frac{T}{N_t}. \end{aligned} \right.$$

(1) masalani yechish uchun har bir yo‘nalishda zarrachaning qaralayotgan vaqt qatlami uchun zarrachaning tezliklari (2)-(4)ni topishimiz kerak. Buning uchun turg‘unlikni ta’minlash maqsadida (2)-(4) tenglamalarni oshkormas sxemani qo‘llab quyidagicha approksimatsiyalaymiz va zarrachaning yo‘nalishlar bo‘yicha tezliklarini topamiz: [12, 69-84]:

$$\begin{aligned} u_u^{n+\frac{1}{3}} &= \frac{mu_u^n + \Delta t \pi \eta du}{m + \Delta t \pi \eta d}, \quad v_u^{n+\frac{1}{3}} = \frac{mv_u^n + \Delta t \pi \eta dv}{m + \Delta t \pi \eta d}, \\ w_u^{n+\frac{1}{3}} &= \frac{mw_u^n + \Delta t \pi \eta dw - mg \Delta t / 3}{m + \Delta t \pi \eta d}. \end{aligned}$$

(1)-(8) masalani yechish davomida turg‘unlikni ta’minlash maqsadida oshkormas sxemadan foydalangan holda, (1) tenglamani approksimatsiyalaymiz:

$$\begin{aligned} & \frac{\theta_{i,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - \theta_{i,j,k}^n}{\Delta t / 3} + u_u^{n+\frac{1}{3}} \frac{\theta_{i+1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - \theta_{i,j,k}^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta x} + v_u^{n+\frac{1}{3}} \frac{\theta_{i,j+1,k}^n - \theta_{i,j,k}^n}{\Delta y} + w_u^{n+\frac{1}{3}} \frac{\theta_{i,j,k+1}^n - \theta_{i,j,k}^n}{\Delta z} + \\ & + \sigma \theta_{i,j,k}^{n+\frac{1}{3}} = \mu \frac{\theta_{i-1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - 2\theta_{i,j,k}^{n+\frac{1}{3}} + \theta_{i+1,j,k}^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta x^2} + \mu \frac{\theta_{i,j-1,k}^n - 2\theta_{i,j,k}^n + \theta_{i,j+1,k}^n}{\Delta y^2} + \\ & + \frac{\kappa_{z-0,5} \theta_{i,j,k-1}^n - (\kappa_{z-0,5} + \kappa_{z+0,5}) \theta_{i,j,k}^n + \kappa_{z+0,5} \theta_{i,j,k+1}^n}{\Delta z^2} + \frac{1}{3} \delta_{i,j} Q. \end{aligned}$$

va quyidagi ko‘rinishda belgilashlarni kiritamiz:

$$\begin{aligned} a_{i,j,k} &= \frac{\mu}{\Delta x^2}; \quad b_{i,j,k} = \frac{3}{\Delta t} - \frac{u_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta x} + \frac{2\mu}{\Delta x^2} + \sigma; \quad c_{i,j,k} = \frac{\mu}{\Delta x^2} - \frac{u_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta x}; \\ d_{i,j,k} &= - \left( \frac{3}{\Delta t} \theta_{i,j,k}^n - \frac{v_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta y} \theta_{i,j+1,k}^n + \frac{v_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta y} \theta_{i,j,k}^n - \frac{w_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta z} \theta_{i,j,k+1}^n + \frac{w_u^{n+\frac{1}{3}}}{\Delta z} \theta_{i,j,k}^n + \frac{\mu}{\Delta y^2} \theta_{i,j-1,k}^n - \right. \\ & \left. - \frac{2\mu}{\Delta y^2} \theta_{i,j,k}^n + \frac{\mu}{\Delta y^2} \theta_{i,j+1,k}^n + \frac{\kappa_{k-0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j,k-1}^n - \frac{\kappa_{k-0,5} + \kappa_{k+0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j,k}^n + \frac{\kappa_{k+0,5}}{\Delta z^2} \theta_{i,j,k+1}^n + \frac{1}{3} \delta_{i,j,k} Q \right). \end{aligned}$$

(3.1) tenglamani yuqoridagi belgilashlar yordamida uch diagonalli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yozamiz:

$$a_{i,j,k} \theta_{i-1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - b_{i,j,k} \theta_{i,j,k}^{n+\frac{1}{3}} + c_{i,j,k} \theta_{i+1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} = -d_{i,j,k}.$$

Shuningdek, (6) chegaraviy shartning birinchi qismini ikkinchi tartibdagi aniqlikda approksimatsiyalaymiz:

$$-\mu \frac{-3\theta_{0,j,k}^{n+\frac{1}{3}} + 4\theta_{1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - \theta_{2,j,k}^{n+\frac{1}{3}}}{2\Delta x} = \xi \left( \theta_e - \theta_{0,j,k}^{n+\frac{1}{3}} \right);$$

va qavslarni ochib chiqib, o‘xshash hadlarni ixchamlab, kerakli belgilashlarni kiritib:

$$\theta_{0,j,k}^{n+\frac{1}{3}} = \frac{b_{1,j,k} \mu - 4\mu c_{1,j,k}}{a_{1,j,k} \mu - 2\Delta \xi x c_{1,j,k} - 3\mu c_{1,j,k}} \theta_{1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} + \frac{-2\Delta x \xi \theta_e c_{1,j,k} - d_{1,j,k} \mu}{a_{1,j,k} \mu - 2\Delta x \xi c_{1,j,k} - 3\mu c_{1,j,k}}.$$

Yuqoridagi tenglamadan haydash koeffisientlari  $\alpha_{0,j,k}$  va  $\beta_{0,j,k}$  larini quyidagicha topib olamiz:

$$\alpha_{0,j,k} = \frac{b_{1,j,k} \mu - 4\mu c_{1,j,k}}{a_{1,j,k} \mu - 2\Delta x \xi c_{1,j,k} - 3\mu c_{1,j,k}}, \quad \beta_{0,j,k} = \frac{-2\Delta x \xi \theta_e c_{1,j,k} - d_{1,j,k} \mu}{a_{1,j,k} \mu - 2\Delta x \xi c_{1,j,k} - 3\mu c_{1,j,k}}.$$

Shuningdek, (6) – chegaraviy shartning ikkinchi qismini approksimatsiyalaymiz:

$$\mu \frac{\theta_{N-2,j,k}^{n+\frac{1}{3}} - 4\theta_{N-1,j,k}^{n+\frac{1}{3}} + 3\theta_{N,j,k}^{n+\frac{1}{3}}}{2\Delta x} = \xi \left( \theta_e - \theta_{N,j,k}^{n+\frac{1}{3}} \right)$$

va haydash usulini ketma-ket qo‘llash natijasida zararli moddalarning chegaradagi qiymati  $\theta_{N,j,k}^{n+\frac{1}{3}}$  ning qiymatini topamiz:


$$\theta_{N,j,k}^{n+\frac{1}{3}} = \frac{2\Delta x \xi \theta_e - \beta_{N-2,j,k} \mu - \alpha_{N-2,j,k} \beta_{N-1,j,k} \mu + 4\beta_{N-1,j,k} \mu}{\alpha_{N-2,j,k} \alpha_{N-1,j,k} \mu - 4\alpha_{N-1,j,k} \mu + 2\Delta x \xi + 3\mu}.$$

$\theta_{N-1,j,k}^{n+\frac{1}{3}}, \theta_{N-2,j,k}^{n+\frac{1}{3}} \dots \theta_{1,j,k}^{n+\frac{1}{3}}$  konsentratsiya qiymatlarining ketma-ketligi teskari haydash usuli yordamida topiladi.


Yuqorida bajarilgan amallar ketma-ketligini Ox va Oz koordinatasi bo‘yicha qo‘llaymiz, zararli moddalarning konsentratasiya qiymatini har bir vaqt qatlami uchun topamiz.

**Olingan natijalar.** Zararli moddalar zarrachalarining tezligining atmosferada zararli moddalarning ko‘chishi va diffuziyasi jarayoniga ta’sirini o‘rganish uchun kompyuterda bir qator hisoblash tajribalari o‘tkazildi.

1 – 2 rasmlarda turli xil fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lgan zarrachalar uchun o‘tkazilgan hisoblash tajribalari natijalari asosida ularning tezliklari  $u, v, w$  larning  $x, y, z$  yo‘nalishlariga mos ravishda o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatilgan. O‘tkazilgan hisoblash tajribalarida turli fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lgan zararli moddalar tanlanib olindi. Olingan natjalarni taqqoslab, shuni aytishimiz mumkinki, zarrachalarning tezliklarini aniqlashda ularning fizik-mexanik xususiyatlari juda muhim ahamiyatga ega.



**1-rasm.**  $u_0 = 3$  m/s bo‘lganida turli xil zararli moddalar zarrachalarining Ox koordinatasi bo‘ylab vaqtga nisbatan o‘zgarishi



**2-rasm.**  $w_0 = 0,5$  m/s bo‘lganida turli xil zararli moddalar zarrachalarining Oz koordinatasi bo‘ylab vaqtga nisbatan o‘zgarishi

O‘tkazilgan hisoblash tajribalaridan olingan natijalar asosida zararli moddalarning yo‘nalishlar bo‘yicha harakatiga ularning fizik-mexanik xususiyatlari katta rol o‘ynashi tasdiqlandi. O‘tkazilgan hisoblash tajribalari natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, zarrachalarning massasi zichligi qancha kichik bo‘lsa, ularning gorizontalligi oshib boradi, vertikal tezligi esa aksincha kamayib boradi.


Shuningdek, ishlab chiqarish obyektlari tomonidan tashlangan atmosferadagi zararli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash uchun ham hisoblash tajribalari o‘tkazildi. Hisoblash tajribasidan olingan natijalar 3 - rasmlarda keltirilgan.

Hisoblash tajribasini o‘tkazish uchun quyidagi parametrlar tanlab olindi: Shamolning tezligi 1 m/s, shamol yo‘nalishi 90°, zarrachalarning boshlang‘ich tezliklari  $u_u(0) = 1$  m/s,  $v_u(0) = 0,5$  m/s,  $w_u(0) = 0,05$ , hisoblash vaqt t=10 soat, masalani yechish maydoni o‘lchamlari – 21x21 km, manba qaralayotgan maydonning markazida joylashtirilgan, ishlab chiqarish obyekti trubasi balandligi 100 m, manba quvvati – 10 mg/m<sup>3</sup>.

3-rasmda keltirilgan grafiklardan ko‘rinib turibdiki, shamol tezligining kichik qiymatlarida zararli moddalar manba atrofida to‘planib qoladi. Shuningdek, turli fizik-mexanik xususiyatga ega bo‘lgan ikki turdagи zararli moddaning atmosferada ko‘chishi va diffuziyasi bir-biridan farqli ekanligi yaqqol ko‘zga tashlandi.

Hisoblash tajribalaridan olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Buxoro viloyat boshqarmasidan olingan statistik ma‘lumotlar, shuningdek, atmosferada zararli moddalarning tarqalishi va diffuziyasi jarayoniga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda olingan natijalar bilan taqqoslanganda, natijalar yetarlicha yaqin ekanligi aniqlandi.

O‘tkazilgan hisoblash tajribalari natijalaridan shuni ta’kidlashimiz mumkinki, qaralayotgan hududning atmosferasida zararli moddalarning to‘planib qolishiga shamolning gorizontal va vertikal tezligi, zarrachalarning fizik-mexanik xususiyatlari sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Shamolning tezligi nolga yaqinlashgan sari zararli moddalar zarrachalari faqat diffuziya jarayoni hisobidan manba atrofida to‘planib qoladi.



**3-rasm.** Oltingugurt oksidi (IV) zararli moddasining atmosferada ko‘chishi va diffuziya jarayonini vizualizatsiya qilish:

a)  $z=200$  m; b)  $z=300$  m; d)  $z=400$  m; e)  $500$  m

**Xulosa.** Atmosferada zararli moddalarning tarqalishiga asosan shamolning tezligi va yo‘nalishi, qaralayotgan zararli modda zarrachalarining fizik-mexanik xususiyatlari, turbulentlik, diffuziya va havo oqimining tezligi shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadigan hudud orografiyasi kabi parametrlar ta’sir qiladi.

Ishlab chiqilgan dasturiy majmua ishlab chiqarish obyektlari hududlari atmosferasining ekologik holatini monitoring qilish va bashoratlash bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy muammolarni hal qilishda ishlatilishi mumkin. Dasturiy majmua yordamida ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya me’yorlarini inobatga olgan holda atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar har bir turining qaralayotgan ishlab chiqarish obyekti va unga yaqin bo‘lgan hududlar ekologik holatiga ta’sirini baholash mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Zannetti P. Gaussian Models // Air Pollution Modeling. Springer US, 1990. P. 141–183.
2. Seinfeld J et.all. Simulation Urban Air pollution // Photochem. Smog Ozone React. Los Angeles. California, 1971. P. 58–100.
3. Ravshanov N., Akhmedov D. Air Quality Dispersion Modeling in Spherical Coordinates // Techno-Societal 2018. 2020. № 2. P. 149–156.
4. Беспалов М. Моделирование распространения примеси в атмосфере как инструмент воздухоохранной деятельности // Проблемы экологического мониторинга и моделирования экосистем. 2016. № 1(17). С. 74–85.
5. Марчук Г. Математическое моделирование в проблеме окружающей среды. -М.: "Наука", 1982. 320 –С.
6. Марчук Г.И., Алоян А.Е. Динамика и кинетика газовых примесей и аэрозолей в атмосфере и их значение для биосферы // междисциплинарный научный и прикладной журнал "биосфера". 2009. № 1. С. 48–57.
7. Алоян А.Е. Динамика и кинетика газовых примесей и аэрозолей в атмосфере. М: ИВМ РАН, 2002. 201 С.
8. Ravshanov N., Ravshanov Z., Bolnokin V.E. Modeling the salt-dust aerosols distribution in the atmosphere, taking into account the soil erosion // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. Institute of Physics Publishing, 2020. Vol. 862, № 6. P. 1–7.
9. Ravshanov Z., Abdullaeva B., Kubayashv K. Conjugated mathematical model for optimal location of industrial objects // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. 2020.
10. Ravshanov N., Zafar A., Shafiyev T. Mathematical model and numerical algortm to study the process of aerosol particles distribution in the atmosphere // International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019. Institute of Electrical and Electronics Engineers Inc., 2019.
11. Равшанов Н., Шафиев Т.Р., Орипжонова У. Численное исследования процесса распространения мелкодисперсных аэрозольных частиц в атмосфере // Вестник аграрной науки Узбекистана. 2019. № 4/2. С. 279–284.
12. Шафиев Т.Р. Математическая модель для мониторинга и прогнозирования процесса распространения аэрозольных частиц в атмосфере // Проблемы вычислительной и прикладной математики. 2020. № 1(25). С. 69–84.
13. Равшанов Н., Шафиев Т.. Модель, численный алгоритм и программное средство для мониторинга и прогнозирования экологического состояния промышленных регионов // Материалы международной конференции "Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях". -Фергана, 2019. С. 235–238.

## IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLAR MAVZUSINI MATHCAD MATEMATIK PAKETI YORDAMIDA O'QITISH

*Maqolada oliv ta'lim muassasalarida analitik geometriya fanini o'qitish zaruriyati, ikkinchi tartibli chiziqlarning amaliy masalalarda qo'llanilish sohalari kengligi, shuning uchun ularni chuqurroq o'rganishning zarurligi, buning uchun esa hosil bo'lgan tenglamalarni hozirgi zamon axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yechish va yechimnni grafiklarda tasvirlash talabalar bilimlarini yanada mustahkamlashi mumkinligi asoslangan holda ikkinchi tartibli egri chiziqlarni MathCAD dasturida tasvirlash va o'qitishning metodik tomonlari yoritib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** matematik modellashtirish, tenglama, ikkinchi tartibli egri chiziqlar, aylana, ellips, giperbola, parabola, matematik paketlar.

*В статье обсуждается необходимость преподавания аналитической геометрии в высших учебных заведениях,ширина применения линий второго порядка в практических задачах и, следовательно, необходимость их углубленного изучения, решения уравнений с использованием современных информационных технологий и методологические аспекты При обучении и обучении кривые второго порядка в MathCAD выделены, так как графическое представление решения может еще больше укрепить знания учащихся.*

**Ключевые слова:** математическое моделирование, уравнения, кривые второго порядка, окружности, эллизы, гиперболы, параболы, математические пакеты.

*The article discusses the need to teach analytical geometry in higher education, the breadth of application of second-order lines in practical problems, and therefore the need for their in-depth study, the solution of equations using modern information technology and The methodological aspects of teaching and teaching second-order curves in MathCAD are highlighted, based on the fact that the graphical representation of the solution can further strengthen students' knowledge.*

**Key words:** mathematical modeling, equations, second order curves, circles, ellipses, hyperbolas, parabolas, mathematical packages.

**Kirish.** Ma'lumki, analitik geometriya elementlarini, ayniqsa, ikkinchi tartibli chiziqlarni o'rganish amaliy ahamiyatga egadir. Bunday elementlar hayotimizning turli jabhalarida ko'p uchraydi.

Bizni o'rabi turgan olamda planametriyada o'rganiladigan birorta ham tekis obyekt mavjud emas. Shuning uchun ham oliy matematikaning analitik geometriya bo'limida o'raganiladigan, fazoviy obyektlarni kesishishidan hosil bo'ladigan, tekislikda tasvirlanadigan "ikkinchi tartibli egri chiziqlar"ni o'rganish va ularning amaliy masalalarga tatbiqlarini hozirgi zamon axborot texnologiyalari orqali talabalarga yetkazish ahamiyatga molikdir.

Agar talabalarga qanday fizik jarayonlar, hayotiy va iqtisodiy masalalar "ikkinchi tartibli chiziqlarga modellashtiriladi yoki boshqacha qilib aytganda bu egri chiziqlar o'zi nimaga kerak?" degan savol bilan murojaat qilinsa, odatda, ular asosan moddiy nuqtaning harakat trayektoriyalari, aylana, ellips yoki paraboladan iborat bo'ladi deb javob berishadi.

Haqiqatdan ham, Keplerning birinchi qonuniga asosan Quyosh sistemasidagi planetalar quyosh atrofida, planetalarning yo'ldoshlari esa shu planeta atrofida (shu jumladan Yerning sun'iy yo'ldoshlari ham) ellips bo'yicha harakat qiladi. Quyosh sistemasiga kirib kelgan kometalar qaysi ko'rinishda kirib kelganiga qarab Quyosh atrofida yoki ellips, yoki parabola, yoki giperbola ko'rinishida harakat qiladi.

Shuning bilan birga ikkinchi tartibli chiziqlarning qo'llanilish sohalari bundanda kengdir, ular algebra, geometriya kabi fanlarda ham kata ahamiyatga egadir.

Ushbu ikkinchi tartibli chiziqlarni talabalarning ko'pgina manbalarda keltirilgani kabi rasmlar orqali emas, balki kompyuter ekranida formulalar orqali qurilgan hollarini tezroq qabul qilishlari oson kechadi. Boshlang'ich ma'lumotlar asosida ular ko'rinishini, kattaligini o'zgartirish tasavvurni yanada kengaytiradi. Formulalar orqali grafiklarda bunday elementlarni tezroq tasvirlash hozirgi paytda ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan matematik paketlarda oson va qulaydir. Shuning uchun ham bunday mavzularni axborot texnologiyalaridan foydalanim o'qitish masalalariga e'tibor kuchayib bormoqda. Analitik geometriyadan adabiyotlarda geometrik figuralarning taxminiy ko'rinishlari beriladi, aniq berilgan qiymatlarda keltirilmaydi.

Agar shu figuralarning tasvirlari nazariy mashg'ulotlarda aniq qiymatlarda keltirilsa, talabalarga yanada tushunarli bo'ladi [1, 2].

Ta'lrim jarayonida ana shunday imkoniyatlarni taqdim etuvchi dasturiy vositalar sinfiga matematik paketlar misol bo'ladi. Ushbu paketlar orasida interfeysi matematik yozuvlarga yaqin, ya'ni tabiiy matematik formulalar ko'rinishida yozishga imkon beradigan, o'rganishga oson, natijalarni qulay grafik ko'rinishda tasvirlashga imkon beruvchi MathCAD dasturi hisoblanadi.

Foydalanuvchilarning MathCAD tizimida ikkinchi tartibli chiziqlarni va ulardagi ayrim elementlarni chizishlari uchun maxsus dasturlash elementlarini o'rganishlari shart emas. Buning uchun MathCAD matematika tiliga yaqinlashtirilgan usullarni taflif etadi.

O'qituvchilarga metodik tavsiyalar sifatida MatchCADda to'g'ri chiziq, nuqta, funksiyalarni hosil qilish va ularni grafiklar ko'rinishida tasvirlash ko'nikmalari hosil qilinsa, yetarli.

MathCAD matematik paketi haqidagi aksariyat manbalarda funfsiya tushunchasi yetarli darajada yoritilgan holda to'g'ri chiziq, nuqta kabi geometrik elementlarni tasvirlash usullari kam uchraydi [3, 4]. Shularni e'tiborga olgan holda bu elementlarni MathCAD tizimida tasvilashning ayrim usullarini keltiramiz.

### To'g'ri chiziq (kesma)

Ma'lumki, to'g'ri chiziq(kesma)ni dekart koordinatalar sistemasida tasvirlash uchun tekislikda ikki nuqtani berish yetarlidir. Bizga  $A(x_1, y_1)$  va  $B(x_2, y_2)$  nuqtalar berilgan bo'sin. Shu ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi [5]

$$\frac{x - x_1}{x_2 - x_1} = \frac{y - y_1}{y_2 - y_1}$$

ko'rinishida yozilishi mumkin. Ushbu tenglamani

$$y(x) = k \cdot (x - x_1) + y_1$$


ko'rinishida yozib olamiz, bu yerda

$$k = \frac{y_2 - y_1}{x_2 - x_1}$$

burchak koeffisienti.

Endi MathCAD tizimida ushbu to'g'ri chiziq(kesma)ni quyidagicha biror boshlang'ich qiymatlarni berilgan holda quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\begin{aligned} x1 &:= -2 & y1 &:= -2 & x2 &:= 2 & y2 &:= 2 \\ k &:= \frac{y2 - y1}{x2 - x1} & x &:= x1, x1 + 0.01..x2 & f(x) &:= k \cdot (x - x1) + y1 \end{aligned}$$




**1-rasm. Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq grafigi**

Bu yerda MathCADdagi o'zgaruvchi, diskret o'zgaruvchi, funfsiya tushunchalaridan, grafikni tasvirlashda mayjud to'r chiziqlarini o'rnatish, mashtab tanlash imkoniyatlardan foydalanildi. Agar 1-rasmagi formulalar MathCADda yozilib, grafik chizilsa, boshlang'ich qiymatlarni o'zgartirib turib, shu o'zgartirilgan boshlang'ich qiymatlarga mos grafikni olaverish mumkin.

### Nuqta

Ma'lumki, bitta nuqtani koordinatalar tekisligida tasvirlash uchun uning ordinatasi va absissasi, agar bir nechta bo'lsa, shuncha ordinata va absissa qiymatlari kerak bo'ladi. Avval bitta nuqtani MachCAD ekranida tasvirlashni amalga oshiramiz. Buning uchun boshlang'ich ma'lumotlarni kiritgan holda grafikda quyidagicha tasvirlaymiz:




**2-rasm. MathCAD ekranida nuqtani tasvirlash**

MathCADda nuqtani tasvirlash yanada tushunarli bo‘lsin uchun uni formatlash elementlarini ham 2-rasmida keltirdik. Ikkita va undan ortiq nuqtani tekislikda tasvirlash uchun vektor tushunchasidan foydalanamiz.

Endi ushbu ikki element, kesma va nuqtalarni bitta grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:


$$\begin{aligned}
 x1 &:= -2 & y1 &:= -2 & x2 &:= 2 & y2 &:= 2 & yy &:= (y1 \ y2)^T \\
 k &:= \frac{y2 - y1}{x2 - x1} & x &:= x1, x1 + 0.01..x2 & f(x) &:= k \cdot (x - x1) + y1 & xx &:= (x1 \ x2)^T
 \end{aligned}$$



**3-rasm. Kesma va nuqtalarni bir grafikda tasvirlash**

Grafikda bir necha elementni, bizning misolda funksiya va vektorni bir tekislikda tasvirlash uchun  $f(x)$  yozuvidan keyin “,” (vergul) belgisi klaviaturadan terilsa, kegingi element, bizning misolda nuqtalar ordinatasi vektorini kiritish imkoniy paydo bo‘ladi.

Analitik geometriya elementlarini tasvirlashda  $x = a$  ko‘rinishidagi chiziqlardan ham foydalanishga to‘g‘ri keladi. Hozir bu yerda  $x = 2$  chizig‘ini MathCADda tasvirlash usulini keltiramiz:



**4-rasm.  $x = 2$  chizig‘ini MathCADda tasvirlash**

MathCADda chiziq, nuqta kabi elementlarni tasvirlashni o‘zlashtirgandan so‘ng endi ikkinchi tartibli chiziqlardan birini chizishga kirishsak bo‘ladi. Manbalarda ikkinchi tartibli chiziqlarni o‘rganish an’anaviy ellipsoidan boshlanadi.

Ma’lumki, markazi koordinata boshida bo‘lgan ellipsning kanonik tenglamasining umumiy ko‘rinishi

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (1)$$

Ushbu chiziqning fokus nuqtalari koordinatalari  $F_1(-c, 0)$  va  $F_2(c, 0)$  kabi aniqlanadi, bu yerda  $c = \sqrt{a^2 - b^2}$ . Ellips uchun yana bir element bu eksentrisitet bo‘lib, u  $\epsilon = \frac{c}{a}$  kabi aniqlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan fokus masofasi, eksentrishet kabi kattaliklar (1)dagi  $a, b$  qiymatlarga bog‘liq. Demak, agar boshlang‘ich ma’lumot sifatida shu  $a, b$  qiymatlari berilsa, ellipsni ham, uning elementlarini ham grafikda tasvirlash mumkin.

Dastlab boshlang‘ich  $a, b$  qiymatlari asosida ellipsni tasvirlab olamiz. Buning uchun (1)ni  $y$  ga nisbatan yechib olamiz:

$$y = \pm b \cdot \sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}} \quad (2)$$


Demak, ellipsni MathCADda tasvirlash uchun uning yuqori va pastki qismlarini alohida funksiyalar sifatida tasvirlaymiz:

$$y1(x) = b \cdot \sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}}, \quad y2(x) = -b \cdot \sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}} \quad (3)$$

Endi yuqorida keltirilgan chiziqlar hosil qilish usullaridan foydalanib MathCADda ellipsni tasvirlaymiz. Buning uchun avval ellipsning berilgan ikki  $a$  va  $b$  qiymatlari asosida ellips va uning elementlarini hosil qilish formulalarini yozib olamiz.


$$\begin{aligned} a &:= 5 & b &:= 4 \\ y1(x) &:= b \cdot \sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}} & y2(x) &:= -b \cdot \sqrt{1 - \frac{x^2}{a^2}} \\ c &:= \sqrt{a^2 - b^2} & yc &:= 0 & \text{eps} &:= \frac{c}{a} & \text{dir} &:= \frac{a}{\text{eps}} \\ f1(x1) &:= \frac{y1(2) - yc}{2 - c} \cdot (x1 - c) & x22 &:= 2 \\ f2(x2) &:= \frac{y2(2)}{c + 2} \cdot (x2 + c) & x1 &:= 2, 2.01.. c & x2 &:= -c, -c + 0.01.. 2 \\ ydir &:= -3..3 & x &:= -15, -14.999.. 15 \end{aligned}$$

Ushbu formulalar yordamida hisoblangan qiymatlari asosida focus, eksentrishet kabi elementlarni ham ko‘rsatgan holda ellipsning grafigini hosil qilamiz:



**5-rasm. Ellips va uning elementlari**


Boshlang‘ich berilganlarni o‘zgartirib turib ellipsning turli kattalikdagi ko‘rinishlarini hosil qilish mumkin, masalan  $a = 8$  va  $b = 4$  qiymatlarda gorizontal yo‘nalishda kengaygan ellips grafigini hosil qilamiz:



**6-rasm. Ellipsning  $a = 8$  va  $b = 4$  qiymatlarda oлган grafigi**


Xuddi shuningdek, parabola va giperbola uchun ham ana shunday barcha elementlarga ega grafiklarni qurish mumkin.

$$\begin{aligned}
 p &:= 4 \\
 f(x) &:= \sqrt{2p}x \quad f1(x) := -\sqrt{2p}x \quad \text{fokus} := \frac{p}{2} \quad ydir := -10, -4.99..11 \\
 x11 &:= 4 \quad \text{dir} := \frac{-p}{2} \quad yfokus := 0 \\
 y(x1) &:= f(x11) + \frac{yfokus - f(x11)}{\text{fokus} - x11} \cdot (x1 - x11) \quad x1 := \text{fokus}, \text{fokus} + 0.01..x11 \\
 y1(x2) &:= f(x11) \quad x2 := \text{dir}..x11 \quad x := 0, 0.01..5
 \end{aligned}$$



7-rasm. Parabolani elementlari bilan tasvirlash

$$\begin{aligned}
 \text{Giperbola} \quad a &:= 6 \quad b := 4 \quad c := \sqrt{a^2 + b^2} \quad F1 := c \quad F2 := -c \quad yf := 0 \\
 g(x) &:= b \cdot \sqrt{\frac{x^2}{a^2} - 1} \quad g1(x) := -b \cdot \sqrt{\frac{x^2}{a^2} - 1} \quad x22 := 10 \\
 f1(x1) &:= g(x22) + \frac{yc - g(x22)}{F1 - x22} \cdot (x1 - x22) \quad x1 := F1, F1 + 0.1..x22 \\
 f2(x2) &:= g(x22) + \frac{yf - g(x22)}{F2 - x22} \cdot (x2 - x22) \quad x2 := F2, F2 + 0.1..x22
 \end{aligned}$$



8-rasm. Giperbolani elementlari bilan tasvirlash

**Xulosa.** MathCAD matematik paketi qo'llanilib ikkinchi tartibli chiziqlarni universal hosil qilish metodikasidan xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash matematikani o'qitishda yangicha yondashuv olib kiradi, bular ushbu maqolada qiyin hisoblashlarni osonlashtirish, grafiklarni chizish, boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartirib turib ko'rinishlarni almashtirish, natijalarni tushunishni osonlashtirish kabilarda o'z ifodasini topgan.

### Adabiyotlar

1. Ragulina M.I. (2008) Информационные технологии в математике. [Information technology in mathematics]. Moscow. Akadem. 340 p. (in russ).
2. Budovskaya L.M. and etc.(2013) Использование компьютерных технологий в преподавании математики [The use of computer technologies in teaching mathematics] // Engineering journal: science and innovations. № 5. [URL: http://engjournal.ru/catalog/pedagogika/hidden/736.html](http://engjournal.ru/catalog/pedagogika/hidden/736.html).(in russ)

3. Rasol'ko G.A. (2010) Использование компьютерных технологий в курсах вузовской математики [The use of information technology in university mathematics courses]: teaching aid: in 3 hours / Problem solving in the MathCAD package. Minsk: BSU, Part 1. 320 s.(in russ). <http://elib.bsu.by/handle/123456789/168637>.
4. Alikulov T., Movlonov M. (2021) Ikkinchitartibli egri chiziqlar mavzusini talabalarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirishning omili sifatida dasturiy vositalar yordamida o'qitish [Teaching on the topic of second-order curves using information technology as a factor in the development of students' mathematical skills]//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. Volume 1. Issue 3. ISSN 2181-1784. SJIF 2021:5.423. pp.312-319. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). (in uzb).
5. Jumayev J., Opokina N.A. (2021) Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD [Solution of mathematical tasks in packages of mathematical programs Maxima and MathCAD]. teaching aid. Kazan, KFU. Retrieved from <https://dspace.kpfu.ru/xmlui/handle/net/163784> (in Russ).
6. Shadiev, R., Alikulov, T., Turaev, S., Chorshanbiev, Z., & Gulomova, M. (2020). Mathematical preparation in the system of pedagogical education: from knowledge to activity. Journal of Critical Reviews, 7(5), 798-801.

**Ozodjon JALOLOV**  
Buxoro davlat iniversiteti dotsenti,  
fizika-matematika fanlari nomzodi

**Shohida FAYZIYEVA**  
Buxoro davlat iniversiteti  
magistri

## LAGRANJ INTERPOLYATSION KO'PHADI UCHUN ALGORITM VA DASTUR YARATISH

*Aksariyat hisoblash metodlari masalasi qo'yilishida funksiyalarni unga biror, muayyan ma'noda yaqin va tuzilishi soddarroq bo'lgan funksiyalarga almashtirish masalasi ko'rildi. Ushbu maqolada Lagranj interpolyatsion ko'phadini ko'rinishini aniqlovchi algoritm va dastur ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** interpolyatsiyalash, tugun, differensiyallash, integrallash, Lagranj interpolyatsion ko'phadi, ko'phadlar sinfi.

*Проблема большинства вычислительных методов заключается в замене функций функциями, в определенном смысле более близкими к нему и более простыми по структуре. В данной статье обсуждаются алгоритм и программа для определения внешнего вида интерполяционного полинома Лагранжа.*

**Ключевые слова:** интерполяция, узел, дифференцирование, интегрирование, интерполяционный полином Лагранжа, класс полиномов.

*The problem of most computational methods involves the replacement of functions with functions that are closer to it in a certain sense and simpler in structure. This paper discusses the algorithm and program for determining the appearance of the Lagrange interpolation polynomial.*

**Key words:** interpolation, node, differentiation, integration, Lagrange interpolation polynomial, class of polynomials

**Kirish.** Funksiyalarni yaqinlashtirish masalasining eng sodda va juda keng qo'llaniladigan qismi funksiyalarni interpolyatsiyalash masalasi ko'rildi.

Dastlab interpolyatsiyalash deganda funksiyaning qiymatlarini argumentning jadvalda berilmagan qiymatlari uchun topish tushuniladi. Bu holda interpolyatsiyalashni "satrlar orasidagilarni o'qiy bilish san'ati" deb ham ta'riflash mumkin. Hozirgi vaqtida interpolyatsiyalash tushunchasi juda keng ma'noda tushuniladi. Interpolyatsiya masalasining mohiyati quyidagidan iborat. Faraz qilaylik,  $[a, b]$  oraliqda  $y = f(x)$  funksiya berilgan yoki hech bo'lmaganda uning  $f(x_0), f(x_1), \dots, f(x_n)$  qiymatlari ma'lum bo'lsin. Shu oraliqda aniqlangan va hisoblash uchun qulay bo'lgan qandaydir  $\{P(x)\}$  funksiyalar sinfini, masalan, ko'phadlar sinfini olamiz. Berilgan  $y = f(x)$  funksiyani  $[a, b]$  oraliqda  $P(x_i) = f(x_i)$  ( $i = \overline{0, n}$ ) interpolyatsiyalash masalasi shu funksiyani berilgandagi sinfnинг shunday  $P(x)$  funksiyasi bilan taqribiy ravishda  $f(x) = P(x)$  almashtirishdan iboratki,  $P(x)$  berilgan  $x_0, x_1, \dots, x_n$  nuqtalarda  $f(x)$  bilan bir xil qiymatlarni qabul qilsin.

Bu yerda ko'rsatilgan  $x_0, x_1, \dots, x_n$  nuqtalar interpolyatsiya tugunlari yoki tugunlar deyiladi.  $P(x)$  esa interpolyatsiyalovchi funksiya deyiladi. Agar  $\{P(x)\}$  sinfi sifatida darajali ko'phadlar sinfi olinsa, u holda interpolyatsiyalash algebraik deyiladi. Algebraik interpolyatsiyalash apparati hisoblash matematikasining ko'p sohalarida qo'llaniladi, differensiyallash va integrallashda, transendant, differensiyallash va integral tenglamalarni yechishda, funksiyaning ekstremumini topish hamda funksiya jadvalini tuzishda Teylor yoyilmasi klassik analizda qay darajada ahamiyatga ega bo'lsa, algebraik interpolyatsiyalash ham hisoblash matematikasida shunday ahamiyatga egadir. Ayrim hollarda interpolyatsiyalashning boshqa ko'nikmalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan,  $f(x)$  davriy funksiya bo'lsin, u holda  $\{P(x)\}$  sinfi sifatida trigonometrik funksiyalar sinfi olinadi, agar interpolyatsiyalananadigan funksiya berilgan nuqtalarda cheksizga aylanadigan bo'lsa, u holda  $\{P(x)\}$  sinfi sifatida ratsional funksiyalar sinfini olish ma'quldir.

Darajasi  $n$  dan yuqori bo'lmagan shunday ko'phad qurilsinki, u berilgan  $(n+1)$  ta  $x_0, x_1, \dots, x_n$  nuqtalarda berilgan  $f(x_0), f(x_1), \dots, f(x_n)$  qiymatlarni qabul qilsin. Bu masalani geometrik ta'riflash ham mumkin: darajasi  $n$  dan oshmaydigan shunday  $P(x)$  ko'phad qurilsinki, uning grafigi berilgan  $(n+1)$  ta  $M_k(x_k, f(x_k))$  ( $k = \overline{0, n}$ ) nuqtalardan o'tsin.

Demak,  $c_m$  ( $m = \overline{0, n}$ ) koefisientlarni shunday aniqlash kerakki,

$$P(x) = c_0 + c_1 x + \dots + c_n x^n \quad (1)$$

ko‘phad uchun ushbu  
 $P(x_k) = f(x_k), k = 0, 1, \dots, n$

tengliklar bajarilsin. Bu tengliklarni ochib yozsak  $c_m (m = \overline{0, n})$  larga nisbatan  $(n+1)$  noma'lumli  $(n+1)$  ta tenglamalar sistemasi hosil bo‘ladi.

$$\begin{cases} c_0 + c_1 x_0 + c_2 x_0^2 + \dots + c_n x_0^n = f(x_0) \\ c_0 + c_1 x_1 + c_2 x_1^2 + \dots + c_n x_1^n = f(x_1) \\ \dots \\ c_0 + c_1 x_n + c_2 x_n^2 + \dots + c_n x_n^n = f(x_n) \end{cases} \quad (2)$$

bu sistemaning determinanti Vandermond determinantidir:  $W(x_0, x_1, \dots, x_n)$ . Masala mazmunidan ravshanki,  $x_k$  nuqtalar bir-biridan farqli, demak bu determinant noldan farqlidir. Shuning uchun ham (2) sistema va shu bilan birga qo‘yilgan interpolyatsiya masalasi yagona yechimga ega. Bu sistemani yechib,  $c_m$  larni topib (1) ga qo‘ysa,  $P(x)$  ko‘phad aniqlanadi. Biz  $P(x)$  ning oshkor ko‘rinishini topish uchun boshqacha yo‘l tutamiz, fundamental ko‘phadlar deb atluvchi  $Q_{nj}(x)$  larni, ya’ni

$$Q_{nj}(x_i) = \delta_i^j = \begin{cases} 0, & i \neq j \text{ bo‘lganda,} \\ 1, & i = j \text{ bo‘lganda,} \end{cases}$$

shartlarni qanoatlantiradigan n-darajali ko‘phadlarni ko‘ramiz. U holda

$$L_n(x) = \sum_{j=0}^n f(x_j) Q_{nj}(x) \quad (3)$$

izlanayotgan interpolyatsion ko‘phad bo‘ladi. Haqiqatdan ham barcha  $i = 0, 1, 2, \dots, n$  lar uchun

$$L_n(x_i) = \sum_{j=0}^n f(x_j) Q_{nj}(x_i) = \sum_{j=0}^n f(x_j) \delta_i^j = f(x_i)$$

va ikkinchi tomondan  $L_n(x)$   $n$ - darajali ko‘phaddir.

Pedagogikaning yetakchi tushunchalaridan biri bo'lgan o'quv jarayoni ko'pincha o'qituvchilar tomonidan faqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi birligida faoliyat va aloqa sifatida tashqi ko'rinishi bilan namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. O'quv jarayonining mohiyatini ko'rib chiqishga bunday yondashuv yetarli emas, chunki o'rganish tushunchasi nafaqat pedagogika fanlari, balki psixologiya, fiziologiya va kibernetika tomonidan ham qo'llaniladi. O'quv jarayonining samaradorligini baholashda aniqroq usullardan foydalanish uchun o'zi qabul qilgan ma'lumotlar asosida atrofdagi dunyoga oqilona ta'sir qilish nuqtayi nazaridan o'z xususiyatlarini yaxshilashga qodir bo'lgan har qanday tizimni bildiruvchi o'quv tizimi joriy etiladi [1, 24].

Dasturlashtirilgan o'qitish – ta'lim metodlaridan biri bo'lib, dastlab XX asrning 40-50-yillarida AQShda, keyin Yevropada rivojana boshladi. O'qitish texnologiyasining rivojlanishiga, texnik jihatdan murakkab o'qitish tizimlari nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga turki bo'ldi. Dasturlashtirilgan ta'lim - kompyuter o'quv vositalaridan foydalangan holda o'quv dasturiga muvofiq bilim va ko'nikmalarini nisbatan mustaqil va individual ravishda o'zlashtirish. An'anaviy o'qitishda o'quvchi odatda darslikning to'liq matnini o'qiydi va uni mushohada qiladi va o'zlashtirishga harakat qiladi. Dasturlashtirilgan ta'limning asosiy g'oyasi - o'quv dasturidan foydalangan holda o'rganishni boshqarish, o'quvchining o'quv harakatlarini tartibga solish hamda nazorat qilish orqali keying bosqichni amalga oshirishdan iborat.

Dasturlashtirilgan ta'lim metodi - amerikalik professor Skinner tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Skinnerning fikricha "o'qitish jarayonida o'quv materiallari kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ketma-ketlik asosida amalga oshirish hamda o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirishda va nazorat qilish yordamida o'quvchining o'zlashtirganligini aniqlab, xatolik darajasi 5% dan oshmasagina keyingi bosqichga o'tish orqali o'rganishni davom ettirish lozimligi ta'kidlanadi" ushbu usul dasturlashtirilgan ta'limning chiziqli algoritmi yoki Skinner algoritmi deyiladi.

Ushbu algoritm asosan dasturlashtirilgan ta'limning asosiy maqsadi kompyuterli yondashuv asosida o'quv jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga, o'quv materiallарini tezkor egallash orqali bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u quyidagicha amalga oshirilishi ta'kidlanadi. U o'qitishni tashkil etish uchun quyidagi talablarni qo'yadi [4]:

- o'qitish jarayonida o'quvchi o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganishi va qo'yilgan "qadamlar" ketma-ketligida belgilangan bosqichdan o'tishi lozim;
- o'qitish jarayoni shunday tuzilishi kerakki, o'quvchi o'qish jarayonida o'quv materialini nafaqat idrok etsin, balki uni o'zlashtirib keying badamga o'tishga harakat qilishi lozim;
- keyingi materialni o'rganishga kirishishdan oldin o'quvchi avvalgi o'quv materiallarini mustahkam o'zlashtirganligini his qilishi va o'zida mujassamligiga ishonch hosil qilishi kerak;
- o'quvchiga materialni kichik qismlarga (dasturning "bosqichlari") bo'lish yordamida o'quv materialni o'zlashtirishga undash, taklif qilish va hokazolar orqali yordam berishni ta'minlash lozim;
- o'quvchining har bir to'g'ri javobi uchun fikr-mulohazalardan foydalangan holda mustahkamlanishi va o'quvchini qiziqishini nafaqat shakllantirish balki rivojlantirish lozim;
- ushbu tizimga ko'ra, tinglovchilar o'quv dasturining barcha bosqichlarini ketma-ket, dasturda berilgan tartibda muvoffaqiyatlari o'tishi lozim. Har bir bosqichdagi vazifalar axborot matnidagi bo'shliqni bir yoki bir nechta so'z bilan to'ldirishdir. Shundan so'ng, o'quvchi o'z yechimini oldindan qandaydir tarzda topilgan to'g'ri javoblar bilan tekshirishi kerak. Agar talabaning javobi to'g'ri bo'lsa, u keyingi bosqichga o'tishi kerak; agar uning javobi to'g'ri javobga to'g'ri kelmasa, u yana topshiriqni bajarishi kerak.

Shunday qilib, chiziqli dasturlashtirilgan o'qitish tizimi vazifalarni xatosiz bajarilishini nazarda tutuvchi o'qitish prinsipiiga asoslanadi. Shuning uchun dasturning bosqichlari va topshiriqlari eng zaif o'quvchi uchun mo'ljalangan. B.Skinnerning fikricha, talaba asosan topshiriqlarni bajarish orqali o'rganadi va topshiriqning

to‘g‘ri bajarilishini tasdiqlash talabaning keyingi faoliyatini rag‘batlantirish uchun mustahkamlovchi manba bo‘lib xizmat qiladi [2].

Chiziqli dasturlashtirilgan ta’lim dasturlari barcha o‘quvchilarning xatosiz qadamlari uchun mo‘ljallangan, ya’ni ularning eng zaiflari imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Shu sababli, dasturlarni tuzatish ta’minlanmaydi: barcha o‘quvchilar bir xil topshiriqlar ketma-ketligini oladilar va bir xil bosqichlardan o‘tishlari kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham chiziqli dasturlashtirilgan o‘qitish metodi deyiladi ya’ni, bir xil chiziq bo‘ylab harakatlanishadi.

**Muhokamalar va natijalar.** Dasturlashtirilgan ta’limni rivojlantirishga yangicha yondoshuv bilan 1960-yilda amerikalik pedagog Norman Krouder ham o‘z hissasini qo‘shti, u tomonidan dasturlashtirilgan o‘qitishning tarmoqlanuvchi algoritmi yoki Krouder algoritmi ishlab chiqildi. Krouder fikricha “o‘qitish jarayonida o‘quv materiallari kattaroq bo‘laklarda hamda qiyinlik darajasi yetarli bo‘lgan tarzda beriladi, o‘quvchi savollarga javob berolmasa, ya’ni o‘zlashtira olmasa, unga nisbatan oddiyroq usulda tushuntiriladi. Ya’ni yopiq test savollardan foydalanish orqali amalga oshiriladi savol va uning bir nechta javoblari mavjud bo‘lib, ulardan faqat bittasi to‘g‘ri javobga ega (hozirgi test sinovi). Agar o‘quvchi noto‘g‘ri javobni tanlasa, dastur unga xatoga yo‘l qo‘ylganligini tushuntiradi va keying bosqichga o‘tish uchun mashqlarni bajartiradi. Agar o‘quvchi to‘g‘ri javobni tanlasa, dastur bu javobning haqiqatdan ham to‘g‘riligini tushuntiradi. Har bir o‘quvchining o‘quv materialining o‘zlashtirish usuli turli xil bo‘ladi. O‘rgatuvchi dastur o‘quvchiga o‘rgatishning eng samarali yo‘lini tanlaydi”.

Dasturlashtirilgan ta’limni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida Angliyaning Sheffild unveristetining psixologlari tomonidan, chiziqli va tarmoqlanuvchi algoritmlari dasturlashtirilgan ta’lim usullarini birlashtirgan holda aralashtirilgan algoritm yoki Sheffild algoritm asosida o‘qitishni ishlab chiqdilar hamda dasturlashtirilgan o‘qitishning didaktik tamoyillarini ko‘rsatib berdilar.

Dasturlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirish borasida XX asrning 70-yillaridan boshlab, bir qancha olimlar N.F.Talizina, P.Y.Galperin A.M.Matyushkin, L.H.Landa, I.I.Tixonov va boshqalar ham o‘zlarining qarashlarini ilgari surdilar. Ularning fikricha dasturlashtirilgan ta’limning maqsadi kompyuterli yondashuv asosida o‘quv jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarini mustaqil ravishda bilim olishlarini va o‘quv materiallarini tezkor hamda samarali tarzda egallashlaridan iboratdir.

XXI asr nafaqat “axborot texnologiyalari” asri, balki intellektual bilimning salohiyati o‘zini namoyon qila oladigan asr sifatida ham xalqaro mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari va multimediali interfaol didaktik-dasturiy vositalardan foydalanib dasturlashtirilgan ta’lim metodlarini qo‘llash hozirgi davrning talablaridan biri hisoblanadi. Jamiatni barcha sohalarini axborotlashtirish bilan bog‘liq omillar, maktab o‘quvchilarini yetarli darajada tayyorlash zarurati va zamonaviy kompyuterlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish lozimligi uqtirilmoqda. Ko‘p hollarda interfaol multimediali texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirishga, ta’limning sifat va samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarishni ta’minalashga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Interfaol didaktik-dasturiy va multimediali texnologiyalar asosida ta’lim samaradorligini oshirish quyidagi didaktik tamoyillarni qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq:

**1. Tizimlilik tamoyili.** Dars jarayonida qo‘llaniladigan didaktik materialni soddalashtirish, tizimlilik asoslariga muvofiq ravishda rejalashtirish hamda o‘quv materialini mantiqiy qismlarga oqilona tarzda taqsimlash talab qilinadi. Ushbu tamoyilni dasturlashtirilgan ta’lim asosida amalga oshirishda asosan:

- zamonaviy kompyuter uchun dasturlashtirilgan didaktik-dasturiy vositani ishlab chiqish orqali o‘quv predmetining rasmiylashtirilgan modelini yaratish va uni aniqlashtirish lozimligini taklif qilinadi;

- har bir mavzu kichik-kichik bo‘laklarga oqilona va samarali tarzda bo‘lingan holda tizilashtirilishi hamda amalga oshirilishi lozim;

- yaratilgan didaktik dasturlar ma’lumotlar bazasini mavzular guruhibiga va hatto butun kursga ajratish imkoniyatini berishi lozim;

- o‘quv jarayoni ham didaktik-dasturiy vositalar hamda multimediali interfaol texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi lozim;

- o‘qitishning noan’anaviy va an’anaviy shakllarini qiyoslash asosida dars jarayonining bosqichlari aniq tarzda tizimlashtirilishi lozim.

**2. Faollik tamoyili.** O‘quvchilarning faolligi – zamonaviy umumiyo‘rta ta’limning muammolarini hal qilishning kalitidir. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z-o‘ziga odilona baholash barobarida o‘z-o‘zini faoliyatga jalb qilishi hamda faolligini namoyish qilishi dars samaradorligini ta’minalashning asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, dasturlashtirilgan ta’lim metodlari interfaol didaktik-dasturiy vositalar va multimediali texnologiyalar asosida o‘quvchilarni dars jarayonida beriladigan o‘quv materiallarini beixtiyor o‘zlashtirishlariga jalb qila oladi. Darsning natijaviyligini yaxshilanishning muhim shartlaridan biri -

o‘quvchilar tomonidan kompyuter tizimiga kirish, ularda bilimlarni faoliyat tizimiga kiritishni amalga oshirish hisoblanadi. Multimediali interfaol texnologiyalari yordamida o‘quv muloqotini shakllantirishning asosiy muammosi - odatda ba’zi variantlarni tanlashda yoki kalit so‘zni kiritishda paydo bo‘ladigan o‘quvchilarning haddan tashqari ko‘p javoblarini olish hisoblanadi.

**3. Mustaqillik tamoyili.** O‘quvchiga o‘z yechimini tanlashga, uning samaradorligini baholashga imkon beradigan mustaqillikga ega bo‘lishni talab qiladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarni tanlash huquqi mavjud bo‘lib, savolga o‘zicha javob berishi va keyin javobni namuna bilan hamda oldingi javoblar bilan taqqoslay olishidir.

Ushbu o‘quv jarayonini tashkil etish jarayonida maktab o‘quvchilari o‘z ishlarini aks ettirishni, tahlil qilishni, uni baholashni, namunalar bilan taqqoslashni o‘rganadilar. Vazifani hal qilishdan qoniqish hissi yangi bilimlarni olishga qaratilgan o‘quv, ijodiy, mustaqil ishlarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

**4. Qiyinchiliklarni yengib o‘tish tamoyili.** Dasturlashtirilgan ta’limda multimediali texnologiyalaridan va didaktik dasturiy vositalardan foydalangan holda o‘quvchilar berilgan vazifalarni diqqat bilan o‘rganishi, kompyuter va o‘quvchi o‘rtasidagi suhbat mazmunini sinchkovlik bilan mushohada qilishi lozim. Vazifalar o‘quvchilarning bilim darajasiga muvofiq bo‘lishi, mashqlarni turli-tuman didaktik o‘yinlar ko‘rinishda amalga oshirish hamda dasturning imkoniyatlari va vazifalari taqdim etilgan murakkablik ishining boshlang‘ich bosqichida o‘zgarishi mumkin. Bu haqiqatdan ham o‘quvchini bilim darajasiga mos keladigan darajada o‘qitishga imkon beradi va uni juda oson yoki juda qiyin muammolarni hal qilishdan ozod qiladi. Bu borada nafaqat qiyinchilikni yengib o‘tish, balki mashqlarni oson va oqilona yengib o‘tishda baholiqdrat yordam beradi.

**5. Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili.** Ushbu tamoyil shuni ko‘rsatadiki, bilimning ahamiyati uning haqiqiy hayotdagi ma’nosi bilan anglashdan iboradir. Shunday qilib, o‘quv jarayonida dasturlashtirilgan ta’lim metodlaridan va multimediali interfaol texnologiyalardan foydalanish ta’limdagি nazariy va amaliy jihatlarning muvozanatini amaliyot tomoniga o‘zgartirishga imkon beradi, chunki ular hodisa va jarayonlarini farqlashga va modellashtirishning noyob imkoniyatlarini ochib berishga egadir.

Didaktik dasturiy va multimediali interfaol texnologiyalarini qo‘llashda ta’limning afzalligi shundan iboratki, ta’lim amaliy tomonni egallaydi: ishning muloqot xarakteri, modellashtirish imkoniyatlari predmetga amaliy masalalarni yechish shaklida o‘qitish kiradi. Bunda loyihalash va modellashtirish usullaridan foydalanish tavsija etiladi.

**6. Individuallashtirish tamoyili.** Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda ta’limni individuallashtirish ishning interaktiv xususiyati bo‘lib, har bir o‘quvchini kompyuter yordamida o‘rgatishni, o‘quvchining bilimini va yosh xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirishning mavjudligi bilan bog‘liq. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini interfaol multimedia texnologiyalari va didaktik dasturlari yordamida chuqurroq va aniqroq hisobga olish hamda uni amalga oshirish mumkin. Maktab o‘quvchini oldindan tayyorgarlik yordamida tayyorlash darajasi aniqlanishi mumkin va shu darajaga muvofiq nazariy materiallar, muammolar shuningdek, maslahatlar va yordamlar berib borish mumkin. Bilimi sayoz o‘quvchilarni o‘rganishda nazariy ma’lumotlarni tushuntirishni osonlashadi, savollar va muammolar soddallashtiriladi, o‘quvchiga tushuntirishdagi yordam to‘g‘ridan-to‘g‘ri maslahat xarakteriga ega bo‘ladi. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘rganish va ularning bilim darajasiga mos bo‘lgan masalalar o‘quvchiga nazariy va amaliy jihatdan tushuntirilib yangicha bosqichda olib boriladi. Natijada ijodiy muammolar ixtirochilik va bilvosita amalga oshirish xarakteriga ega bo‘ladi.

Multimedia yordamida o‘quvchilar bilimlari, uning shaxsiy xususiyatlari bo‘yicha bo‘sliqlarni tashxislash va unga muvofiq ta’limni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Har bir o‘quvchi ma’lum bir o‘quvchiga mos keladigan tezlikda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keyin o‘quvchilar javoblarning sifatiga qarab yuqori yoki quiyi darajadagi o‘qish bosqichiga qo‘yiladi. Bundan tashqari, ushbu darajalar tuzatiladi, ular o‘quv materialining katta hajmini o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Aytgancha, multimedia vositalarining turli xil variantlari o‘quvchining individual xususiyatlariga mos keladigan o‘quv dasturini tanlashga imkon beradi.

**7. Samaradorlik tamoyili.** An’anaviy o‘rganishda ushbu prinsip o‘qituvchining didaktik materiallarni shakllantirishini amalga oshirishda vaqtadan to‘g‘ri va oqilona foydalanishda bir qancha muammolarni tug‘diradi.

O‘qitish jarayonida interfaol multimedia vositalaridan va didaktik-dasturiy ilovalardan foydalanish, bir qancha yangi jihatlar yordamida o‘qish jarayonini optimallashtirish muammosini yechishni amalga oshiradi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish asosida an’anaviy o‘qitishdagi ba’zi bir muammolarni yechishni va o‘qituvchining mashshaqtli mehnatini yengillashtiradi.

Maktab o‘quvchilarining o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishini, o‘quvchilarning faolligini va ta’lim samaradorligini va natijaviyligini ta’minlashning asosiy shartidir. Bu qiziqish ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, mavzuning mazmuni, uning murakkablik darajasi, o‘qituvchini rag‘batlantirish jarayonini tashkil etishi,

o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning pedagogik mahorati, o‘quvchilarning o‘zaro do‘stona raqobat muhiti, sinfdagi o‘zaro munosabatlar, ma’lum bir fan tomonidan taqdim etilgan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitishdagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishni amalgga oshiradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, dasturlashtirilgan ta’lim maktab amaliyoti va ta’lim nazariyasida ilmiy-texnik inqilob davri deb ataladigan jadal rivojlanish davrining uchta asosiy tendensiyasining kesishish nuqtasi sifatida paydo bo‘ldi. Bu uchta tendensiyani quyidagicha shakllantirish mumkin: fan va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik, shaxs tomonidan ilgari amalgga oshirilgan ba’zi harakatlarni avtomatlashtirish, hayotning turli tomonlarini zamonaviy tashkil etishda boshqaruv rolining ortishi. Ma’rifatga o‘tgan zamonaviy sivilizatsiyaning bu tendensiyalari oxir-oqibat dasturlashtirilgan ta’limga olib keldi. Bu tushunchada bu ilmiy-texnikaviy inqilob davridagi ta’lim rivojlanishining tarixiy qonuniyatidir. Dasturlashtirilgan ta’limni ortiqcha baholamaslik kerak, lekin uni e’tiborsiz qoldirmaslik ham kerak. Ushbu usul juda muhim va dinamik rivojlanmoqda.

Shunga qaramay, kompyuter texnologiyalari va masofaviy ta’limning rivojlanishi o‘quv amaliyotida dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi rolini oshiradi.

### **Adabiyotlar**

1. Беспалко Б.П. Программированное обучения дидактическое основи. Учебный пособие. -М.: Издательство “Висшая школа”, 1970. -152 с.
2. Могилёва В.Н. Психофизиологический особенности детей младшего возраста И их учителей в работе с компьютером: Учебный пособие для студентов средний пед учебний заведении. -М.: Издательский центр “Академия”, 2007.-272 с.
3. Rustamov H.Sh. Matematikani o‘qitishda didaktik–dasturiy va multimediali interfaol majmualardan foydalanish // “Fizika-matematika va informatika” journali, 2019, №5, 86-91
4. Куписевич Ч. Основи обший дидактики. -М.: Издательство “Висшая школа”, 1986.

**G.K.ZARIPOVA**

Buxoro davlat universiteti  
axborot texnologiyalari kafedrasи  
dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

**O.R.HAYDAROV**

Buxoro davlat universiteti  
axborot texnologiyalari  
kafedrasи o'qituvchisi

**F.R.KARIMOV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va  
dasturlash texnologiyalari  
kafedrasи o'qituvchisi

## **BO'LAJAK INFORMATIKA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH TENDENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Ushbu maqola bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarini tatbiq etish tendensiyasini takomillashtirish kerakligi haqida.*

**Kalit so'zlar:** jahon ta'lifi, didaktik vositalar, megatendensiyalar, ta'limning uzluksizligi, mustaqil ta'lim, axborot texnologiyalari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, IT-mutaxassislar, IT-industriya, Harakatlar strategiyasi, Uzluksiz ta'lim tizimi, imprinting, meorayzing, avtorizatsiya, initsaitsiya.

*Статья посвящена необходимости повышения квалификации и переподготовки учителей в системе непрерывного образования для подготовки конкурентоспособных специалистов в современном мире.*

**Ключевые слова:** мировое образование, дидактические инструменты, мегатенденции, непрерывность образования, независимое образование, информационные технологии, стратегия "Цифровой Узбекистан – 2030", ИТ-специалисты, ИТ-индустрия, Стратегия действий, Система непрерывного образования, импринтинг, мераизинг, авторизация, инициация.

*The article is devoted to the need for professional development and retraining of teachers in the system of continuing education for the preparation of competitive specialists in the modern world.*

**Key words:** world education, didactic tools, megatendents, lifelong learning, independent education, information technology, "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, IT specialists, IT industry, Action strategy, Continuing education system, imprinting, meraising, authorization, initiation.

**Kirish.** Juhon ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaliv didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Yevropa mamlakatlariga xos global ta'lim muhitini shakllantirishga ilmiy yondashuvlar kontekstidagi "megatendensiyalar" ko'rsatadiki, ta'limning uzluksizligi va amaliy yo'nalgaligini ta'minlash, mustaqil ta'lim olish, ijodiy rivojlanishga yo'naltirish, o'qitishning yangi formatlarini faol rivojlantirishda zamonaliv didaktik vositalarni yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini dars jarayoniga to'g'ri qo'llay oladigan bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish tendensiyasini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda mustaqillik yillarda kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan zamonaliv talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoxda. Kadrlar tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishish uchun ta'limning yakuniy maqsadlarini adekvat anglash, uni takomillashtirish hamda mazmunan zamonalivlashtirish, ayniqsa, o'qitishning interfaol metodlari va zamonaliv didaktik vositalarini, supertyutorlar (mashq qildiruvchi dasturlar), kasbiy tyutorlar (kasbiy faoliyaga oid dasturlar asosida yaratilgan o'quv materiallari) shaklidagi o'rnatuvchi kompyuter dasturlarini qo'llash va rivojlantirish borasida keng qamrovli maqsadli ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning (06.10.2020 y. PQ-4851-son) "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida: "Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rileyotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari

faoliyati yo‘lga qo‘yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o‘qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalarini sohasidagi o‘quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Axborot texnologiyalarining o‘qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mehnat bozorining malakali IT-mutaxassislariga bo‘lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida” shunga ko‘ra juda ko‘p vazifalarni belgiladi [1].

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning dasturiy-metodik ta’minoti, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning milliy va jahon ta’lim tajribasiga asoslangan tashkiliy pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga [2] muvofiq “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi. Jumladan, informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi zamonaviy didaktik vositalarni o‘qitishning bosqichli (fazali) modeli asosida qo‘llash (imprinting – o‘quv materiali mazmunini idrok qilish; meorayzing – eslab qolish; avtorizatsiya – o‘quv materiali mazmunini anglash va uni qayta tiklash; inititsiya – o‘zlashtirilgan bilimlarni baholash va e’tirof etish fazalari); kasbiy kompetensiyalarni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini vositasida shakllantirishning yangi modellarini ishlab chiqish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini vositasida o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish; bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirishda, umuminsoniy va ta’limiy qadriyatlarning mohiyatini ochib berishda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalarini sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ5099-son, 2017-yil 27-iyulndagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu muammoning hal etilishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Binobarin, shuni e’tiborga olish lozimki, jahonda global o‘zgarishlar jarayoni, fan-teknika jadal rivojlanishi hamda axborot texnologiyalarining rivojiga asoslangan axborotlashgan jamiyat muhitini ta’lim tizimiga kuchli ta’sir etmoqda. Bugungi muntazam amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalardan biri raqamlashtirish jarayoni xususiyatlariga to‘la moslashish hisoblanadi. Xalqaro miqyosda ijtimoiy instittlarning ta’lim tizimi boshqaruvidagi o‘zaro hamkorligini takomillashtirish dolzarbliги tobora ayon bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini axborotlashtirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Dunyoning hozirgi rivojlanish bosqichi ilmiy axborotlar hajmining muttasil o‘sib borishi bilan tavsiylanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2012-yil 21-martdagagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarorlari, Hukumatning tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlari ijrosini ta’minalash, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir [1]. Qolaversa, 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining bevosita 165-bandi Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish masalalariga oid bo‘lib, unda ta’lim jarayonini axborotlashtirishga doir vazifalar hamda ta’lim subyektlarida zamon talablariga mos mediakompetentlikni shakllantirish masalalari belgilangan.

**Muhokamalar va natijalar.** Ta’lim muassasasining elektron axborot ta’lim muhitini yaratish so‘f texnik masala bo‘lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik

imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida ishga solish talab etiladi. Zamonaviy axborot telekommunikatsion texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiriladi:

- axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'rganish obyekti sifatida, ya'ni talabalar yangi axborot texnologiyalar, ularning tarkibiy qismlar va foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'ladilar;

- axborot-telekommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida, ya'ni zamonoviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida talabalarga bilim beriladi hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etiladi;

- ta'lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni ta'lim muassasasining barcha ish faoliyati, shu jumladan, o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish;

- talabalar va professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik izlanishlarini amalga oshirish vositasi sifatida, ya'ni o'quv muassasasida o'qituvchi-professor va talabalar orasida ilmiy-tadqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish.

Axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlaydigan informatika fani o'qituvchisi quyidagi kompetensiyaviy talablarga javob berishi kerak:

- mediakompetentlik sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishligi. Mediakompetentlik tushunchasi (media competence) ta'lim tizmimizdagi nisbatan yangi atama hisoblanib, u media ma'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish, yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Mediata'lim hozirgi davrda shaxsnинг ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi [3]. Professor A.B.Fedorov zamonaviy olamdagи mediata'limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to'laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash mediatexnika yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlanish jarayoni sifatida ko'radi [4].

- elektron darsliklar yarata olish va ular bilan erkin faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio kabi dasturlarda erkin ishlay olish;

- masofaviy ta'lim platformasini yangiliklar bilan boyitib borish va boshqalar.

Hozirgi vaqtida dunyo miqyosida koronavirus pandemiyasi barcha sohalar singari ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Karantin qoidalari ko'plab an'anaviy ta'lim shakllari va metodlarini samarasiz holatga solib qo'ydi. Bu vaziyatda quyidagi muammo va kamchiliklar ko'zga tashlandi:

- Internet tezligining barcha hududlarda talab darajasida emasligi;

- AKT moslamalarining barcha ta'lim subyektlarida yetarli emasligi;

- ta'lim subyektlarida media-axborot qurilmalaridan foydalanish ko'nikmasining (mediasavodxonlik darajasining) pastligi;

- masofaviy ta'lim shaklida ta'lim subyektlari uchun javobgarlikning to'liq ta'minlanmaganligi kabi bar qator kamchiliklar ko'zga tashlandi.

Xususan, pandemiya sharoitida Oliy ta'lim tizimidagi vaziyat haqida Oliy ta'lim tizimida fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi bilan bo'lajak informatika o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish jarayoni orasida nomuvofiqlik mayjud bo'lib, uni bartaraf etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining keng miqyosda joriy etish muammosining yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda. Ta'lim muassasasining elektron axborot ta'lim muhitini yaratish sof texnik masala bo'lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida yo'naltirish talab etiladi. Shundan kelib chiqib, "elektron axborot-ta'lim muhiti" tushunchasini aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ta'minlovchi dasturiy, axborot-texnik, o'quv-metodik tizimlar majmuidir deb ta'riflash mumkin. Tahliliy tadqiqotlar natijasida elektron axborot-ta'lim muhiti quyidagi tipologik belgilarga ko'ra tavsiflanishi aniqlandi:

1) har qanday darajadagi elektron axborot-ta'lim muhiti tizimlilik xususiyatiga ega murakkab tuzilmali obyekt bo'lib hisoblanadi.

2) elektron axborot-ta'lim muhitingning yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma'noni, ularning uyg'unligini anglatib, u o'quv muassasasi bitiruvchisining shaxsiy va kasbiy modelini amalga oshirishdagi ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi.

3) elektron axborot-ta'lim muhiti ta'lim va tarbiya ishlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lish bilan birga, uning vositasi hamdir.

Tajribaning ko'rsatishicha, ularni o'qitishni amaliy yo'nalgalik, integrativlik, uzlusizlik va uzviylik tamoyili, variativlik, tabiatga moslik, ilmiylik, tushunarlik, ko'rgazmalilik kabi tamoyillar asosida tashkil

etish samarali natijalar beradi. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq [5].

Ular qatoriga quyidagilarni qo‘shish mumkin: ta’lim oluvchilarining ijodkorlik faoliyatini faollashtirish va individual afzalliklarini hisobga olish, bo‘lajak informatika fani o‘qituvchisining amaliy faoliyatida o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo‘llagan holda kasbiy masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirish; kasbiy kompetensiyalarni mukammal egallagan, ijodiy qobiliyatga ega raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirishning rejalahshtirilgan natijasini belgilash: ishchi hujjatlarni yaratish jarayonida texnik obyektlarning har xil turlari haqida axborotlarni taqdim etish bo‘yicha bilimlarni qo‘llash; loyihalash ishlarni amalga oshirishda modellasshtirish va loyihalash bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim va metodlarni qo‘llash [8]. Jamiyatimizdagi hozirgi muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy o‘zgarishlar bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash muammosiga kompleks yondashish zarurligini taqozo etadi. Buni e’tiborga olgan holda, o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish bo‘yicha ishni tashkil etishga tizimli yondashildi. Tizimli yondashuv o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratishning izchilligi va tartibini, bosqichlarini aniqlashga yordam berdi. Ishning har bir bosqichi (tashkiliy xarakterdagи bosqichdan tashqari) ma’lum o‘quv-dasturiy-hujjatni tuzish bilan yakunlandi. Har bir bosqichni joriy etish tarkibiga quyidagi amallar kiritildi: malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadi va vazifalarini aniqlash hamda bat afsil tavsiflash; belgilangan maqsadlarni amalga oshirish shart-sharoitlari, vositalari va usullarini tahlil etish; ishni rejalahshtirish; ishni tashkil etish hamda bajarish; o‘zini-o‘zi nazorat qilish va natijalarni tekshirish. “Informatika”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari” va “Axborot texnologiyalari” fanlari dasturini aniqlashtirish uning tematik komponentlarida ajratib ko‘rsatilgan masalalarni, hajmiy xarakteristikalarini baholashni va o‘quv materialining iyerarxik darajalari bilan belgilanadigan tuzilmaviy birliklari mazmunini aniqlashni taqozo etdi. O‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarining tuzilmaviy birliklari nomi o‘quv materialining iyerarxik darajalariga mos holda tanlandi [9].

Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchisini tayyorlashda “Informatika”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari” va “Axborot texnologiyalari” fanlar mazmunini tanlash va ularni o‘rganishda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarining imkoniyatlari, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va vositalari asosida umumkasbiy tayyorgarlik fanlarni o‘qitishning konseptual asoslari, yuqoridagi fanlarni o‘qitishda bo‘lajak informatika fani o‘qituvchisini tayyorlash mazmuni va uning mantiqiy-tuzilmaviy sxemasi xususida so‘z yuritilgan. Ta’lim jarayonida oliy ta’lim muassasalari “Informatika”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari” va “Axborot texnologiyalari” yo‘nalishlari o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan “Informatika”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari” va “Axborot texnologiyalari” fanlarini o‘qitishda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish quyidagilarga imkon berishi aniqlandi: ta’lim jarayonini avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazalari yordamida boshqarish, axborot vositalari va texnologiyalari bilan ta’minalash; ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini tanlash texnologiyasini takomillashtirish; bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini aqliy rivojlantirishga, ularda mustaqil ta’lim olish, axborot izlash, tajribalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni yaratish; bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining bilim darajasini obyektiv, tizimli va tezkor nazorat qilish va baholashga imkon beruvchi testlar va diagnostik metodikalarni ishlab chiqish; bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining tayyorgarligini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallah, axborotlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘qitish texnologiyalarini yaratish [7].

Shu yuqoridagi talablarni amalga oshirilsa va ularga raqamli texnologiyalarni to‘laqonli tatbiq etilsa, unda bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash tendensiyasi takomillashadi va shu bilan birga o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi asoslari, g‘oyalari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda multimediali elektron o‘quv qo‘llanmalar va virtual laboratoriylar yaratish texnologiyasi, raqamli texnologiyalar yordamida, o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo‘lajak informatika fani o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli, elektron o‘quv-metodik majmuani loyihalash bosqichlarini ochib berilishi lozim. O‘qitishning zamonaviy didaktik vositalari-dasturiy vosita, yoki (dasturiy majmua) muayyan pedagogik vazifalarni hal etish uchun mo‘ljallangan, predmet mazmunga ega va ta’lim oluvchi bilan o‘zaro ta’sirlashishga yo‘naltirilgan dasturiy-texnik majmuadir. Zamonaviy pedagogik psixologiya va didaktikadagi turli yondashuvlarni hisobga olib, biz bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqish jarayonini o‘zaro bog‘liq motivatsion-qadriyatiy, kognitiv va operatsional-faoliyatiy komponentlarni birlashtirgan yaxlit rivojlanuvchi ta’lim sifatida belgiladik. Motivatsion-qadriyatiy komponent talabalarning kelgusidagi mukammal kasbiy faoliyatida o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishga yo‘nalganligini, ularni yaratish bo‘yicha ta’lim olishga

ehtiyoji, motivlari, intilishlari, qobiliyati, qiziqishini aks ettiradi [6]. Kognitiv komponenti, talabalarning o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratishda foydalaniladigan amaliy va instrumental dasturiy vositalarning imkoniyatlari haqidagi bilimlarini, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish bo'yicha nazariy tayyorgarligi darajasini aks ettiradi. Operatsional – faoliyatiy layoqatini namoyon etishi esa informatika fani o'qituvchisining talabalarni komponentli o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratishda zarur bo'ladigan kompleks bilimlar, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarni ta'lif berib tarbiyalashi lozim bo'ldi.

**Xulosa.** Qayd etilganlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi asosida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlash texnologiyasi qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta'lif jarayonini tashkil etish va boshqarish; axborotni rasmiylashtirish va kodlashtirish (raqamlashtirish) nazariyasi; o'qituvchining axborotni taqdim etish bo'yicha funksiyasining bir qismini o'qitishning kompyuter vositalariga berish, eng asosiysi, avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ta'lif oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish. O'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi asosiga fanning turli sohalaridan olingen quyidagi g'oyalari qo'yildi [4]: boshqarish nazariyasi (ta'lif oluvchilar faoliyatini algoritmlashtirish, o'qituvchining ayrim vazifalarini o'qitishning zamonaviy o'rgatuvchi didaktik vositalariga berish, uzlusiz nazorat va qaytar aloqani joriy etish); psixologiya (ta'lif jarayonini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tashqi ta'sir orqali aqliy faoliyatni shakllantirish, ta'lif oluvchilarning individual xususiyatlari va boshqalar); didaktika (an'anaviy didaktikaning asosiy tamoyillari va o'qitishning kompyuterli texnologiyasining asosiy tamoyillari, ta'lif oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya aloqalari vositalarining zamonaviy didaktik imkoniyatlarini hisobga olish, o'qituvchining roli va vazifasini o'zgartirish); metodika (o'qitishni tashkil etishning individual, guruqli (kichik guruqlar) va jamoaviy shakllari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish, o'qituvchi va ta'lif oluvchilarning o'zaro muloqot turlarini o'zgartirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyasidan foydalanish). O'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratishda zarur bo'ladigan tamoyillar an'anaviy didaktikaning umumiy tamoyillariga va o'qitishning kompyuterli texnologiyalari tamoyillariga mos kelishi lozim.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.2020 y. PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. PQ-4851-son 06.10.2020. <https://lex.uz/docs/5032128>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. -T., 2017. -B.39. [https://buxgalter.uz/uz/doc?id=491659\\_2017-2021\\_yillarda\\_o%E2%80%98zbekiston\\_respublikasini\\_rivojlantirishning\\_beshta\\_ustuvor\\_yo%E2%80%98nalishi\\_bo%E2%80%98yicha\\_harakatlar\\_strategiyasi\\_\(o%E2%80%98zr\\_presidentining\\_07\\_02\\_2017\\_y\\_pf-4947-sonli\\_farmoniga\\_1-ilova\)&prodid=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://buxgalter.uz/uz/doc?id=491659_2017-2021_yillarda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasini_rivojlantirishning_beshta_ustuvor_yo%E2%80%98nalishi_bo%E2%80%98yicha_harakatlar_strategiyasi_(o%E2%80%98zr_presidentining_07_02_2017_y_pf-4947-sonli_farmoniga_1-ilova)&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
3. Медиаобразование сегодня: содержание и менеджмент. / Под ред. А.В.Федорова. – М.: Изд-во Гос. ун-та управления, 2002. – 80 с.
4. Зарипова Г.К., Сайдова Н.С., Тахиров Б.Н., Хайитов У.Х.. Педагогическое сотрудничество преподавателя и студентов в кредитно-модульной системе высшего образования. - Наука, образование и культура, 2020. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:LkGwnXOMwfcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:LkGwnXOMwfcC).
5. Зарипова Г.К. Педагогическое сотрудничество в высшем образовании. Центр научных публикаций (buxdu. uz): Том 3 № 3 (2021): Maqola va tezislар (buxdu. uz). [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:ULOm3\\_A8WrAC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:ULOm3_A8WrAC).
6. Зарипова Г.К., Рузиева К.И. Использование интерактивных методов в процессе обучения студентов компьютерным технологиям. - Проблемы педагогики, 2018. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:d1gkVwhDpI0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:d1gkVwhDpI0C).
7. Zaripova G. Значение информации и новых педагогических технологий в развитии молодого поколения в системе информационного общества в развитии цивилизации Узбекистана. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:kNdYIx-mwKoC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:kNdYIx-mwKoC)

8. Zaripova G. Oliy va kasb-hunar ta'limi tizimida o‘qituvchi kadrlarni malakasini oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish. Центр научных публикаций (buxdu. uz): Том 3 № 3 (2021): Maqola va tezislar (buxdu. uz)  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:Zph67rFs4hoC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:Zph67rFs4hoC)

9. Зарипова Г.К., Рамазонов Ж.Ж. Информационная безопасность (обязанности). - Научные исследования, 2019.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)

**Hamza ESHANKULOV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash  
texnologiyalari  
kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori t.f.f.d. (PhD)

**Aslon ERGASHEV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash  
texnologiyalari  
kafedrasi katta o'qituvchisi

## **IQTISODIY BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHDA BUSINESS INTELLIGENCE TIZIMLARINING USTUNLIK JIHATLARI**

*Ushbu maqola Business Intelligence (BI) va analistik tahlil tizimlariga bag'ishlangan. Maqolaning asosiy maqsadi - rivojlanayotgan mamlakatlardagi kompaniya va tashkilotlar BI texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari, murakkab va dinamik xalqaro bozorda omon qolishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim o'rni to'g'risida xabardorligini oshirishdan iborat. Ko'p yillar davomida kichik va o'rta biznes vakillari Business Intelligence (BI) texnologiyalarini joriy etishda yirik tashkilotlar izidan borishmadi. Bunga asosiy sabab - BI tizimlarni joriy qilish va boshqarishning murakkabligi va yuqori narxi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlardagi kichik va o'rta biznes rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra hozirda BI tizimlari kompaniyaning ishlashi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'yashini anglamoqda va tobora ko'proq BI texnologiyalariga sarmoya kiritmoqda va joriy qilmoqdalar.*

**Kalit so'zlar:** analistik tahlil, biznes-analitika, hisobotlar, tizim arxitekturasi, ma'lumotlar ombori, qaror qabul qilish tizimi, biznes intellektualniy, data warehouse, etl, olap, oltp.

Эта статья предназначена как краткое введение в системы бизнес-аналитики (BI) и аналитического анализа. Основная цель статьи - повысить осведомленность компаний и организаций в развивающихся странах о преимуществах использования этих технологий, их важной роли в обеспечении выживания и конкурентоспособности на сложном и нестабильном международном рынке. В течение многих лет малые и средние предприятия не шли по стопам крупных организаций во внедрении технологий бизнес-аналитики (BI). Основная причина этого - сложность и высокая стоимость развертывания систем бизнес-аналитики и управления ими. Однако, согласно опросу малых и средних предприятий в развитых странах, теперь они понимают, что системы бизнес-аналитики играют важную роль в решении вопросов производительности и конкурентоспособности компаний, и теперь они все больше инвестируют в технологии бизнес-анализа. и представить.

**Ключевые слова:** информационная система, бизнес-аналитика, отчетность, системная архитектура, хранилище данных, система принятия решений, бизнес-аналитика, хранилище данных, etl, olap, oltp.


*This article is intended as a brief introduction to Business Intelligence (BI) and analytical analysis systems. The main purpose of the article is to raise awareness of companies and organizations in developing countries about the benefits of using these technologies, their important role in ensuring survival and competitiveness in a complex and turbulent international market. For many years, small and medium-sized businesses did not follow in the footsteps of large organizations in introducing Business Intelligence (BI) technologies. The main reason for this is the complexity and high cost of deploying and managing BI systems. However, according to a survey of small and medium-sized businesses in developed countries, they now understand that BI systems play an important role in solving a company's performance and competitiveness, and now they are increasingly investing in BI technologies. and introduce.*

**Key words:** information system, business-analytics, reporting, system architecture, data storage, decision-making system, business intelligence, data warehouse, etl, olap, oltp.

**Kirish.** BI-tizimlar (biznes-tahlil tizimlari) – bu turli axborot manbalaridan ma'lumotlarni jamlab, ularni gayta ishlaydigan va olingan ma'lumotlarni o'rganish va baholash uchun qulay interfeysi taqdim etadigan tizimlardir. Tahlillar natijasida olingan ma'lumotlardan optimal foydalanish orqali qo'yilgan biznes-maqsadlarga erishishga xizmat qilmoqda [1]. Barcha yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlarni kompleks tahlil qilish uning samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini bermoqda [2]. BI-tizimlar - bu kompaniyaning rahbari uchun uning biznesi to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona shaffof manbai hisoblanadi [3].

Axborot har qanday tashkilot uchun muhim manba hisoblanadi. Dinamik o'zgaruvchan jahon bozorida iste'molchilar korxonalardan tezkor va samaraliroq xizmat ko'rsatishni talab qilmoqdalar. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun kompaniya iste'molchilar talablarini qondirishi lozim. Bundan tashqari, dunyo axborot hajmi keskin ortmoqda va buni guvohi bo'lmoqda. Axborotlar juda yuqori tezlikda

ishlab chiqilmoqda va axborotlarning aksariyati, bu esa tahlil qilishni qiyinlashtirmoqda. Hozirgi vaqtida axborot xuddi valyuta yoki oltin kabi iqtisodiy aktivlarning yangi sinfi sifatida qaralmoqda [2].



**1-rasm. Axborot o'shining diagrammasi**

Masalan, bugungi kunda tahlil qiluvchi rasmiy saytlarni ma'lumotlariga asosan, hozirgi vaqtida 60 zettabayt (zettabayt = bir sekstillyonga teng bo'lgan ma'lumot birligi (1021) yoki aniqrog'i, 270 bayt) axborot hajmi mavjud.

Raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlash va o'z unumdorligini oshirish uchun kompaniya o'z vaqtida va aniq axborot asosida qarorlar qabul qilishi kerak [7]. Shu maqsadda ko'plab yetakchi innovatsion kompaniyalar Business Intelligence tizimini joriy etmoqda. Bundan tashqari, Business Intelligence (BI) qarorlar qabul qilishni jadallashtiradi. Bu o'z navbatida raqobat qiluvchi kompaniyalarga nisbatan tezkor va axborot bilan to'g'ri ishslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida raqobatda ustuvorlikni ta'minlaydi, mijozlar muammolari va asosiy masalalarga o'z vaqtida diqqat qaratish imkonini beradi [2].

**Asosiy qism.** BI tizimlari BigData (katta ma'lumotlar) kabi yangi ekotizimlar bilan uzviy ishlaganligi sababli bulutli platformalarda o'rnatiladi. Bulutli texnologiyalardan kompaniya va tashkilotlardagi turli manbalardan ma'lumotlarni jamlaydi va bu ma'lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun ham foydalaniadi.

Kompaniyalar tobora ko'proq lokal serverlar o'rniga bulutli texnologiyalarga o'tmoqdalar. Bulutli texnologiyalar asosida ma'lumotlarni saqlash an'anaviy saqlash turlaridan bir qator afzalliklarga ega:

- fizik uskunalar sotib olishning zarurati yo'q;
- bulutdagi ma'lumotlarini tezkor va arzon moslashtirish va ko'lamlashtirish imkonи bor;
- bulutdagi ma'lumotlar saqlanmalari odatda murakkab analitik so'rovlarni ancha tezkor bajarishi mumkin, chunki unda taqsimlangan parallel ishslashdan foydalaniadi.

Quyidagi tamoyillar bilan an'anaviy ma'lumotlar omborlarini qurish uchun ishlatilgan g'oyalari va loyihalash qoidalarini keltirib o'tamiz [6].

**Uch bosqichli arxitektura.** Ma'lumotlar omborining an'anaviy arxitekturasi ko'pincha uch darajali tuzilmaga ega bo'lib, quyidagi darajalardan iborat:

Pastki sath: bu turli manbalardan ma'lumotlarni olish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar bazasi serverini o'z ichiga oladi, masalan, oldingi ilovalar uchun ishlatiladigan tranzaksion ma'lumotlar bazalari.

**O'rta sath:** ma'lumotlarni tahlil qilish va murakkab so'rovlarni mos bo'lgan tuzilishga aylantiradigan OLAP serveri mavjud. OLAP server ikkita usulda ishlashi mumkin: ko'p o'lchovli ma'lumotlar bo'yicha operatsiyalarni standart relyatsion operatsiyalarga (Relation OLAP) o'tkazadigan yoki ko'p o'lchovli ma'lumotlar va operatsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiradigan ko'p o'lchovli OLAP modelidan foydalangan holda, ma'lumotlar bazasini boshqarishning ilg'or tizimi [5].

**Yuqori sath:** eng yuqori sathda mijozlar darajasidir. Bu daraja yuqori darajadagi ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobot berish va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan vositalarni o'z ichiga oladi.


**Kimball va Inmon tamoyili.** Ma'lumotlar omborini qurishning ikki vakili: Bill Inmon va Ralf Kimball loyiha turli yondashuvlarni taklif qilmoqda.

Ralf Kimballning yondashuvi ma'lumotlar vitrinalarining muhimligiga asoslanadi, ular biznes yo'nalishlariga tegishli ma'lumotlarni saqlaydi. Ma'lumotlar ombori hisobot va tahlilni osonlashtiradigan turli ma'lumotlar oynalarining birlashmasidir. Ma'lumotlarni jamlash loyihasi Kimball tamoyiliga ko'ra "pastdan yuqoriga" yondashuvidan foydalanoqda.

Bill Inmonning yondashuvi ma'lumotlar ombori barcha korporativ ma'lumotlarning markazlashtirilgan ombori ekanligiga asoslanadi. Bunday yondashuv yordamida tashkilot birinchi navbatda ma'lumotlar omborining normallashtirilgan modelini yaratadi, ma'lumotlari oynasi esa ombor modeli asosida yaratiladi. Bu ma'lumotlar omborining yuqoridan pastga yondashuvi sifatida aniqlanadi [4].

**Zamonaviy ma'lumotlar omborining modellari.** An'anaviy arxitekturada ma'lumotlar omborining uchta umumiyligi mavjud: virtual ombori, maxsus ma'lumotlar modeli va korporativ ma'lumotlar ombori:  
**Virtual ma'lumotlar ombori** – bir nechta ma'lumotlar bazalari to'plami bo'lib, unda foydalanuvchiga barcha ma'lumotlarga foydalanishiga ruxsat beriladi;

**Ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar modeli** – ma'lum biznes yo'naliishlariga hisobot berish va tahlil qilish uchun ishlataladi. Omor modelida ma'lum bir biznes sohasi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan tizim hisoblanadi;



## 2-rasm. Ma'lumotlar omborining an'anaviy arxitekturasi

*Ma'lumotlar omborining korporativ modeli* - butun tashkilotni qamrab oladigan ma'lumotlarni jamlashni o'z ichiga oladi. Ushbu model ma'lumotlar omborini korxona axborot tizimining o'zagi sifatida ko'rib chiqiladi, barcha bo'limmalar ma'lumotlarini birlashtiradi [3].

Ralf Kimball BI-loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uchta muhim jihatni aniqlagan [4]:

- moliyalashtirish darajasi va boshqaruvni qo'llab -quvvatlash;
- loyihaning ma'lum bir biznes uchun talab darajasi;
- mavjud biznes ma'lumotlarining hajmi va sifati.


Wikipedia tarmoi ma'lumotlariga ko'ra 2019-yilda biznes - tahlil sohasidagi xizmatlarning jahon bozori qiymati 27,2 milliard dollarga baholandi [4]. Mutaxassislarining fikricha, 2027-yilga kelib bu miqdor 60,49 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda [5].

Zamonaviy biznes-tahlil tizimi arxitekturasi ko'p bosqichlidir:

1. Ma'lumotlarni jamlash va ilk qayta ishslash.
2. Ma'lumotlarni yoyish, ishlov berish va yuklash.
3. Ma'lumotlarni saqlash.
4. Ma'lumotlarni ma'lumotlar vitrinasiga uzatish.
5. Ma'lumotlarni tahlil qilish.
6. Web portal.



## 3-rasm. Biznes-tahlil tizimlari sxemasi



#### 4-rasm. BI platformalar arxitekturasi

Bugungi kunda Microsoft BI platformasi BI tizimlari bozorida eng ko‘p qo‘llaniladigan, hamda Narx - Sifat - Zamonaviylik nisbati bo‘yicha eng yaxshi yechimdir.

Ma'lumotlarni BI tizimlari yordamida tahlil qilish uchun avvalambor:

- **ETL** vositalari yordamida turli xil hisob tizimlaridan Data Warehouse;
- **(DWH)**-ga ma'lumotlarni yuklanadi;
- **DWH Storage** tahlil uchun to‘liq SQL ma'lumotlar bazasidan iborat ma'lumotlar omborini tayyorlash va saqlash uchun xizmat qiladi;
- **OLAP kublari** DWH dagi ma'lumotlarga asosan real vaqt rejimida har qanday hisobotlarni tayyorlash va ma'lumotlarni to‘liq tahlil qilish imkonini beradi;

• **Mijoz ilovalari** yordamida foydalanuvchilar batafsil ma'lumotlarni tahlil qilish va dinamik hisobot berish uchun OLAP kublariga ulangan Microsoft Excelda pivot jadvallaridan, Microsoft Power BI texnologiyalari va boshqa texnologiyalardan foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Asosiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va vizualizasiya qilish uchun WEB-ilovalar ham qo‘llaniladi, ular har qanday qurilmadan hisobotlarga ko‘rishi qo‘llab-quvvatlaydi.

**Muhokamalar va natijalar.** BI-tizim nima uchun kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Birinchidan, ma'lumotlarni saqlashga umumiyligini yondashuv:

• OLTP - tranzaksion tizimlaridagi ma'lumotlar bazasi tuzilishi ma'lumotlarni tezkor kiritishga qaratilgan, shu bilan birga bunday ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar tahlil uchun tayyor bo‘lmagan shaklda saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar bazalarda faqat kichik oraliq davr uchun hisobotni va belgilangan formatdagi hisobotlarni qurishdagina samarali bo‘lishi mumkin.

• OLAP - analitik tizimlarda ma'lumotlar bazasi tuzilishi, aksincha, har qanday hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilishga qaratilgan. Bunday ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlar allaqachon tahlil qilish uchun tayyor shaklda saqlanadi. Bu har qanday davr uchun istalgan tafsilotda real vaqt mobaynida hisobotlarni samarali olish imkonini beradi [7].

Ikkinchidan, BI tizimlari keng imkoniyatlari va vositalarga ega bo‘lib, qo‘srimcha ravishda:

• hisobotlarni tayyorlash tezligi (ayniqsa 100 000 dan ortiq satrlarga ega bo‘lgan katta ma'lumotlardan iborat so‘rovlerda muhim hisoblanadi);

• har qanday tafsilotdagi ma'lumotlarni dinamik tahlil qilish (mahsulotlar, mijozlar, ta’minotchilar, vaqt, sotish tarmoqlari, savdo hududlari va boshqalar);

• BI dasturlar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish;

• hisobotlar uchun ma'lumotlarni tayyorlashni avtomatlashtirish va korporativ hisobotlarni yaratish;

- Ma'lumotlarni birlashtirish (hisobotlar uchun ma'lumotlar turli tizimlardan olishda akkauntlar bo'lishi mumkin);
- ma'lumotlarning haqqoniyligi;
- biznesning umumiylar boshqaruv qobiliyati va samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

**Xulosa.** Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning aksariyatida korxona va kompaniyalar ancha jiddiy va ko'p sonli muammolarga duch kelishadi, chunki ko'pgina tashkilotlar yangi texnologiyalarga ega emaslar. Biroq, BI tizimlarini joriy etishdagi eng katta to'siq ishonchli va sifatli ma'lumotlarning yo'qligidan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ma'lumotlar BI tizimlarining muhim manbai hisoblanadi. Hozirgi ma'lumotlarga asoslangan biznes madaniyati ma'lumotlarni kundalik operatsiyalar va strategik biznes qarorlarni qabul qilish tashkilotlarga yangi resurslar va raqobatbardoshlikda ustunliklarni beradi.

Biroq, boshqaruvga asoslangan madaniyat ma'lumot asosida qaror qabul qilish jarayoni tamoyiliga o'tishi uchun o'z strategiyasini o'zgartirishi kerak. Tashkilotlar biznes jarayonlarini takomillashtirish, xaridolarning mahsulot sotib olish shakllari, daromadlar, xarajat va rentabellik tendensiyalari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun ichki va tashqi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilishning muhimligini tushunishi kerak.

### Adabiyotlar

1. Wikipedia.org Business Intelligence. Url: [https://wikipedia.org/wiki/Business\\_Intelligence](https://wikipedia.org/wiki/Business_Intelligence). 20.10.2021.
2. Data Warehouse Architecture: Traditional vs. Cloud. Web. Url: <https://panoply.io/data-warehouse-guide/data-warehouse-architecture-traditional-vs-cloud/>
3. <https://powerbi.microsoft.com/en-us/what-is-business-intelligence/> 28.10.2021.
4. Ralph Kimball *et al.* The Data warehouse Lifecycle Toolkit (2nd ed.) Wiley ISBN 0-470-47957-4.
5. Ergashev A.A. Bigdata: Bugungi salmoqli ma'lumotlar tahlili // "Innovatsion g'oyalalar, ishlanmalar va ularni ishlab chiqarish hamda ta'limda qo'llashning zamonaviy muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. –Andijon, 2019-yil 15-aprel.
6. Ergashev A.A., Eshankulov H.I. Bilimlarni tasvirlashda freymli modellardan foydalanish // Buxoro davlat universiteti "Ilmiy Axboroti journali" (2019/4(92)).
7. Эргашев А.А. Выбор паттерна проектирования автоматизированной// информационной системы. Журнал Проблемы науки 2021 год июнь 6'65.
8. CBAP / CCBA Certified Business Analysis Study Guide. - 2019.
9. Gartner Says Worldwide Business Intelligence, CPM and Analytic Applications/Performance Management Software Market Grew Seven Percent in 2012. Gartner. Oktober 2021.
10. [Business Intelligence and Analytics Market worth 60.49 Billion USD by 2027 // Emergen Research](https://www.emergenresearch.com/industry-report/business-intelligence-and-analytics-market). Url: <https://www.emergenresearch.com/industry-report/business-intelligence-and-analytics-market> 21.10.2021
11. Data Warehouse Architecture: Traditional vs. CloudBIWEB – БИЗНЕС & АНАЛИТИКА НА ПЛАТФОРМЕ MICROSOFT BI | POWER BI. Url: <http://biweb.ru/>. 26.10.2021
12. Data and business intelligence systems for competitive advantage: prospects, challenges, and real-world applications. Mohamed Djerdjouri. Url: <https://www.redalyc.org/articulo.oa?id=571861494009>. 17.10.2021
13. Efraim Turban, Dursun Delen, Ramesh Sharda. [Business Intelligence, Analytics, and Data Science: A Managerial Perspective](#). - Pearson, 2017

## **Xurshidjon XAYATOV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash  
texnologiyalari  
kafedrasi katta o'qituvchisi

## **Fazliddin JUMAYEV**

Buxoro davlat universiteti  
kompyuter ilmlari va dasturlash  
texnologiyalari mutaxassisligi  
2-kurs magistri

### **WEB SAHIFADA CSS YORDAMIDA O'TISH EFFEKTALARIDAN FOYDALANISH**

*Web sahifada CSS yordamida o'tish effektlaridan foydalanish. CSS dagi o'tish effektlardan animation xususiyat va @keyframes kadrlarni yozish qoidasi orqali animatsiya hosil qilish ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** CSS3, animation, timing, duration, iteration, infinity, keyframes, from, to.

Используйте эффекты перехода с помощью CSS на веб-странице. Эффекты перехода в CSS включают анимацию и @keyframes.

**Ключевые слова:** CSS3, анимация, время, продолжительность, итерация, бесконечность, ключевые кадры, от, до.

Use transition effects using CSS on a web page. Transition effects in CSS include animation and @keyframes.

**Key words:** CSS3, animation, timing, duration, iteration, infinity, keyframes, from, to.

**Kirish.** O'tish effektleri - bu biror bir HTML hujjat elementining qandaydir xususiyatini o'zgartirish davrida o'zgarishini boshqarishdir. Boshqacha aytganda elementga animatsiya berish.

HTML sahifalarda turli xil usullarda animatsiyalar qo'llanilishi mumkin. Flash yordamida chiroqli animatsiyalarni yaratib uni HTML hujjatda joylashtirish kifoya. JavaScript yoki bironqa skriptli tilda animatsiya jarayonini dastur matni (skriptini) yozish orqali ham bajarishimiz mumkin.

**Asosiy qism.** CSS3 animatsiyasi web-saytlarni dinamik qiladi. U web-sahifalarni jonlantiradi, foydalanuvchi bilan web sahifa orasidagi aloqa oshiradi. CSS3 o'tishlaridan biri animatsiya yaratishni asosiy kadrlarga asoslangan bo'lib, ular avtomatik ravishda ma'lum vaqt davomida effektlarning bajarilishi va takrorlanishi, shuningdek, sikl ichida animatsiyani to'xtatish imkonini beradi.

CSS3 animatsiyasi deyarli barcha HTML elementlariga, shuningdek: psevdo-elementlardan oldin va keyin qo'llanilishi mumkin. Animatsiya qilinishi mumkin bo'lgan xususiyatlar ancha ko'p bo'lib, ularning ro'yxati quyidagi manzilga keltirilgan:

[https://developer.mozilla.org/en-US/docs/Web/CSS/CSS\\_animated\\_properties](https://developer.mozilla.org/en-US/docs/Web/CSS/CSS_animated_properties).

Animatsiyalarni yaratishda mumkin bo'lgan ishslash muammolari haqida unutmang, chunki ba'zi xususiyatlarni o'zgartirish juda ko'p resurslarni talab qiladi.

Web brouzerlarda animatsiyaning qo'llanilishi. Bunda brouzerlarni qaysi versiyadan boshlab animatsiya imkoniyatini qo'llay olinishi, va prefix so'zi bilan ishlatilishi keltirilgan:

IE 10.0

Firefox: 16.0, 5.0 -moz-

Chrome: 43.0, 4.0 -webkit-

Safari: 4.0 -webkit-

Opera: 12.1, 12.0 -o-

iOS Safari: 9, 7.1 -webkit-

Opera Mini: —

Android Browser: 44, 4.1 -webkit-

Chrome for Android: 44

Asosiy kadrlar animatsiyaning turli nuqtalarida animatsiya xususiyatlari uchun qiymatlarni belgilash uchun ishlatiladi. Asosiy kadrlar bitta animatsiya siklining harakatini belgilaydi; animatsiya nol yoki undan ortiq marta takrorlanishi mumkin. Asosiy kadrlar quyidagi tarzda belgilangan @keyframes qoidasi yordamida aniqlanadi:

**@keyframes animatsiyani nomi { qoidalari ro'yxati }**

Animatsiya @keyframes qoidasi uchun asosiy kadrlarni o'rnatishdan boshlanadi. Kadrlar qaysi xususiyatlarni bosqichda animatsiya qilinishini aniqlaydi. Har bir freym bir yoki bir necha juft xususiyat va qiymatlarning bir yoki bir nechta deklaratsiya bloklarini o'z ichiga olishi mumkin. @keyframes qoidasi qoida va element deklaratsiyasi blokini bog'laydigan element animatsiyasi nomini o'z ichiga oladi.

`@keyframes shadow {`

`from {text-shadow: 0 0 3px black;}`

`50% {text-shadow: 0 0 30px black;}`

```
to {text-shadow: 0 0 3px black;}  
}
```

Asosiy kadrlar **from** va **to** kalit so'zlari (0% va 100% ga ekvivalent) yoki siz xohlagancha foizlar miqdori yordamida yaratasiz. Shuningdek, kalit so'zlar va foizlarni birlashtira olasiz. Agar kadrlar bir xil xususiyat va qiymatlarga ega bo'lsa, ularni bitta deklaratsiyaga birlashtirish mumkin:

```
@keyframes move {  
from, to { top: 0; left: 0; }  
25%, 75% {top: 100%;}  
50% {top: 50%;}  
}
```

Agar 0% yoki 100% kadrlar belgilanmagan bo'lsa, foydalanuvchi brauzeri ularni animatsiya xususiyatining odatdagi (dastlab o'rnatilgan) qiymatlari yordamida yaratadi.

Agar bir xil nom bilan bir nechta @keyframes qoidalari belgilangan bo'lsa, hujjat tartibidagi oxirgisi olinadi va oldingi barchasi e'tiborga olinmaydi.

@keyframes qoidasi e'lon qilingandan so'ng, biz unga animatsiya xususiyati orqali murojaat qilishimiz mumkin:

```
h1 {  
font-size: 3.5em;  
color: darkmagenta;  
animation: shadow 2s infinite ease-in-out;  
}
```

Asosiy kadrlar uchun vaqt va jarayonni o'zgarish qoidasini ko'rsatadigan funksiya. Asosiy kadrlar stil qoidasi, shuningdek, animatsiya keyingi asosiy kadrga o'tganda foydalaniladigan vaqt funksiyani ham e'lon qilishi mumkin.

Misol

```
@keyframes Sakrash {  
from {  
top: 100px;  
animation-timing-function: ease-out;  
}  
25% {  
top: 50px;  
animation-timing-function: ease-in;  
}  
50% {  
top: 100px;  
animation-timing-function: ease-out;  
}  
75% {  
top: 75px;  
animation-timing-function: ease-in;  
}  
to {  
top: 100px;  
}
```

"Sakrash" nomli animatsiya uchun beshta asosiy kadrlar belgilangan. Sekinlashtirish funksiyasi birinchi va ikkinchi asosiy kadrlar o'rtasida (ya'ni 0% dan 25% gacha) ishlatalidi. Ikkinci va uchinchi o'rtasida (ya'ni, 25% dan 50% gacha) – silliq o'tish tezlashtirish funksiyasi. Element sahifaga joylashgan o'rnidan 50px ga yuqoriga siljiydi, u eng yuqori nuqtaga yetganda sekinlashadi va 100px ga tushganda tezlashadi. Animatsiyaning ikkinchi yarmi ham xuddi shunday harakat qiladi, lekin elementni sahifa bo'ylab 25px yuqoriga siljiydi. **to** yoki **100%** asosiy kadrda ko'rsatilgan vaqt funksiyasi e'tiborga olinmaydi.

Animatsiya nomi: **animation-name** xususiyati. elementga qo'llanilishi kerak bo'lgan animatsiyalar ro'yxatini belgilaydi. Har bir nom animatsiya uchun xususiyat qiymatlarini ta'minlovchi qoidadagi asosiy kadrni tanlash uchun ishlatalidi. Agar nom qoidadagi kadrarga mos kelmasa, animatsiya xususiyatiga, animatsiya nomi yo'q, animatsiya ishlamaydi.

Agar bir nechta animatsiya bir xil xususiyatni o'zgartirishga harakat qilsa, nomlar ro'yxatining oxiriga yaqinroq bo'lgan animatsiya bajariladi.

Animatsiya nomi katta-kichik harflarni hisobga oladi, none kalit so'ziga ruxsat berilmaydi. Animatsiyaning mohiyatini aks ettiruvchi nomdan foydalanish tavsiya etiladi, shu bilan birga siz bir yoki bir nechta so'zlardan foydalanishingiz mumkin, defis - yoki pastki chiziq belgisi \_ bilan.

Sintaksisi:

```
animation-name: none;  
animation-name: test-01;  
animation-name: -sliding;  
animation-name: moving-vertically;  
animation-name: test2;  
animation-name: test3, move4;  
animation-name: initial;  
animation-name: inherit;
```

Animatsiya davomiyligi: **animation-duration** xususiyati. Bitta animatsiya siklining davomiyligini belgilaydi, soniyalarda s yoki millisekundlarda o'matiladi. Agar element uchun bir nechta animatsiya belgilangan bo'lsa, vergul bilan ajratilgan qiymatlarni sanab, har biri uchun boshqa-boshqa vaqtini belgilashimiz mumkin.

Sintaksisi:

```
animation-duration: 5s;  
animation-duration: 200ms;  
animation-duration: 2s, 10s;  
animation-duration: 15s, 30s, 200ms;
```

Vaqt funksiyasi: **animation-timing-function** xususiyati. Animatsiyaning har bir asosiy kadrlar juftligi o'rtasida qanday o'tishini tavsiflaydi. Animatsiyani kechiktirish vaqtida vaqt funktsiyalari qo'llanilmaydi.

Sintaksisi:

```
animation-timing-function: ease;  
animation-timing-function: ease-in;  
animation-timing-function: ease-out;  
animation-timing-function: ease-in-out;  
animation-timing-function: linear;  
animation-timing-function: step-start;  
animation-timing-function: step-end;  
animation-timing-function: cubic-bezier(0.1, 0.7, 1.0, 0.1);  
animation-timing-function: steps(4, end);  
animation-timing-function: ease, step-start, cubic-bezier(0.1, 0.7, 1.0, 0.1);  
animation-timing-function: initial;  
animation-timing-function: inherit;
```

Bosqichma-bosqich animatsiyalar yordamida siz matn kiritilish satri yoki yuklash jarayoni kabi qiziqarli effektlarni yaratishingiz mumkin.

Animatsiyani takrorlanishlar soni: **animation-iteration-count** xususiyati. Animatsiya siklining necha marta ijro etilishini belgilaydi. Boshlang'ich qiymati 1 animatsiya boshidan oxirigacha bir marta ijro etilishini bildiradi. Bu xususiyat ko'pincha animation-direction xususiyatining alternate qiymati bilan birlgilikda ishlataladi, bu esa animatsiyani boshidan oxirigacha bo'lgan kadrlarni to'g'ri ketma-ketligida sikllarda yoki teskari tartibda ijro etishiga olib keladi.

Animatsiya 4 soniya davom etadi va asta-sekin <div> elementining fon rangini "qizil"dan "sariq"qa o'zgartiradi:

```
<style>  
div {  
width: 100px; height: 100px; background-color: red;  
animation-name: example; animation-duration: 4s;  
}  
@keyframes example {  
from {background-color: red;} to {background-color: yellow;}  
}  

```

Quyidagi misol animatsiya 25%, 50% tugallanganda va yana animatsiya 100% bajarilganda <div> elementining fon rangini o'zgartiradi:

```
<style>
@keyframes example {
0% {background-color: red;}
25% {background-color: yellow;}
50% {background-color: blue;}
100% {background-color: green;}
}
div {
width: 100px;
height: 100px;
background-color: red;
animation-name: example;
animation-duration: 4s;
}
</style>
```

Quyidagi misol animatsiyani cheksiz davom ettirish uchun “infinite” qiymatidan foydalanamiz.

```
div {
width: 100px;
height: 100px;
position: relative;
background-color: red;
animation-name: example;
animation-duration: 4s;
animation-iteration-count: infinite;
}
```

## Adabiyotlar

1. Хаятов Х. У., Сирожов П. Ш. Использование JQuery на веб-сайтах // Молодой ученый. — 2016. — № 13 (117). — С. 360-361.
2. Жалолов О.И., Хаятов Х.У. Понятие SQL и реляционной базы данных // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020. № 6 (75).
3. Хаятов Хуршиджон Усманович. Методическая система эвристического обучения информатике в высшем образовании // Academy. 2020. №7 (58).
4. Хаятов Х.У., Атаева Г.И., Хайдаров О.Р. Функции и элементы OpenGL, используемые для построения основных форм в C#. // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020 № 11(80).
5. <https://html5book.ru>

**Xurshidjon XAYATOV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash  
texnologiyalari  
kafedrasi katta o'qituvchisi

**Dilshod ATOYEV**

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash  
texnologiyalari  
kafedrasi o'qituvchisi

**MAPLE MATEMATIK TIZIMNING GRAFIK IMKONIYATLARI**

*Matematik tizimlarda ishlashda grafik imkoniyatlarni bajarish ularning bir-biridan farqini o'rghanish kerak. Ixtiyoriy masala yechilganda uning grafigini ko'rgan holda natijani olish aniqligi oshadi. Biz bu maqolada maple paketining grafik imkoniyatlarning ko'p qismini batafsil misollar bilan ochdik.*

**Kalit so'zlar:** *plot, plot3d, implicitplot, inequal, BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND, UNCONSTRAINED, CONSTRAINED, NORMAL, axes, style, LINE, POINT, color, xtickmarks, ytickmarks, linestyle, labels*

*При работе в математических системах необходимо изучить различия производительности графических возможностей. При решении произвольной задачи точность получения результата увеличивается по ее графику. В этой статье мы рассмотрели большинство графических возможностей пакета maple с подробными примерами.*

**Ключевые слова:** *plot, plot3d, implicitplot, inequal, BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND, UNCONSTRAINED, CONSTRAINED, NORMAL, axes, style, LINE, POINT, color, xtickmarks, ytickmarks, linestyle, labels*

*When working in mathematical systems, it is necessary to study the differences between the performance of graphical capabilities. When solving an arbitrary problem, the accuracy of obtaining the result increases by looking at its graph. In this article, we have covered most of the graphics capabilities of the maple package with detailed examples.*

**Key words:** *plot, plot3d, implicitplot, inequal, BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND, UNCONSTRAINED, CONSTRAINED, NORMAL, axes, style, LINE, POINT, color, xtickmarks, ytickmarks, linestyle, labels*

**Kirish.** Matematik tizimlar bu matematika, inginering sohalari uchun hisoblash jarayonlarni kompyuterda bajarishga imkon beruvchi dasturiy vositalardir.

Matematik tizimlarning ichidan eng taniqli paketlar bular MathLab, Maple, MathCAD, Matematika paketlaridir.

**Asosiy qism.** Matematik paketlarda grafik imkoniyatlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Maple paketining grafik imkoniyatlari. Ikki o'lchovli grafikani chizishimiz uchun **plot** buyrug'i va uning parametrleridan foydalanamiz. Bir o'zgaruvchili  $f(x)$  funksiyaning grafigini ( $Ox$  o'qi bo'yicha  $a \leq x \leq b$  intervalda va  $Oy$  o'qi bo'yicha  $c \leq y \leq d$  intervalda) yasash uchun plot buyrug'i ishlatiladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

`plot(f(x), x=a..b, y=c..d, parametrlar);`

Bu yerda parametr – tasvirni boshqarish parametrlari. Agar u ko'rsatilmasa odatdagi bo'yicha o'rnatishdan foydalaniladi. Shu bilan birga tasvirlarga tuzatishlar kiritish vositalar paneli orqali ham amalga oshiriladi.

`plot` buyrug'ining asosiy parametrlari:

1) title="text", bu yerda text-rasm sarlavhasi.

2) coords=qutb – polyar koordinatani o'rnatish.

3) axes – koordinata o'qlari turlarini o'rnatish: axes=NORMAL – oddiy o'qlar; axes=BOXED – ramkada shkalali grafika; axes=FRAME – rasmning quyi chap burchagi markazi bo'lgan o'qlar; axes=NONE – o'qsiz.

4) scaling – tasvir masshtabini o'rnatish: scaling=CONSTRAINED - o'qlar bo'yicha bir xil masshtab; scaling=UNCONSTRAINED – grafik oyna o'lchovi bo'yicha masshtablanadi.

5) style=LINE(POINT) – chiziqlar (yoki nuqtalar) bilan chiqarish.

6) numpoints=n – grafikaning hisobga olinadigan nuqtalari (jimlik qoidasi bo'yicha  $n=49$ ).

7) color – chiziq rangini o'rnatish: rangning inglizcha nomi, masalan, yellow – sariq va h.k.

8) xtickmarks=nx va ytickmarks=ny – mos ravishda,  $Ox$  va  $Oy$  o'qlari bo'yicha belgilari soni.

9) thickness=n, gde  $n=1,2,3\dots$  - chiziq qalinligi (jimlik bo'yicha  $n=1$ ).

10) linestyle=n – chiziq turi: uzluksiz, punktirli va h. ( $n=1$  – uzluksiz).

11) symbol=s – nuqtalar orqali hosil bo‘ladigan belgi turi: BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND.

12) font=[f,style,size] – matnni chiqarish uchun shrift turini o‘rnatish: f shriftlar nomini beradi: TIMES, COURIER, HELVETICA, SYMBOL; style shrift stilini beradi: BOLD, ITALIC, UNDERLINE; size – pt da shrift o‘chovи.

13) labels=[tx,ty] – koordinata o‘qlari yozuv: tx – Ox o‘qi bo‘yicha va ty – Oy o‘qi bo‘yicha.


14) discont =true – cheksiz uzilishlarni yasash uchun ko‘rsatma.

plot buyrug‘i yordamida  $y=f(x)$  funksiya grafigi bilan birga, ochiq ko‘rinishda, parametrik berilgan  $y=y(t)$ ,  $x=x(t)$  funksiyalar grafigini ham hosil qilish mumkin: plot([y=y(t), x=x(t), t=a..b], parametrs).

### Muhokamalar v natijalar. Misollar

1.  $[-4\pi, 4\pi]$  intervalda funksiya gafigini chizishimiz kerak. Buning uchun quyidagi buyruqni beramiz:


```
> plot(sin(x)/x, x=-4*Pi..4*Pi, labels=[x,y], labelfont=[TIMES,ITALIC,12], thickness=2);
```



**1- rasm. Funksiya grafigi**

2.  $y=\frac{x}{x^2-1}$  uzlukli funksiya grafigini yasashimiz kerak. Buning uchun quyidagi buyruqni beramiz:


```
> plot(x/(x^2-1),x=-3..3,y=-3..3,color=magenta);
```



**2- rasm. Uzlukli funksiya grafigi**

3.  $0 \leq t \leq 2\pi$  ramkada parametrik egri chiziq  $y = \sin 2t$ ,  $x = \cos 3t$  ni hosil qilishimiz kerak. Buning uchun quyidagi buyruqni beramiz:


```
> plot([\sin(2*t),\cos(3*t),t=0..2*Pi], axes=BOXED, color=blue);
```



**3- rasm. Funksiya grafigi**

4. Bitta chizmada ikkita grafikni:  $y = \ln(3x-1)$  funksiya va unga urinma bo‘lgan  $y = \frac{3}{2}x - \ln 2$  funksiya grafigini hosil qilishimiz kerak. Buning uchun quyidagi buyruqni beramiz:

```
>plot([\ln(3*x-1),3*x/2-\ln(2)],x=0..6,scaling=CONSTRAINED,color=[violet,gold],  
linestyle=[1,2], thickness=[3,2]);
```




**4-rasm. 2ta funksiya grafigi**

5. Bir nechta funkstiya grafigini chizish.

>plot([sin(x), x]).

6.  $\cos(x)/x$  funktsiyani grafigini chizish. 800 nuqtada cheksizlikkacha bo'lgan grafika

>plot(cos(x)/x, x = 0 .. infinity, -5 .. 1, color = black, numpoints = 800, thickness = 3);




**5-rasm. Funktsiyani 800 nuqtada cheksizlikkacha bo'lgan grafikasi**

7. Qutb koordinatasiga berilgan funktsiyani grafigini chizish quyidagicha:

>plot([1-sin(t), t, t = 0 .. 2\*pi], color = red, coords = polar);

8. Qutb koordinatasiga parametrik shaklda berilgan funksiyaning grafikalarini yasash quyidagicha:

>plot ([sin(3\*t),cos(5\*t),t=0..2\*pi],color=blue,coords=polar);



**6-rasm. Qutb koordinatasiga grafika chizilishi**

Oshkora berilmagan funksiyalar grafigini yasash. Funksiya oshkora berilmagan bo'ladi, agar u  $F(x,y)=0$  tenglama orqali berilgan bo'lsa. Oshkora berilmagan funksiyalar grafigini yasash uchun plots paketidan implicitplot buyrug'i ishlatalidi:

implicitplot( $F(x,y)=0$ , x=x1..x2, y=y1..y2);

Tasvirda matnli izohlarni chiqarish. Plots paketida rasmida matnli izohlarni chiqarish textplot buyrug'i mavjud: textplot([xo,yo,'text'], options), bu yerda xo, yo – 'text' matnini chiqarish boshlanadigan nuqtalar koordinatalari.

Tengsizlik bilan berilgan ikki o'lchovli sohani hosil qilish. Agar  $f1(x,y)>c1$ ,  $f2(x,y)>c2, \dots, fn(x,y)>cn$  tengsizliklar sistemasi bilan berilgan ikki o'lchovli sohani hosil qilish uchun inequal buyrug'i ishlatalidi.

inequals({ $f1(x,y)>c1, \dots, fn(x,y)>cn$ }, x=x1..x2, y=y1..y2, options);

Buyrug'ida figurali qavs ichida sohani aniqlovchi tengsizliklar sistemasi, so'ngra esa koordinata o'qlariningg o'lchovlari va parametrлari ko'rsatiladi. Parametrlar ochiq va yopiq chegaralar rangini, sohaning ichki va tashqi rangini hamda chiziq chegarasining qalinligini aniqplaydi:

optionsfeasible=(color=red) – ichki soha rangini o'rnatadi;

optionsexcluded=(color=yellow) – tashqi soha rangini o'rnatadi;


optionsopen(color=blue, thickness=2) – ochiq chegara chizig'ining qalinligi va rangini o'rnatadi;

optionsclosed(color=green,thickness=3) – yopiq chegara chizig'ining qalinligi va rangini o'rnatadi;

Tengsizlik bilan berilgan ikki o'lchovli sohani hosil qilish grafigini chizishda misollar:

1. Berilgan ikkita sohani kesishmasining grafigi


>with(plots): inequal(0 < x+y, x = -3 .. 3, y = -3 .. 3);



**7-rasm. Tengsizlikdagi sohalarni kesishmasi grafika chizilishi**

2. Berilgan bir nechta tengsizlikni grafikasi

with(plots): inequal({-b+a <= 8, 0 < 3\*a+2\*b, 3 < a+b, 5 < 3\*a+2\*b, 2\*b-a < 6}, a = -10 .. 30, b = -10 .. 15);



**8-rasm. Bir nechta tengsizlik grafika chizilishi**

Uch o'lchovli grafika.  $z = f(x,y)$  funksiya grafigi chizish uchun plot3d( $f(x,y)$ ,  $x=x_1 \dots x_2$ ,  $y=y_1 \dots y_2$ , options) buyrug'idan foydalanish mumkin. Bu buyruqning parametrлari plot buyrug'i parametrлari bilan mos tushadi.

style=opt parametri tasvir stilini beradi: POINT –nuqtalar, LINE – chiziqlar, HIDDEN – ko'rinnmas chiziqlardan iborat to'r, PATCH – to'ldiruvchi, WIREFRAME – ko'rinnmas chiziqlarni chiqaradigan to'r, CONTOUR – chiziq darajasi, PATCHCONTOUR – to'ldiruvchi va chiziq darajasi.

shading=opt parametr to'ldiruvchi intensivlik funksiyasini beradi, jumlilik bo'yicha uning qiymati xyz ga teng, NONE – rangsiz.

Parametrik berilgan sirt grafigi:

Agar  $x=x(u,v)$ ,  $y=y(u,v)$ ,  $z=z(u,v)$  parametrik ko'rinishda berilgan sirtning grafigini yasash talab etilgan bo'lsa, u holda bu funksiyalar buyruqda kvadrat qavslarda sanab o'tiladi:

plot3d([x(u,v), y(u,v), z(u,v)], u=u1..u2, v=v1..v2).

Aniqmas ko'rinishda berilgan sirt grafigi.

$F(x,y,z) = c$  aniqmas tenglama bilan berilgan uch o'lchovli sirt grafigi plot paketining implicitplot3d( $F(x,y,z)=c$ ,  $x=x_1 \dots x_2$ ,  $y=y_1 \dots y_2$ ,  $z=z_1 \dots z_2$ ) buyrug'i orqali amalga oshiriladi, bu yerda sirt tenglamasi  $F(x,y,z) = c$  va koordinata o'qlari bo'yicha tasvir o'lchovlari ko'rsatiladi.

Fazoviy egri chiziqlar grafigi .

plot paketida  $x = x(t)$ ,  $y = y(t)$ ,  $z = z(t)$  parametrik ko'rinishda berilgan fazoviy egri chiziqlarni hosil qilish uchun spacecurve buyruqi mayjud. Uning umumiy ko'rinishi: > spacecurve([ $x(t), y(t), z(t)$ ],  $t=t_1 \dots t_2$ ), bu yerda t parametr  $t_1$  dan  $t_2$  gacha o'zgaradi.


Misollar.

1. Quyidagi sirtlarni hosil qilish kerak.

$$z = x \sin 2y + y \cos 3x \quad \text{va} \quad z = \sqrt{x^2 + y^2} - 7, \quad x, y \in [-\pi, \pi] \text{ intervalda.}$$

Quyidagi buyruqni kiritamiz:

>plot3d({ $x \sin 2y + y \cos 3x$ ,  $\sqrt{x^2 + y^2} - 7$ }, x=-Pi..Pi, y=-Pi..Pi, grid=[30,30], axes=FRAMED, color=x+y);




**9-rasm. Uch o'lchovli sirtning grafigi**

2. Daraja chizig'i bilan sirtni hosil qilishimiz kerak:

$$z = \frac{1}{x^2 + y^2} + \frac{0,2}{(x+1,2)^2 + (y-1,5)^2} + \frac{0,3}{(x-0,9)^2 + (y+1,1)^2}$$

Quyidagi buyruqni kiritamiz:

```
> plot3d(1/(x^2+y^2)+0.2/((x+1.2)^2+(y-1.5)^2)+ 0.3/((x-0.9)^2+(y+1.1)^2), x=-2..2, y=-2..2.5,  
view=[-2..2, -2..2.5, 0..6], grid=[60,60], shading=NONE, light=[100,30,1,1,1], axes=NONE,  
orientation=[65,20], style=PATCHCONTOUR);
```




**9-rasm. Daraja chizig'i bilan sirtni hosil qilingan grafik**

3.  $x^2 + y^2 + z^2 = 4$  sharni hosil qilishimiz kerak:

Quyidagi buyruqni kiritamiz:

```
>with(plots): implicitplot3d(x^2+y^2+z^2=4, x=-2..2, y=-2..2, z=-2..2, scaling=CONSTRAINED);
```



**10-rasm. Sharning grafigi**

### Adabiyotlar

1. Дьяконов В. П. Maple 7. Учебный курс. -Спб.: ПИТЕР, 2002.
2. Дьяконов В. П. Maple 8 в математике, физике и образовании. -М.: “СОЛООН-Пресс”, 2003.
3. Жумаев Ж. Математические системы [Техт]: учебное пособие. –Бухара, 2021. -271 стр.
4. Хаятов Хуршидjon Усманович. Методическая система эвристического обучения информатике в высшем образовании // Academy. 2020. №7 (58).
5. Хаятов Х.У., Атаева Г.И., Хайдаров О.Р. Функции и элементы OpenGL, используемые для построения основных форм в C#. // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2020 № 11(80).

## GIBRID ALGORITMLAR ASOSIDA TASHXIS QO'YISH MASALASINI YECHISH

Ushbu maqolada Gibrid algoritmlar asosida tashxis qo'yish masalasini yechish, Takagi-Sugeno-Kang, Vang-Mendel tarmoqlari chiqish signarini hisoblash, Gibrid No ravshan tarmoqni o'rganish algoritmi gibrid radial tarmoqni o'rganish algoritmining bir holi sifatida ko'rib chiqish bosqichlari va usuli yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** neyron to'rlari, Gibrid algoritmlar Takagi-Sugeno-Kang tarmog'ida, Vang-Mendel tarmog'i, radial tarmoqlar.

В этой статье рассматриваются этапы и метод решения задачи диагностики на основе гибридных алгоритмов, вычисление выходного сигнала сетей Такаги-Сугено-Кана, сети Ванга-Менделя, алгоритм обучения гибридной Радиальной сети как часть алгоритма обучения гибридной радиальной сети.

**Ключевые слова:** нейронные сети, гибридные алгоритмы в сети Такаги-Сугено-Кан, сеть Ван-Менделя, радиальные сети.

This article discusses the stages and a method for solving the diagnostic problem based on hybrid algorithms, calculating the output signal of Takagi-Sugeno-Kan networks, Wang-Mendel networks, training algorithm for a hybrid radial network as part of a hybrid radial network training algorithm.

**Key words:** neural networks, hybrid algorithms in the Takagi-Sugeno-Kan network, Van Mendel network, radial networks.

**Kirish.** Ushbu turdag'i tarmoqlar chiquvchi signalning kiruvchi  $X = [x_1, x_2, \dots, x_N]^T$  vektorga bog'liqligini aniqlashda ishlataliganligi uchun shunday nom berilgan (xususan, Mamdani-Zade va Takagi-Sugeno-Kang tarmoqlari shular jumlasidandir). Nazariy jihatdan isbotlanganki, bu formulalar ixtiyoriy ko'p o'zgaruvchili chiziqli bo'lмаган funksiyasiyalarni bitta o'zgaruvchili funksiyalar (No ravshan deb nomlangan) yig'indisi yordamida ixtiyoriy aniqlik bilan hisoblash imkonini beradi [1].

### Takagi-Sugeno-Kang tarmog'i

Takagi-Sugeno-Kang tarmog'ida (keying o'rinnarda TSK) chiqish signali quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$y(X) = \sum_{i=1}^M (w_i * y_i(X)) / \sum_{i=1}^M (w_i),$$


bu yerda  $y_i(X) = p_{i0} + \sum_{j=1}^N (p_{ij} * x_j)$  -x inchi polinomik yaqinlashuv komponenti.

Komponentlarning vazni  $w_i$  quyidagi formuladan foydalanib topiladi (Gauss funksiyasining ratsional shakli):

$$w_i = \prod_{j=1}^N (\mu_{ij}(x_j)) = \prod_{j=1}^N (1/(1 + ((x_j - c_{ij}) / s_{ij})^{2*b_{ij}})).$$

Yuqoridaagi formulalarning strukturaviy diagrammasi 1.1-rasmida keltirilgan besh qavatli neyron tarmog'iga yaqqol ko'rindi.

Birinchi qavatda  $N * M$  ta tugunlar mavjud bo'lib, ularning har biri Gauss funksiyasining  $c_{ij}, s_{ij}$  va  $b_{ij}$  parametrлari yordamida hisoblanadi. No ravshan tarmoqlar nuqtayi nazaridan, bu qatlama kirish o'zgaruvchilarini fuzzifikatsiya qilish qatlami hisoblanadi. Qatlama parametrik qatlama deb nomlanadi, chunki tarmoqni o'rganish jarayonida ushbu qatlama parametrлari asosida qarab chiqiladi.



1.1-rasm. Besh qavatli neyron tarmoq

Ikkinci qatlam parametrik qatlardan tashkil topmagan. No ravshan neyron tarmog'i sifatida qaralganda, bu chap qismlarini yig'ish qatlami hisoblamadi.

Uchinchi qatlam – TSK  $y_i(X)$  funksiyaning generatori va vazn koeffitsienti  $w_i$  bilan ko'paytmasi orqali topiladi (ya'niki ko'p had ko'rinishida). Bu parametrik qatlamni o'rganish jarayonida  $P_{ij}$ ,  $i = 1, 2, \dots, M$ ,  $j = 0, 1, \dots, N$  koeffitsientlari aniqlanadi. Tarmoqdagi umumiy  $p_{ij}$  koeffitsientlar soni  $M * (N + 1)$  formula orqali aniqlanadi.

To'rtinchi qatlam ikkita yig'uvchi neyronlar yig'indisidan iborat. Birinchisi  $y_i(X)$  signallarining vazn yig'indisini bo'lsa, ikkinchisi  $w_i$ ,  $i = 1, 2, \dots, M$  og'irliklar yig'indisini hisoblanadi. Bu parametrik bo'limgan qatlam.

Oxirgi, beshinchi qatlam og'irliklarni normallashtiradi. Bu ham parametrik bo'limgan qatlam hisoblanadi.

TSK tarmog'ining tavsifidan kelib chiqadiki, u ikkita parametrik qatlamlarga (birinchi va uchinchi) ega, va bu qatlamlarning parametrlerini o'rganish jarayonida kelib chiqib o'rganiladi. Birinchi qatlam parametrleri chiziqli bo'limgan funksiyadan kelib chiqqani ular chiziqli bo'limgan parametrlardan tashkil topgan qatlam deb nomlasak, uchinchi qatlamni chiqizli parametrlardan tashkil topgan qatlam deb nomlaymiz.

TSK tarmog'idagi parametrler soni (chiziqli va chiziqli bo'limgan)  $M * 3 * N + M * (N + 1) = M * (4 * N + 1)$  formula orqali topiladi.

Ko'p amaliy dasturlarda bunday katta miqdorlar olinmaydi, shuning uchun kiruvchi parametr  $x_j$ ni hisoblash uchun  $\mu_{ij}(x_j)$  cheklangan funksiya to'plamidan foydalaniladi va bu o'z o'rnida chiqizli bo'limgan parametrler sonini kamaytirishga yordam beradi.

### Vang-Mendel tarmog'i

Ushbu turdag'i tarmoqlarda chiqish signali quyidagi formula yordamida hisoblanadi:


$$y(X) = \sum_{i=1}^M (c_i * w_i) / \sum_{i=1}^M (w_i) = \sum_{i=1}^M (c_i * \prod_{j=1}^N (\mu_{ij}(x_j))) / \sum_{i=1}^M (\prod_{j=1}^N (\mu_{ij}(x_j))),$$

bu yerda  $c_i$  - og'irlik koeffitsienti (No ravshan tarmoq nuqtayi nazaridan, bu o'ng tomonga tegishli bo'lgan funksiyasi markazi),  $\mu_{ij}()$  - markaz  $c_{ij}$ , kengligi  $s_{ij}$  va shakli  $b_{ij}$  parametrlerini o'z ichiga oluvchi Gauss funksiyasidir (ekspONENT yoki parametrik shaklda), (No ravshan tarmoqda  $\mu_{ij}()$  - funksiyasi No ravshan to'plamga kiradi).

Vang-Mendel tarmog'ining  $y(X)$  ifodasi oxirgi bo'lib  $y(X) = c_i$  ni qabul qilsa TSK tarmog'ining xususiy bir holiga to'g'ri kelishini ko'rish qiyin emas. Shuning uchun Vang-Mendel tarmog'i ancha sodda va quyidagi uch qavatli tuzilishga ega (1.2-rasm).

Ushbu tarmoqda birinchi va uchinchi qatlamlar parametrik qatlamlar hisoblanadi. Birinchi qatlam  $M * N * 3$  ta parametrli chiqizli bo'limgan Gauss funksiyasidan tashkil topgan bo'lsa, uchinchi qatlam  $M$  ta  $c_i$  chiziqli parametrni o'z ichiga oladi.

No ravshan neyron tarmoqlarini (ham Vang-Mendel, ham TSK) ko'plab kiruvchi o'zgaruvchilarni o'z ichiga olganda umimiy hol deb qarash mumkin bo'ladi. Ularning o'rganish jarayoni xuddi klassik tarmoqlarni o'qituvchi yordamida ham, o'qituvchi yordamisiz ham qarab chiqish mumkin.



**1.2-rasm. Vang-Mendel tarmog'i**

O'qituvchi yordami bilan o'rganish jarayoni asosan Evklid normasi yordamida hisoblanuvchi obyektiv funksiyani minimallashtirishga asoslangan:  $E = (1/2) * \sum_{k=1}^P ((y(X^k) - d^k)^2)$ .

O'qituvchi yordamisiz o'rganish jarayoni esa o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tarmoqning kiruvchi ma'lumotlarini klasterlashga qaratilgan.

## Gibrid o‘rganish algoritmi

Ushbu algoritm yuqorida tavsiflangan ikkala tuzilishda ham qo‘llash mumkin, ammo hozir uni umumiy holga to‘g‘ri kelishini asoslash uchun TSK tarmoqlari asnosida ko‘rib chiqamiz. Gibrid No ravshan tarmoqni o‘rganish algoritmi gibrid radial tarmoqni o‘rganish algoritmining bir holi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Algoritm ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Chiziqli bo‘limgan  $c_{ij}$ ,  $s_{ij}$  va  $b_{ij}$  birinchi neyron qatlama parametrlarini topish jarayonida uchinchi qavat chiziqli parametrlari  $p_{ij}$  ning qiymatlari ham qarab chiqiladi.

2. Uchinchi qavatning chiziqli  $p_{ij}$  qiymatini aniqlash jarayonida esa birinchi neyron qatlaming chiqizli bo‘limgan  $c_{ij}$ ,  $s_{ij}$  va  $b_{ij}$  parametrlari aniqlanadi.

**1-bosqich.** O‘rganish jarayonining bu bosqichida chiziqli bo‘limgan parametrlar aniqlangan bo‘ladi. Chiqish signali quyidagicha aniqlanadi:

$$y(X) = \sum_{i=1}^M (w' * (p_{io} + \sum_{j=1}^N (p_{ij} * x_j))),$$

$$\text{bu yerda } w' = v_i = \prod_{j=1}^N (\mu_{ij}(x_j)) / \sum_{i=1}^M [(\prod_{j=1}^N (\mu_{ij}(x_j)))] = \text{const.}$$

Kta o‘rganilayotgan tanlovlardan uchun  $\langle X^k, d^k \rangle$ ,  $k = 1, 2, \dots, K$ , K chiziqli tenglamalar sistemasi kelib chiqadi:

$$A * P = D,$$

bu yerda  $P = [P_{10}, P_{11}, \dots, P_{1N}, P_{M0}, P_{M1}, \dots, P_{MN}]^T$  - uchinchi qatlarning og‘irlilik vektori va  $D = [d^1, d^2, \dots, d^K]^T$  - Kta qaralayotgan tanlovlardan uchun kutilayotgan qiymatlar vektori. Bunda A matritsa quyidagicha aniqlanadi:

$$v_1^1 v_1^1 * x_1^1 \dots v_1^1 * x_N^1 \dots v_M^1 v_M^1 * x_1^1 \dots v_M^1 * x_N^1,$$

$$v_1^2 v_1^2 * x_1^2 \dots v_1^2 * x_N^2 \dots v_M^2 v_M^2 * x_1^2 \dots v_M^2 * x_N^2,$$

.....

$$v_1^K v_1^K * x_1^K \dots v_1^K * x_N^K \dots v_M^K v_M^K * x_1^K \dots v_M^K * x_N^K.$$

A matritsasining K satrlari soni uning  $M(N+1)$  ustunlari sonidan juda ko‘p. Ushbu chiziqli algebraik tenglamalar tizimining yechimini quyidagi formula orqali bir qadamda hisoblash mumkin:

$$P = A^{-1} * D,$$

bu yerda  $A^{-1}$  - A matritsaga teskari matritsa.

**2-bosqich.** Bu bosqichda uchinchi qavat uchun polynom koeffitsientlarining qiymatlari aniqlanadi va birinchi qatlama uchun esa Gauss funksiyasining (ko‘p karrali) koeffitsientlari standart gradient usuli yordamida aniqlanadi:

$$c_{ij}^{k+1} = c_{ij}^k - v_c * \partial E^k / \partial c_{ij}^k,$$

$$s_{ij}^{k+1} = s_{ij}^k - v_s * \partial E^k / \partial s_{ij}^k,$$

$$b_{ij}^{k+1} = b_{ij}^k - v_b * \partial E^k / \partial b_{ij}^k,$$

bu yerda  $k$  - keyingi siklining raqami (onlayn rejimda, bu qiymat o‘rganilayotgan tanlov raqami bilan bir xil bo‘ladi). Texnik nuqtayi nazardan, chiziqli bo‘limgan parametrlarga nisbatan obyektiv funksiyaning hosilasi uchun analitik formulalarni keltirib chiqarish oson. Ammo bu bo‘limda bu formulalar keltirilmagan. Ular bilan [2]da tanishib chiqish mumkin.

Bu bosqichlarda Gauss funksiyasining chiziqli bo‘limgan parametrlarini aniqlashtirish bosqichi konvergentsiyasi ancha sekin yaqinlashgani uchun 1 bosqichning o‘rganilish jarayonida qoidaga binoan 2 bosqichning ham bir necha bosqichlari amalga oshiriladi.


### O‘z-o‘zini tashkillashtiruvchi no ravshan tarmoqlar

Ushbu turdagisi tarmoqlarning o‘rganish jarayonida kirish vektorlarini  $X^k$ ,  $k = 1, 2, \dots, p$ , M ta klasterda guruhlanadi, ularning har biri o‘zining markazi  $C_i$ ,  $i = 1, 2, \dots, M$ . bilan aniqlanadi. Tasniflash bosqichida, tarmoq keyingi kirish ma’lumot vektorini aniqlashda oldingi klasterdan chiqqan qiymat yordamida hisoblanadi.

O‘zini tashkillashtiradigan no ravshan tarmoq ikki qavatli tuzilishga ega (1.3-rasm).

Birinchi qavat neyronlari umumlashtirilgan Gauss funksiyasining ratsional shaklida ko'rib chiqiladi:  
 $\mu_{ij}(x_j) = 1/(1 + ((x_j - c_{ij})/s_{ij})^{2^b})$ .

Ikkinchi qatlamning har bir neyroni markaz bilan tavsiflanadi:  $C_i = [u_{1i}, u_{2i}, \dots, u_{Ni}]^T$ .



**1.3-rasm. O'zini tashkillashtiruvchi no ravshan tarmoqlar  
C means-o'zini tashkillashtiruvchi no ravshan tarmoq algoritmi**

Quyida berilgan shartni qanoatlantirgan holatda, ushbu algoritmda o'rganilayotgan kirish vektor  $X^k$  turli darajadagi  $u_i^k$ ,  $0 < u_i^k < 1$  guruhlarga (markazlari  $C_i$ ,  $i = 1, 2, \dots, M$  ga asoslangan holda) tegishlidir:

$$\sum_{i=1}^M (u_i^k) = 1.$$

Bunda,  $u_i^k$  qiymati qanchalik oshsa  $X^k$  ga  $C_i$  shunchalik yaqinlashadi.

O'rganilayotgan barcha p vektorlarining korrelyatsion xatosi  $C_i$  markazlar va  $X^k$  o'rganilayotgan vektorlar yordamida quyidagicha hisoblanadi:

$$E = \sum_{i=1}^M \left( \sum_{k=1}^p (u_i^k)^m * |X^k - C_i|_2 \right),$$

bu yerda  $m = 1, 2, 3, \dots$

Bu jarayonning kuzatilishidan maqsad -  $C_i$  markazlarining holatini kuzatish vaqtida quyida keltirilgan shartni qanoatlantirgan holda E xatolikni minimallashtirishdir:

$$\sum_{i=1}^M (u_i^k) = 1.$$

Bu masalanining yechimi Lagranj minimallashtirish funksiyasi qo'llash bilan hisoblash mumkin:

$$LE = \sum_{i=1}^M \left( \sum_{k=1}^p ((u_i^k)^m * |X^k - C_i|_2) + \sum_{k=1}^p (L_k * (\sum_{i=1}^M (u_i^k) - 1)) \right),$$

bu yerda  $L_k$ ,  $k = 1, 2, \dots, p$  - Lagranj multiplikatori.

Ushbu masalaning yechimi quyidagi

$$C_i = \sum_{k=1}^p ((u_i^k)^m * X^k) / \sum_{k=1}^p ((u_i^k)^m),$$

$u_i^k = 1 / \sum_{l=1}^M (((d_l^k)^2 / (d_i^k)^2))^{1/(m-1)}$ , formulalar yordamida hisoblanishi mumkinligi isbotlangan. Bu

yerda  $d_i^k = |X^k - C_i|_2$  -  $X^k$  va  $C_i$  orasidagi Evklid masofa.

Yuqorida tavsiflangan fikrni shakllantiruvchi holat C-means algoritmi deb nomланади. U o'zida iterative (takrorlanuvchi) holatni saqlagan holda, quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1.  $\sum_{i=1}^M (u_i^k) = 1$  shartni qanoatlantiruvchi  $[0, 1]$  diapazonda yotgan  $u_i^k$  koeffitsientlarni ixtiyoriy tanlashni amalga oshiradi.

2. Yuqoridagi formuladan foydalangan holda barcha  $M$  larni  $C_i$  markazlar yordamida hisoblaydi.

3. E xatolik qiymatini aniqlaydi. Agar ushbu qiymat belgilangan qiymatdan past bo'lsa yoki oldingi iteratsiyaga (takrorlashga) nisbatan ozgina o'zgargan bo'lsa, hisoblash to'xtatiladi. Aks holda, 4-bosqichga o'tiladi.

4. Yuqoridagi formuladan foydalanimib  $u_i^k$  ning yangi qiymatlari hisoblanadi va 2-bosqichga qaytiladi.

Yuqorida tavsiflangan iterativ algoritm E xatolikning minimallashishiga olib keladi, ammo bu qiymat global minimum bilan bir xil bo'lishi shart degani emas. Global minimum  $u_i^k$  va  $C_i$  larning boshlang'ich tanlov qiymatiga bog'liq. Xususan,  $C_i$  markazlarining "yaxshi" boshlang'ich qiymatlarini tanlash uchun, maxsus protseduralari ishlab chiqilgan va ularning ikkitasi quyida keltirilgan.

### **Peak guruhash algoritmi**

Birinchi  $C_i$  markazlarning "eng yaqin qiymati" topish uchun peak funksiyasidan foydalanaladi. p o'rganilayotgan  $X^k$  vektorlarni tarmoqqa kiritishda shu vektorlardan foydalangan holda tarmoqdagi barcha bo'shlilarni qamrab oladigan yagona *panjara* yaratiladi.

Panjara tugunlari  $V_l$  belgilanadi va ularning har biri uchun peak funksiyasining qiymati hisoblanadi

$$m(V_l) = \sum_{k=1}^p (\exp(-(|X^k - V_l|_2^{2*b} / (2 * s^2)))),$$

bu yerda  $s = const$  va u har bir panjara tuguni uchun alohida tanlanadi.

$m(V_l)$  ning qiymati  $V_l$  potensial markazga yaqin joyda joylashgan, o'rganilayotgan  $X^k$  vektorlari soniga mutanosibdir.  $m(V_l)$  ning kichik qiymatga erishishi shu hududda ko'rilayotgan vektorlar sonining ham kamligini bildiradi. Shuni ta'kidlash joizki, s koeffitsientining turli xil panjara tugunlari uchun tanlanadigan har xil qiymatlari  $V_l$  uchun juda kichik ahamiyat kasb etadi, shuning uchun uning qanday tanlashini unchalik ham katta ahamiyatga ega emas.

**Muhokamalar va natijalar.** Dunyoda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga hamohang ravishda mamlakatimizda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan barcha sohalarda keng foydalanish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish borasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Avvalo, sohada mustahkam qonunchilik bazasi yaratilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy axborot tizimini shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va “elektron hukumat”ni shakllantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘tgan davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi, davlat organlari bilan qulay va samarali munosabatlarni o‘rnatuvchi “Elektron hukumat” tizimi izchil tatbiq etildi.

Bugun davlat organlari tomonidan o‘z faoliyatiga axborot tizimi hamda resurslarini joriy qilish bo‘yicha jadal ish olib borilayotganligi natijasida davlat axborot tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ular orqali aholi hamda tadbirdorlarga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Elektron hukumat tizimining asosiy maqsad va vazifalari davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minalash, ularning mas‘uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirdorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta’minalashning qo‘srimcha mexanizmlarini yaratish, aholi va tadbirdorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvni mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida “bir darcha” prinsipini joriy etish,

shuningdek, davlat xizmatlaridan masofadan foydalanilishini ta'minlash orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarining shu maqsadda sarflanadigan vaqt hamda xarajatlarini qisqartirishdan iborat.

Elektron davlat xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qonunda ariza beruvchining elektron davlat xizmatlarini olish chog'idiagi huquqlari belgilangan.

Qonunning yana bir ahamiyatlari jihat shundan iboratki, elektron davlat xizmatlari "bir darcha" prinsipi asosida, ya'ni elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organi bunday xizmat ko'rsatish uchun boshqa davlat organlarida mavjud bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni olishi talab etiladigan hollarda, elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organi mazkur hujjatlar va ma'lumotlarni mustaqil ravishda, ariza beruvchining ishtirokisiz idoralararo elektron hamkorlik qilish vositasida oladi. Idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimi elektron davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida davlat organlarining funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ularning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi. Idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimi axborotni to'plashga, saqlashga, unga ishlov berishga, uni uzatishga va almashishga doir talablar asosida ishlaydi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, yangi qonun hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan "Elektron hukumatni rivojlantirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Davlat soliq xizmati to'g'risida", "Davlat bojxona xizmati to'g'risida", "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida", "Davlat statistikasi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi hamda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, axborot olish uchun so'rov og'zaki, yozma, shu jumladan, axborot tizimlari orqali elektron shaklda bo'lishi mumkinligi, yozma so'rovda elektron manzilning ko'rsatilganligi murojaat etuvchining so'rovga axborot tizimi orqali elektron shaklda javob olishga bo'lgan roziligidagi anglatishiga doir normalar kiritildi. Bu bilan davlat organlariga murojaat qilayotgan shaxslarning axborot olishga doir talabi ariza beruvchining xohish-istagiga ko'ra, qog'oz yoki elektron shaklda olish huquqini beradi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun davlat organlari faoliyatining samaradorligi oshishi, yuridik va jismoniy shaxslarga elektron davlat xizmatlari taqdim etilishining yaxshilanishi, fuqarolarning masofadan turib davlat xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash, shuningdek, ularning davlat xizmatlarini olishdagini huquqlarining himoya qilinishiga xizmat qiladi. Ko'rib turibmizki, aynan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish davlat organlari faoliyatining yanada ochiq bo'lishiga imkon beradi. Muhim boshqaruva jarayonlarida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, biznes yuritishni yaxshilashga, milliy iqtisodiyotimizda raqobatbardoshlikni, aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qilishini bugun hayotning o'zi bizga ko'rsatib turibdi [5].

**Xulosa.** Muxtasar aytganda, bugungi globallashuv jarayonlarida axborot olamida qandaydir devor o'rnatib bo'lmashligi, biroq yoshlarni chalg'itishga, to'g'ri yo'ldan toydirishga qaratilgan informatsion tahdidlardan, g'arazli axborot xurujlaridan himoyalash choralarini ko'rish dolzarb vazifadir.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.M. Axborot xavfsizligi asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi "Davlat sirlarini saqlash to'g'risidagi"gi Qonuni.
3. Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. 2012.
4. Xodjayev C. Axborot xavfsizligi tushunchasi. Respublikanskiy seminar: "Информационная безопасность в сфере связи, информатизации и телекоммуникационных технологий. Проблемы и пути их решения".
5. Vazirlar Mahkamasining "Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida" 2018-yil 10-maydagi 348-sod Qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qarori.

**Farhod JALOLOV**

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

**Shohnazar SHAROPOV**

Buxoro davlat universiteti talabasi

## **AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARING ZAMONAVIY TA’LIM VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI O’RNI**

*Maqolada hozirgi vaqtida axborot kommunikatsion texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi hamda uning jamiyat hayotida kirib borish jarayonlari o‘rganilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim va axborotlashgan jamiyatda olib borilayotgan islohotlar samarasi keng yoritilgan. Ayniqsa, hozirgi yoshlar hayotida sodir bo‘layotgan ta’lim olish va fikrlash doirasidagi o‘zgarishlar ularning salbiy hamda ijodiy tomonlari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** media texnologiya, Internet texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat, axborot muhiti, telekommunikatsiya tarmoqlari, elektron o‘quv adabiyotlar.

*В статье исследуются современное стремительное развитие информационных и коммуникационных технологий и процесс их проникновения в общество, эффективность реформ в современном образовании и информационном обществе. В частности, изменения в образовании и мышлении, происходящие в жизни современной молодежи, подчеркивают их негативные и творческие аспекты.*

**Ключевые слова:** медиа-технологии, Интернет-технологии, информационное общество, информационная среда, телекоммуникационные сети, электронные учебники.

*The article examines the current rapid development of information and communication technologies and the process of its penetration into public life, the effectiveness of reforms in modern education and the information society. In particular, the changes in education and thinking that are taking place in the lives of today’s youth highlight their negative and creative aspects.*

**Key words:** media technology, Internet technologies, information society, information environment, telecommunication networks, electronic textbooks.

**Kirish.** Hozirgi kunda insonga media texnologiyalar ta’sirining doimiy o‘sib borishini kuzatish mumkin. Bu jarayonlar bolalarga ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi: hatto yigirma yil oldin ham bola kitob o‘qishdan ko‘ra film tomosha qilishni afzal ko‘rardi. Biroq, bugungi kunda kuchli matbuot, reklama, kompyuter texnologiyalari, elektron o‘yinchoqlar, o‘yin pristavkalari va boshqalar ostida bugungi yoshlar haqiqatdan tobora uzoqlashmoqda. Endi, agar talaba kitob o‘qishdan qochib qutula olmasa, u kutubxonaga bormaydi, balki uni planshetiga yuklab oladi. Ko‘pincha siz quyidagi rasmni kuzatishingiz mumkin: bir guruh yoshlar parkda, maydonda yoki savdo-ko‘ngilochar majmuada o‘tirishadi, ular bir-biri bilan muloqot qilishmaydi, barcha e’tiborlari smartfonlar, planshetlar, noutbuklarga qaratilgan. Agar ushbu hodisa kuzatishda davom etsa, yaqinda bolalar qanday qilib muloqot qilishni butunlay unutishadi.

**Asosiy qism.** Sayyoramizdagagi ko‘plab mamlakatlarning ta’lim vazirliklari maktab o‘quvchilari orasida jonli muloqotga va, umuman, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish o‘rniga, eng kam qarshilik ko‘rsatish yo‘lini tutishga va bolalarga o‘zlarini xohlagan narsani berishga qaror qilishdi. Ba’zi ekspertlarning fikriga ko‘ra, bolaning miyasi yangi ma’lumotlarni ko‘ngilochar shaklda taqdim etilsa, yaxshiroq qabul qiladi, shu sababli ular darsda taqdim etilgan ma’lumotlarni media vositalar yordamida osonlikcha idrok etadilar (bu borada bugungi kunda ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish doimiy ravishda o‘sib bormoqda).

Bu borada bahslashish qiyin, ammo, axir, bunday ta’lim jarayonidagi tanganing ikkinchi tomoni shundaki, bolalar o‘qituvchi bilan aloqani to‘xtatadilar, ya’ni fikrlash qobiliyati pasayadi. Ta’lim jarayonini zeriktirmaydigan va har doim bolaning yangi bilimga chanqog‘ini qo‘llab-quvvatlaydigan qilib qayta qurish yaxshiroqdir. Zamnaviy jamiyatdagi axborotlashtirish jarayonlari, shuningdek ular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim faoliyatini isloh qilish zamnaviy AKTni takomillashtirish va keng tarqatish bilan tavsiflanadi. Ular zamnaviy masofaviy va ochiq ta’lim tizimida ma’lumotlarni uzatish va o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minalash uchun faol foydalanilmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat AKT sohasida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, balki ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining professional qo’llanilishi uchun ham javobgar bo‘lishi shart. Aslida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu turli xil mexanizmlar, qurilmalar, algoritmlar, ma’lumotlarni qayta ishslash usullarini tavsiflovchi umumlashtiruvchi tushuncha. Eng muhim zamnaviy AKT qurilmasi bu zarur dasturiy ta’minot bilan jihozlangan kompyuter, uskunalar ularga joylashtirilgan ma’lumotlar bilan aloqa vositasidir.

Ta'lim tizimining axborot muhiti uchun AKT texnologiyasining asosiy vositasi bu zarur dasturiy ta'minot (tizimli va amaliy, shuningdek vositalar) bilan jihozlangan shaxsiy kompyuterdir. Tizim dasturiy ta'minoti bиринчи navbatda operatsion dasturlarni o'z ichiga oladi. Bu barcha kompyuter dasturlarining uskunalar va kompyuter foydalanuvchisi bilan o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Ushbu toifaga shuningdek, xizmat ko'rsatish va yordam dasturlari kiradi. Amaliy dasturlarga axborot texnologiyalari vositasi bo'lган dasturiy ta'minot - matnlar, grafikalar, jadvallar va boshqalar bilan ishlash kiradi. Zamonaviy ta'lim tizimi so'zga ishlov beruvchilar, taqdimotlar, elektron jadvallar, grafikalar tayyorlash kabi universal amaliy ofis dasturlari va AKT vositalaridan keng foydalanadi. Paketlar, tashkilotchilar, ma'lumotlar bazalari va boshqalarni aytib o'tishimiz mumkin.

Kompyuter tarmoqlari va shunga o'xhash vositalarni tashkil qilish bilan ta'lim jarayoni yangi sifatga o'tdi. Avvalo, bu dunyoning istalgan nuqtasidan tezkor ma'lumot olish qobiliyatiga bog'liq. Internetning global kompyuter tarmog'i tufayli sayyoramizning axborot resurslariga (elektron kutubxonalar, fayllar omborlari, ma'lumotlar bazalari va boshqalar) bir zumda kirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ushbu mashhur manba ikki milliarddan ortiq turli multimedia hujjatlarini nashr etdi. Tarmoq kirish imkoniyatini ochadi va boshqa keng tarqalgan AKT texnologiyalaridan, shu jumladan yangiliklar guruhlari, elektron pochta, chat, ro'yxatlar, pochta ro'yxatlaridan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, onlayn aloqa uchun (real vaqt rejimida) maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, u sessiya tashkil etilgandan so'ng matnni (klaviaturadan kiritilgan), shuningdek ovoz, tasvir va turli xil fayllarni uzatishga imkon beradi. Bunday dastur mahalliy shaxsiy kompyuterda ishlaydigan dasturiy ta'minot bilan uzoqdan foydalanuvchilarning birgalikdagi aloqasini tashkil qilishga imkon bermoqda.

Internet orqali uzatilishi mumkin bo'lган yangi axborotni siqish algoritmlarining paydo bo'lishi ovoz sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Endi u odatdagи telefon tarmog'i sifatiga yaqinlasha boshladi. Natijada, AKTning nisbatan yangi vositasi - Internet-telefoniyani ishlab chiqishda sakrash bo'ldi. Tarmoq orqali maxsus dasturiy ta'minot va tashqi qurilmalar yordamida audio va videokonferensiyalar tashkil qilinishi mumkinligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida samarali qidiruvni tashkil qilish uchun avtomatlashtirilgan qidiruv dasturlaridan foydalaniladi, ularning maqsadi dunyo bo'ylab Internet tarmog'inинг turli manbalari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va foydalanuvchiga ularga tezkor kirish imkoniyatini berishdir. Qidiruv tizimlari tufayli siz hujjatlar, multimedia fayllarini, odamlar va tashkilotlar haqidagi manzil ma'lumotlarini, dasturiy ta'minotni topishingiz mumkin. AKTdan foydalanish o'quv, uslubiy va ilmiy ma'lumotlarga keng kirish imkoniyatini ochishga imkon beradi, shuningdek, tezkor ravishda konsalting yordamini tashkil qilish, shuningdek, ilmiy va tadqiqot faoliyatini modellashtirishga imkon beradi. Va, albatta, real vaqtida virtual darslar (ma'ruzalar, seminarlar) o'tkazish imkoniyatini yaratib bermoqda.

Bugungi kunda ta'limning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masofaviy va ochiq ta'lim nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lган bir nechta materiallarni taqdim etishni ta'minlaydi. Ulardan biri televizion va video yozuvlar. Video va tegishli AKT vositalari ko'plab talabalarga eng yaxshi o'qituvchilar ma'ruzalari haqida ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Video yozuvlardan maxsus jihozlangan sinflarda ham, uyda ham foydalanish mumkin. Televizor - bu sinda eng keng tarqalgan AKT, u nafaqat zamonaviy o'quv jarayonida, balki odamlar hayotida ham juda katta rol o'ynaydi, chunki deyarli har bir uyda televizor mavjud. Uzoq vaqt davomida ta'lim dasturlari butun dunyoda qo'llanilib kelinmoqda va masofaviy o'qitish uslubining ajoyib namunasidir. Ushbu AKT vositasi tufayli, bilimlarning assimilyatsiya qilinishini yanada kuzatmasdan, uning umumiy rivojlanishini oshirish uchun keng auditoriyaga ma'ruzalarni translyatsiya qilish mumkin bo'ldi.

**Muhokamalar va natijalar.** Elektron o'quv adabiyotlari - bu o'rganilgan ma'lumotlarning butun hajmini uzatish va saqlashga imkon beruvchi juda kuchli texnologiya hisoblanadi. Ular kompyuter tarmoqlarida ham tarqatiladi va optik vositalarda yozib olinadi. Bunday material bilan individual ishlash ma'lumotlarni chuqur anglash va o'zlashtirishga imkon beradi. Ushbu texnologiya (tegishli takomillashtirilgan holda) mavjud kurslardan individual mashg'ulotlarda va olingan bilimlarni o'z-o'zini tekshirishda foydalanishga imkon beradi. Elektron o'quv nashrlari an'anaviy bosma materialdan farqli o'laroq, ma'lumotni grafik dinamik shaklda taqdim etishga imkon beradi.

Ta'limning barcha turlariga kiritilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi, shu jumladan o'quvchining salomatligi va fiziologik holatiga ta'sir ko'rsatadigan bir qator salbiy psixologik va pedagogik omillar. Maqolaning boshida aytib o'tilganidek, ITC o'quv jarayonining individualizatsiyasiga olib keladi. Biroq, bu umumiy individualizatsiya bilan bog'liq jiddiy kamchilik. Bunday dastur o'quv jarayonidagi allaqachon kam bo'lган ishtirokchilarning: talabalar va o'qituvchilarning, o'zaro talabalarning jonli dialogik muloqotini koagulyatsiyalashga olib keladi. U ularga, aslida, muloqot uchun surrogat - kompyuter bilan muloqot qilishni taklif qiladi. Va aslida, hatto nutqi faol talaba ham AKT vositalari

bilan ishslashda uzoq vaqt sukut saqlaydi. Bu, ayniqsa, masofaviy va ochiq ta’lim shakllari talabalariga to‘g‘ri kelishini ko‘ryapmiz.

O‘qitishning ushbu masofaviy shakli natijasida talaba butun dars davomida materialni jimgina iste’mol qilishi bilan band. Bu miyaning inson tafakkurini obyekтивlashtirishga mas’ul bo‘lgan qismi o‘chirilgan bo‘lib chiqadi, aslida ko‘p yillik tadqiqotlar davomida immobilizatsiya qilinadi. Shuni anglash kerakki, talabada fikrlarni shakllantirish, shuningdek, professional tilda dialogik muloqot qilish bo‘yicha zarur amaliyat mavjud emas. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan muloqotisiz talabaning o‘zi bilan monologik aloqasi o‘z darajasida shakllanmaydi, aynan shu narsa odatda mustaqil fikrlash deb ataladi. Shuning uchun ham kompyuter asosida onlayn jonli muloqotlar tashkil qilish orqali bu muammolarga yechim topsa bo‘ladi.

Jahon ta’lim axborot makonidagi zamonaviy davr. Ushbu jarayon zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos bo‘lishi va bolaning axborot jamiyatiga barkamol kirishiga hissa qo‘sishi kerak bo‘lgan o‘quv texnologiyalarining tarkibiga tuzatishlar kiritilishi bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik nazariya va o‘quv jarayonidagi sezilarli o‘zgarishlar bilan birga keladi. Kompyuter texnologiyalari o‘qitishning qo‘sishimcha “qo‘sishchasi” emas, balki uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan yaxlit o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerak; jamiyat rivojlanishi inson faoliyatining barcha sohalariga kirib boradigan, jamiyatda axborot oqimlarining targalishini ta’minlaydigan unga kompyuter texnologiyalarining kuchli ta’siri bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarning ajralmas va muhim qismi ta’limni kompyuterlashtirishdir.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtida axborot va axborot texnologiyalari sohasidan tashqarida mavjudlikni tasavvur qilish qiyin. Har xil turdagи axborotlarning tobora ko‘payib borishi bizni uni qayta ishslashning yangi, ilg‘or usullari va vositalarini joriy etishga majbur qilmoqda va zamonaviy hayot sharoitlari uni saqlash, uzatish va xavfsizligini ta’minalash yo‘llariga tobora ko‘proq talablarni kuchaytirmoqda. Ta’lim inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ayni paytda ushbu sohada yangi bilimlar manbai va ushbu bilimlarni qo‘llash sohasi hisoblanadi. Har qanday jamiyatning rivoji ta’limga berilayotgan e’tibor va yaratilgan qulay sharoitlarga bog‘liq, ammo shu imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## Adabiyotlar

1. Ayupov L.F., Begalov B.A., Ermatov Sh.T., Ibragimova L.T., Shoaxmedova N.X. Shaxsiy kompyuterlar va ulardan samarali foydalanish asoslari // O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2007. -490 b.
2. <http://www.ziyonet.uz> – O‘zbekiston axborot-ta’lim tarmog‘i portal.
3. <http://www.ict.gov.uz> – kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining muvofiqlashtiruvchi Kengashi sayti.
4. Махсума Нарзикулова Исмоилова, Нулуфар Бахтиёровна Мавлонова. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОСВОЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ// Актуальные научные исследования в современном мире. 2016 - № 5-3. С. 143-145.
5. МН Исмоилова. The role of modern technology in teaching foreign languages// Ученый XXI века. № 11 (24), 2016 г. С 46.
6. Исмоилова М.Н. Имомова С.Х. Бизнес жараёнларни моделлаштиришнинг роли ва аҳамияти// Ученый XXI века.международный научный журнал № 12 (25). 2016. С 59-61 .
7. ДР Арашова, МН Исмоилова. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗАХ// Теория и практика современной науки. №12(30). 2017. С. 39-42.
8. Ш Максудов, МН Исмоилова. РОЛЬ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СПОРТА В РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ// Теория и практика современной науки. №1(31). 2018. С 317-319.
9. МН Исмоилова, ЗШ Султонова.Требования к методике обучения// Ученый XXI века. № 3-2 (38). 2018. С 84-88.
- 10.Шафоат Махмудовна Имомова, Махсума Нарзикулова Исмоилова. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad// ACADEMY. № 6(57), 2020. С.9-10.
- 11.U Khalikova, M Ismoilova. Pedagogical technologies in teaching mathematics// Humanities in the 21st century: scientific problems and searching for effective humanist technologies. 2018. С.44-45 .
- 12.Махсума Нарзикулова Исмоилова, Гулмира Рашидовна Шакирова. Повышение эффективности при использовании икт на уроках русского языка и литературы//Актуальные научные исследования в современном мире. № 10-5, 2016. С. 121-124.

F.R.KARIMOV

Buxoro davlat universiteti  
amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari  
kafedrasи o‘qituvchisi

## EFFEKTIV KVADRATUR FORMULALAR QURISH METODLARI

Ushbu maqolada davriy funksiyalarni integrallash va effektiv interpolyatsion kvadratur formulalar qurish o‘rganildi. Effektiv kvadratur formulalar qurish metodlari o‘rganilib chiqildi va shular asosida integrallarni taqribiyy hisoblash uchun algoritm va dasturlar tuzilgan.

**Kalit so‘zlar:** integral, kvadratur, hosila, boshlang‘ich funksiya, effektiv kvadratur formula, kompleks.

В этой статье исследуется интегрирование периодических функций и построение эффективных интерполяционных квадратичных формул. Изучены методы построения эффективных квадратичных формул, разработаны алгоритмы и программы для приближенного вычисления интегралов.

**Ключевые слова:** интеграл, квадратичная, производная, начальная функция, эффективная квадратурная формула, комплекс.

This paper explores the integration of periodic functions and the construction of effective interpolation quadratic formulas. Methods for constructing effective quadratic formulas have been studied, and algorithms and programs have been developed for the approximate calculation of integrals.

**Key words:** integral, quadratic, derivative, initial function, effective quadrature formula, complex.

**Kirish.** Amaliy analizning ko‘pgina masalalari differensial tenglamalar orqali aniqlanadi. Agar bunday funksiyalarni integrallash kerak bo‘lsa, u holda faqat oraliqning chetki nuqtalarida funksiya va uning hosilalarining qiyamatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadiki, agar chetki nuqtalarda chegaraviy nuqtalarni biz bilsak, ketma-ket hosilarning qiyamatlarini funksiyani aniqlovchi differensial tenglamalardan osongina hisoblashimiz mumkin. Shuning uchun bizning asosiy maqsadimiz shundan iboratki, effektiv kvadratur formulalarini hosil qilish uchun biz ichki ordinatalardan emas, balkim chegaraviy ordinatalardan va bu nuqtalarda hosilalarning qiyamatlaridan foydalanamiz. Bunday formulalar aniqlikni oshirish uchun emas, balki integrallarni hisoblash uchun chegaraviy axborotlardan foydalaniladi. Quyidagi teoremani isbotlaymiz.

**Teorema.** Agar ikkita  $u(x)$  va  $v(x)$  funksiyalar  $[a, b]$  oraliqda aniqlangan, uzliksiz va  $m$ -tartibli uzliksiz hosilalarga ega bo‘lsa, u holda quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi:

$$\int_a^b u(x)v^{(m)}(x)dx = \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} u^{(\alpha)}(x)v^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^{\alpha} \right]_a^b + R_m(x), \quad (1)$$

bu yerda,

$$R_m(x) = \int_a^b (-1)^m v(x)u^m(x)dx \quad (2)$$

va  $\alpha$ -hosila tartibi.

Isbot: Har bir  $u(x)$  va  $v(x)$  funksiyalar  $[a, b]$  oraliqda differensiallanuvchi va undan tashqari bu oraliqda  $u(x)$   $v'(x)$  funksiya uchun boshlang‘ich funksiya mavjud bo‘lsin. U holda  $[a, b]$  oraliqda  $u(x)$   $v'(x)$  funksiya uchun boshlang‘ich funksiya mavjud bo‘lib, bo‘laklab integrallash formulalari o‘rinlidir. Ya’ni

$$\int_a^b u(x)v'(x)dx = u(x)v(x) \Big|_a^b - \int_a^b v(x)u'(x)dx, \quad (3)$$

yoki boshqacha yozsak

$$\int_a^b u(x)v'(x)dx = u(b)v(b) - u(a)v(a) - \int_a^b v(x)u'(x)dx, \quad (4)$$

Shunday qilib (1) formulaning o‘ng tomoni uchun (4) formulani marta qo‘llasak quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\int_a^b u(x)v^m(x) - \int_a^b (-1)^m v(x)u^{(m)}(x) dx = [u(x)v^{(m-1)}(x) - u'(x)v^{(m-2)}(x) + \dots]_a^b =$$

(5)

$$= \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} u^{(\alpha)}(x)v^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^\alpha \right]_a^b$$

Bundan esa quyidagini olamiz:

$$\int_a^b u(x)v^m(x)dx = \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} u^{(\alpha)}(x)v^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^\alpha \right]_a^b + \int_a^b (-1)^m u^{(m)}(x)v(x)dx, \quad (6)$$

va teorema shu bilan isbotlanadi.

$$\int_0^{2\pi} f(x)dx \approx \sum_{k=1}^n A_k f(x_k), \quad (x_k \in [0, 2\pi]) \quad (7)$$

formuladan biz quyidagicha foydalanamiz. Integrallash oralig‘ini  $(0,1)$  oraliqqa cha normallaymiz. Ya’ni quyidagi belgilashlarni kiritamiz.

$$u(x) = f(x), \quad v(x) = \frac{g_m(x)}{\beta_m^m m!} \quad (8)$$

Bu yerda

$$g_m(x) = \beta_m^m x^m + \beta_{m-1}^m x^{m-1} + \dots + \beta_0^m \quad (9)$$

ko‘phadni erkin tanlaymiz.  $u(x)$  va  $v(x)$  funksiyalarini bunday tanlashlar natijasida (7) formula quyidagi ko‘rinishda yozilishi mumkin:

$$\int_0^1 f(x)dx = \frac{1}{\beta_m^m m!} \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} f^{(\alpha)}(x) g_m^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^\alpha \right]_0^1 + R_m \quad (10)$$

Bu yerda  $R_m(x)$  - quyidagi aniq integralni bildiradi:

$$R_m = (-1)^m \int_0^1 \frac{g_m(x)}{\beta_m^m m!} f^{(m)}(x)dx \quad (11)$$

(8) formulani biz quyidagicha tushunamiz va u shundan iboratki, oraliqning chetki nuqtalarida egri chiziqning chegaraviy qiymatlari va hosilalarining qiymatlari uchun tegishli yuzani hisoblaydigan kvadratur formulani ifodalarydi.

$$\bar{g}_m \frac{1}{\beta_m^m m!} \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} f^{(\alpha)}(x) g_m^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^\alpha \right]_0^1 \quad (12)$$

Shu vaqtida (8) formuladagi qiymat kvadratur formulaning  $R_m$  qoldig‘ini tasvirlaydi.

Shunday qilib biz funksiya va uning hosilalarining chegaraviy qiymatlarida hisoblanadigan kvadratur formulalar va uning qoldiq hadiga ega bo‘ldik.

Effektiv kvadratur formula qurish metodidagi teoremaga asosan, ya’ni

$$\int_a^b u(x)v^{(m)}(x)dx = \left[ \sum_{\alpha=0}^{m-1} u^{(\alpha)}(x)v^{(m-\alpha-1)}(x)(-1)^m \right]_a^b + R_m(x) \quad (13)$$

formuladan quyidagicha foydalanamiz  $[a, b]$  oraliqni  $(a, b)$  gacha normallaymiz va undan tashqari,

$$u(x) = f(x), \quad v(x) = g(x), \quad [g(x)]^{(m)} = P(x) \quad (14)$$

bu yerda

$$P_m(x) = \int_0^1 \dots \int_0^1 g(x)dx \quad (15)$$

belgilarni kirtsak,

$$\int_0^1 P(x) f(x)dx = \sum_{\alpha=0}^{m-1} f^{(\alpha)}(x) P^{(m-\alpha-1)}(x) \Big|_0^1 + R_m(x) \quad (16)$$

bu yerda

$$R_m(x) = \int_0^1 P(x) f^{(m)}(x)dx \quad (17)$$

tengliklarga ega bo‘lamiz. (16) formulaga biz qoldiq hadi (18) iborat bo‘lgan vaznli effektiv kvadratur formula deb ataymiz.

Endi biz shu qoldiq hadga e’tiborni qaratamiz va quyidagi teorema o‘rinlidir:

**Teorema 2.** (12) ko‘rinishdagi vaznli effektiv kvadratur formula qoldiq hadi uchun quyidagi tenglik o‘rinlidir.

$$R_m = \frac{(-1)^m}{\beta_m^m (m!)^2} \int_0^1 f^{(2m)}(x) [x(x-1)]^m dx, \quad (19)$$

Bu yerda

$$\beta_m^m = (-1)^m \frac{(2m)!}{(m!)^2}$$

**Izbot.**  $g(x)$  funksiya sifatida biz Gauss kvadratur formulasini aniqlik darajasini  $(2m-1)$  gacha ta’minlaydigan Lagranj ko‘phadlaridan foydalangan, ya’ni

$$L(x) = \sum_{\alpha=0}^{m-1} \frac{(m+\alpha)!}{(m-\alpha)!(\alpha!)^2} (-x)^\alpha. \quad (20)$$

Uning  $[-1,1]$  oraliqdagi ba’zi bir ajoyib xossalariiga asosan uni

$$L(x) = \frac{1}{m!} \frac{d^m [(1-x)x]^m}{dx^m} \quad (21)$$

ko‘rinishda yoza olamiz.

Agar biz (7)da quyidagi almashtirishlarni bajarsak, ya’ni  $u(x)$  ni  $f^{(m)}(x)$  va  $v(x)$  ni  $[x(1-x)]^m$  bilan akslantirsak, u holda biz

$$R_m = \frac{(-1)^m}{\beta_m^m (m!)^2} \int_0^1 f^{(m)}(x) \frac{d^m [x(1-x)]^m}{dx^m} dx = \\ \left( \int_0^1 f^{(2m)}(x) [x(1-x)]^m dx \right) \frac{(-1)^m}{\beta_m^m (m!)^2};$$

tengliklarga ega bo‘lamiz, shu bilan teorema izbotlandi.

Effektiv kvadratur formulalarining qo‘llanishi.

Odatda xos qiymat deb ataluvchi nom’alum doimiy  $\lambda$  parametrni o‘z ichiga olgan chiziqli differensial tenglama berilgan bo‘lsin. Ya’ni shunday bir jinsli chegaraviy shartlar berilganki, tenglamaning yechimi faqat  $\lambda$  parametrni tanlash bilan topish mumkin. Masala shundan iboratki, shunday  $\lambda$  eng kichik qiymatni yoki bir nechta  $\lambda$  eng kichik qiymatlarni topish mumkin bo‘lsaki, masala yechimga ega bo‘lsin.

Bunday xos qiymatlar bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun effektiv kvadratur formulalarining qo‘llanishi yaqqol yordam berishi mumkin, chunki u faqat oraliqning chetki nuqtalarida funksiya va uning hosilalarini bilishga asoslangandir. Bu qiymatlar esa berilgan differensial tenglamalar va chegaraviy shartlar asosida olinadi.

Bu metodning qo‘llanishini namoyish qilish uchun biz oddiy bir misol olamiz. Lekin metod esa murakkab shartlar asosida qo‘llaniladi. Bizning asosiy maqsadimiz metodning jiddiy qirralarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Murakkablashgan texnik qiyingchiliklari bundan mustasnodir. Shuning uchun biz o‘zgarmas koeffisentli ikkinchi tartibli differensial tenglamaga to‘xtalamiz.

$$y'' + y' + \lambda y = 0. \quad (22)$$

Chegaraviy shartlari quyidagicha

$$y(0) = y(1) = 0. \quad (23)$$

Berilgan oraliq  $[0,1]$ ga keltirilgan. Bir jinsli chiziqli differensial tenglama o‘zgarmas amplitudali ko‘paytuvchi qoldirganligidan  $x = 0$  nuqtadagi hosila uchun ixtiyoriy  $y'(0) = 1$  qiymatni yozish mumkin. Bu shartlar bilan (22) differensial tenglama  $x = 0$  nuqtada barcha hosilalarning qiymatlarini aniqlaydi. Biz ularni ketma-ket differensiallash bilan yoki uni quyidagi  $y = a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + \dots$  darajali qatorga yoyib va o‘rniga qo‘yib olamiz. Barcha o‘xshash hadlarni to‘playmiz va  $x^k$  oldidagi olingan koeffisentlarni nolga

tenglashtiramiz. Bizning oddiy misolimizda  $a_0 = 0$ ,  $a_1 = 1$ ,  $a_2 = -\frac{1}{2}$ ,  $a_3 = \frac{1-\lambda}{6}$ ,  $y(0)$ ,  $y'(1) = 0$ ,  $y''(1) = -1$ ,  $y'''(1) = 1 - \lambda$  ni topamiz.

Agar biz koeffisentlarni ketma-ket topishni qancha davom ettirsak, shuncha katta aniqlikni kutishimiz mumkin. Bizning maqsadimiz uchun bu yerda biz  $a_3$  ga to'xtalamiz. Boshqa chetki nuqta uchun xuddi shunday

$$x = 1 + \xi, \quad y = b_0 + b_1\xi + b_2\xi^2 + b_3\xi^3$$

deb olamiz.

Oldingiga o'xshagan differensial tenglamaga eltib qo'yish metodidan foydalansak, biz  $b_0$  ni emas, balki barcha keyingi koeffisentlar  $b_0$  koeffisentning chiziqli funksiyasi bo'lar ekan.

$$b_0 = b_1, \quad b_2 = -\frac{\lambda b_0}{2}, \quad b_3 = -\frac{\lambda b_0}{6}$$

$$y(+1) = b_0, \quad y'(1) = 0, \quad y''(1) = -\lambda b_0, \quad y'''(1) = \lambda b_0$$

Endi biz  $y''(x)$  ni  $f(x)$  boshlang'ich funksiya sifatida qabul qilamiz va kvadratur formulani qo'llaymiz. Xuddi shunday  $f(x) = y''(x)$  va  $f'(x) = y'''(x)$  ikkala chetki nuqtalarda berilgan.

$$\begin{aligned} f(0) &= -1 & f(1) &= -\lambda b_0 \\ f'(0) &= 1 - \lambda & f'(1) &= \lambda b_0 \end{aligned}$$

$n = 2$  bo'lganda effektiv kvadratur formula

$$\begin{aligned} \int_0^1 y''(x) dx &= y'(1) - y'(0) = \frac{6(-1 - \lambda b_0) + 1(1 - \gamma - \gamma b_0)}{12}; \\ -1 &= \frac{-5 - 7\lambda b_0 - \lambda}{12} \end{aligned}$$

ni hosil qilamiz, bu quyidagi munosabatga olib keladi:

$$b_0 = \frac{7 - \lambda}{7\lambda}, \quad (24)$$

Endi biz yana bir marta  $y'(x)$  ni  $f(x)$  sifatida olib, effektiv kvadratur formuladan foydalanamiz:

$$\begin{aligned} f(0) &= 1, \quad f(1) = 0 \\ f'(0) &= 1, \quad f'(1) = -\lambda b_0 \\ f''(0) &= 1 - \lambda, \quad f''(1) = \lambda b_0 \end{aligned}$$

Hozir biz ikkala chetkilar uchun uch juft berilganlarga egamiz va formulani  $n = 3$  bo'lganda qo'llaymiz.

$$\begin{aligned} \int_0^1 y'(x) dx &= y(1) - y(0) = \frac{60(1 + 0) + 12(-1 + \lambda b_0) + (1 - \lambda + \lambda b_0)}{120} \\ b_0 &= \frac{49 - \lambda + 13\lambda b_0}{120} \end{aligned}$$

Bu esa yangi munosabatni beradi.

$$b_0 = \frac{49 - \lambda}{120 - 13\lambda} \quad (25)$$

(24) va (25)larning o'ng tomonlarini tenglashtirib  $\lambda$ -xos qiymatni aniqlash uchun quyidagi kvadrat tenglamani olamiz.

$$20\lambda^2 - 554\lambda + 840 = 0$$

Biz ikkita

$$\lambda_1 = 1,6095, \quad \lambda_2 = 26,0905, \quad (26)$$

ildizlarga ega bo'lamiz.

Faqat kichik ildizning o‘ziga xos qiymati bor, kattasini olsak, hisoblashlarda katta o‘zgarishlar bo‘ladi. Kichik ildiz uchun biz differensiallash jarayonini davom ettirsak, unda o‘zgarish bo‘lmaydi. Biz  $y''(x)$  ga kelib qoldiq. Agar biz yana bir qadam qilsak,  $y''(0)$  va  $y''(1)$  ni kiritsak, effektiv kvadratur formulaning birinchi yaqinlashishi  $n = 3$  da ikkinchisi esa  $n = 4$  da bo‘ladi. Bu uchun biz ikkita munosabatni olamiz.

$$b_0 = \frac{71 - 10\lambda}{\lambda(73 - \lambda)} \text{ va } b_0 = \frac{679 - 18\lambda}{168 - 201\lambda + \lambda^2}$$

va ular  $\lambda$  ni aniqlash uchun

$$28\lambda^3 - 4074\lambda^2 + 80638\lambda - 119280 = 0$$

kub tenglamani beradi. Bu yerda yechimi

$$\lambda_1 = 1,608467,$$

dan iborat bo‘ladi.  $\lambda_1$  qiymatning kichkina o‘zgarishi, (26) da topilganga nisbatan ko‘rsatadiki, birinchi qo‘pol yaqinlashish haqiqatga juda yaqin ekanki, aniqlik 0,07% gacha bo‘ldi. Ko‘rgan oddiy misolimizda natijalarimizni tekshirishimiz mumkin.  $\lambda_1$  - nazariy jihatdan

$$\lambda = \frac{1}{4} + \theta^2, \theta \text{ esa } \operatorname{tg}\theta = 2\theta$$

transendent tenglamaning yechimidir. Bu tenglamaning eng kichik ildizi  $\theta_1 = 1,1655618$  yoki  $\lambda_1 = 1,608534$  ni beradi. Shunday qilib  $n = 2,3$  uchun yaqinlashish xatoligi  $\eta = -0,0010$  ga,  $n = 3,4$  da esa  $\eta = 0,000067$  ga teng bo‘ldi.

Xuddi shunday silliq  $f(x) = y''(x)$   $n = 3$  funksiyalar uchun uni qo‘llasak yaqinlashish juda tez bo‘ladi. Ma’lumki, xos qiymatlarni olish uchun Rem - Rits metodi ba’zi bir integralarni minimallashtirishga asoslangandir, shuning uchun ham u metod faqat o‘ziga qo‘shma differensial operatorlarga qo‘llanishi mumkin.

Tavsiya etilgan metod uchun esa differensial operator va chegaraviy shartlar o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lishi talab qilinmaydi. Shuning uchun bu metod ancha umumiylashtirishga ham qo‘llaniladi va hatto bu metodik qo‘llash uchun differensial tenglamaning chiziqli bo‘lishi shart emas.

Bu g‘oyani yana ham ilgari suradigan bo‘lsak shunday xulosaga kelamizki, effektiv kvadratur jarayoni nafaqat xos qiymatlarni topish uchun, balkim differensial tenglamalarning haqiqiy yechimlarini topishga ham qo‘llanilishi mumkin. Effektiv kvadratur jarayonning yaqinlashishi umumiylashtirishga imkon beradi. Buning uchun biz teng taqsimlangan polinomial interpolatsiyaning yaqinlashishidan foydalanamiz.

$f(x)$  funksiya  $[0,1]$  intervalda va shu intervalni o‘ziga oluvchi kompleks tekislikning biror sohasida analitik xarakterga ega bo‘lsin deb, faraz qilaylik. U holda  $f(x)$  ni Koshining quyidagi Kontur integrali bilan tasvirlash mumkin.

$$f(x) = \frac{1}{2\pi i} \oint \frac{f(z)dz}{z-x}, \quad (27)$$

bu yerda integral yopiq kontur bo‘yicha olinadi, qaysikim  $z = x$ , hamda  $z = x_i$  nuqtalarini o‘z ichiga oladi, lekin  $f(z)$  funksianing maxsus nuqtalarini o‘z ichiga olmaydi. Bu esa bizga butun tekshirishimizni faqat  $(z_0 - x)^{-1}$  maxsus funksiya bilan chegaralanishga imkon beradi, bu yerda  $z_0$  - kompleks tekislikning biror fiksirlangan nuqtasidir. Quyidagi teorema o‘rinlidir.

**Teorema.** Agar effektiv kvadratur metod  $(z_0 - x)^{-1}$  - xususiy funksiya uchun  $z_0$  nuqta kompleks tekislikning biror to‘liq aniqlangan sohasidan tashqarida yotish sharti bilan yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda bu sohaning ichida va chegarasida regulyar bo‘ladigan ixtiyoriy  $f(z)$  analitik funksiya yaqinlashishi ta’milanadi.

**Isbot:** Ma’lumki effektiv kvadratur formulalar xatoligi uchun quyidagi baholash formasi o‘rinlidir.

$$R_m = \frac{(-1)^m}{(2m)!} \int_0^1 f^{(2m)}(x)[x(1-x)]^m dx, \quad (28)$$

Bundan

$$f(x) = \frac{1}{z_0 - x},$$

xususiy funksiya uchun,

$$\frac{f^{(2m)}(x)}{(2m)!} = \frac{1}{(z_0 - x)^{2m+1}},$$

ni olamiz va xuddi shunday

$$R_m = (-1)^m \int_0^1 \frac{1}{z_0 - x} \left[ \frac{x(1-x)}{(z_0 - x)^2} \right]^m dx, \quad (29)$$

tenglikka ega bo'lamiz. Endi (3.30) tenglikka biz ko'rsatishimiz kerakki,  $m$  ning cheksizlikka intilishi bilan  $R_m$  nolga intiladi.

E'tiborlisi shuki, hal qiluvchi qiymat

$$K(x) = \left| \frac{x(1-x)}{(z_0 - x)^2} \right|,$$

integral ostidagi funksianing  $m$  - darajasidan iborat. Agar  $K(x)$  hamma joyda birdan kichik bo'lsa, u holda  $R_m$  ning nolga asta-sekin yaqinlashishi ta'minlanadi. Shunday bo'lishi mumkinki,  $z_0$  nuqta  $x$  o'qiga  $[0,1]$  oraliqdan shunday uzoqlashtirilganki,  $K(x)$  oraliqning hammasida birdan kichik bo'ladi, bu holda esa, yaqinlashish ta'minlangan bo'lib keyingi tekshirishlar talab qilinmaydi.

Lekin shunday hol bo'lishi mumkinki,  $z_0$  nuqta  $x$  o'qiga juda yaqin bo'lib qoladi va  $K(x)$  - oraliqning ba'zi bir qismlari uchun birdan katta bo'lib qoladi.  $z_0$  nuqta quyidagi ko'rinishga ega bo'lsin.

$$z_0 = \alpha - i\beta,$$

bu yerda  $\beta$  musbat, ya'ni  $z_0 - x$  o'qidan pastga joylashgan ba'zi bir kompleks nuqtadir.  $K(x) = O$  bo'ladigan nuqtadan boshlab,  $x$  o'qi bo'yicha  $A_1$  nuqtagacha  $K(x)$  ni shunday almashtiramizki, u birga teng bo'lsin.

Shunday o'xhash  $x = 1$  nuqtadan (bu yerda  $K(x) = O$ ),  $A$  nuqtagacha orqaga qaytamizki, yana  $K(x) = 1$  bo'lsin. Qiyingchilik  $A_1, A_2$  orasida bo'ladiki, oraliqning qismida  $OA_1$  va  $A_2O$  kesmalar nolga intiladi. Endi biz ma'lum bo'lgan analitik funksiyalar xossalariiga asosan xulosa chiqaramizki, integral ostidagi funksianing maxsus nuqtalarini olganda, integrallash yo'lini ixtiyoriy deformatsiyalash mumkin. Shuning uchun biz  $x$  ni  $z = x + iy$  kompleks o'zgaruvchi bilan almashtiramiz va integral ostidagi funksiya maxsus nuqtalarga ega bo'lmaydigan kompleks tekislikning yuqori yarim qismida integrallash yo'lini tanlaymiz. Avval  $K(x) = 1$  bo'ladigan nuqtalarning geometrik o'rnini aniqlaymiz.

Bu esa

$$[x(1-x) + y^2]^2 + (1-2x)^2 y^2 = [(\alpha - x)^2 + (\beta - y)^2]^2, \quad (30)$$

shartga olib keladi.

Buni biz  $y$  ga nisbatan uchinchi darajali hadi  $4\beta y^3$  va ozod hadi  $[(\alpha - x)^2 + \beta^2]^2 + [x(1-x)]^2$  ga teng bo'lgan kubik tenglama sifatida qarashimiz mumkin.  $A_1$  va  $A_2$  kritik oraliqda bu qiymat manfiy bo'lib qoladi. Lekin, bunda kubik tenglama har qanday  $x$  ning qiyamlari uchun haqiqiy musbat ildizga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib biz yuqori yarim tekislikda  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalarni birlashtiruvchi botiq egrilikni aniqlovchi soha ichida  $K(z) > 1$ , tashqarisida esa  $K(z) < 1$  ga ega bo'lamiz.

Kritik egrilik tashqarisida integrallash yo'lini shunday ta'minlaymizki,  $K(z) < 1$  bo'ladidi. Bu bilan  $R_m$  ning nolga intilishini isbotladik. Agar biz  $\beta = O$  deb olsak, u holda  $z_0 = x$  o'qida yotadi va integral ostidagi funksiya haqiqiy bo'ladidi.

$$K(x) = \frac{x(1-x)}{(\alpha - x)^2}$$

kasrni qaraymiz. Uning maksimumi

$$x = \frac{\alpha}{2\alpha - 1}$$

nuqtada yotadi. Qaysikim

$$K(x) = \frac{1}{4\alpha(\alpha - 1)}$$

Bu kasrning birdan kichik bo‘lish sharti  $\alpha$  ga ikkita chegarani beradiki aynan musbat tomondan:  $\alpha > \frac{1 + \sqrt{2}}{2} = 1,20705$ , va manfiy tomondan:  $\alpha < \frac{1 - \sqrt{2}}{2} = -0,20705$ , tekshirishimizning natijasini quyidagicha tasvirlash mumkin:  $x$  o‘qida kesmani simmetrik har ikkala tomonga ham 0,207 qiymatga chetki  $O, -1$  nuqtalardan boshlab cho‘zamiz. Bu kesmani ixtiyoriy kichik tenglik bilan o‘raymiz. Teoremani sharti bo‘yicha bu sohada  $f(z)$  regulyar u holda effektiv kvadratur yaqinlashishi ta’minlanadi. Teorema isbotlandi.

### Adabiyotlar

1. Бабушка И. Оптимальные квадратурные формулы // ДАН СССР. -Москва, 1963. Т.149, № 2.- С. 227-229.
2. Шадиметов Х.М. Об оптимальных решетчатых квадратурных и кубатурных формулах // Докл. РАН. –Москва, 2001.- Т. 376, № 5. -С. 597 - 599.
3. Шадиметов Х.М. Решетчатые квадратурные и кубатурные формулы в пространствах С.Л.Соболева: Дис... докт.физ.-мат.наук. –Ташкент, 2002. – 218 с.
4. Шарипов Т.Х. Некоторые вопросы теории приближенного интегрирования: Дис... канд.физ.-мат.наук. –Ташкент, 1975. – 102с.
5. McLaren D.A. Optimal numerical integration a Sphere.-math.Comp.1963,t.83, -Pp.361-383.

<b>Sarvarbek POLVONOV</b> Is a master of department of applied mathematics and programming techniques Bukhara state university	<b>Alibek ABDUAKHADOV</b> Is a teacher of department of applied mathematics and programming techniques Bukhara state university	<b>Jamshid ABDUG'ANIYEV</b> Is a master of department of informatics and information technologies Termiz state university	<b>G'ulomjon ELMURATOV</b> Is a teacher of mathematics at the Vocational School No. 2 in Angren
--	---	---	--

## SOME ALGORITHMS FOR RECONSTRUCTION CT IMAGES

*In computed tomography, the tomography reconstruction problem is to obtain a tomographic slice image from a set of projections. A projection is formed by drawing a set of parallel rays through the 2D object of interest, assigning the integral of the object's contrast along each ray to a single pixel in the projection. In this work we demonstrate some reconstruction algorithm by Python.*

**Key words:** Computed tomography (CT), Fourier transform, image reconstruction, filtered back-projection, Radon transform, linear transform.

*Kompyuter tomografiyasida tomografiyani qayta qurish muammosi proeksiyalar to'plamidan tomografik bo'lak tasvirini olishdir. Proeksiya 2D qiziqish obyekti orqali parallel nurlar to'plamini o'tkazish, har bir nur bo'ylab obyekt kontrastining integralini proeksiyadagi bitta pikselga belgilash orqali hosil bo'ladi. Ushbu ishda biz Python tomonidan qayta qurish algoritmini ko'rsatamiz.*

**Kalit so'zlar:** kompyuter tomografiyasi (KT), Fурье преобразование, тасвирни qayta tiklash, filtrlangan orqa proyeksiya, Radon transformatsiyasi, chiziqli transformatsiya.

*В компьютерной томографии задача восстановления томографии состоит в том, чтобы получить изображение томографического среза из набора проекций. Проекция формируется путем прорисовки набора параллельных лучей через интересующий 2D-объект, присвоения интеграла контрастности объекта вдоль каждого луча одному пикслю в проекции. В этой работе мы демонстрируем некоторый алгоритм реконструкции на Python.*

**Ключевые слова:** компьютерная томография (КТ), преобразование Фурье, реконструкция изображения, фильтрованная обратная проекция, преобразование Радона, линейное преобразование.

**Introduction.** The problem of CT is to reconstruct the function  $\mu(x, y)$  from its projections  $P(t, \theta)$ . There are analytic and iterative methods for CT image reconstruction. One of the widely used analytic methods of CT image reconstruction is the filtered back-projection method. It can be modeled by

$$\mu(x, y) = \int_0^\infty \int_{-\infty}^{\infty} S(\omega, \theta) |\omega| e^{-2\pi i \omega(x \cos \theta + y \sin \theta)} d\omega d\theta, \quad (1)$$

where

$$S(\omega, \theta) = \int_{-\infty}^{\infty} P(t, \theta) e^{-2\pi i \omega t} dt \quad (2)$$

is the 1D Fourier transform of  $P(t, \theta)$ . The inner integral of (1),

$$Q(t, \theta) = \int_{-\infty}^{\infty} S(\omega, \theta) |\omega| e^{2\pi i \omega t} d\omega, \quad (3)$$

is a 1D inverse Fourier transform of the product  $S(\omega, \theta) |\omega|$ , which represents a projection filtered by a 1D filter whose frequency representation is  $|\omega|$ . The outer integral performs back-projection. Therefore, the filtered back-projection consists of two steps: filtration and then back-projection.

Thus, the Fourier transforms play the main role in (1)-(3). But in practice, due to the fact that we have discrete values of the Radon transform, we have to approximately calculate the Fourier transforms in the filtered back-projection [2, 3, 4].

**Radon transform.** In computed tomography, the tomography reconstruction problem is to obtain a tomographic slice image from a set of projections [5]. A projection is formed by drawing a set of parallel rays through the 2D object of interest, assigning the integral of the object's contrast along each ray to a single pixel in the projection. A single projection of a 2D object is one dimensional. To enable computed tomography reconstruction of the object, several projections must be acquired, each of them corresponding to a different angle between the rays with respect to the object. A collection of projections at several angles is called a sinogram, which is a linear transform of the original image.

The inverse Radon transform is used in computed tomography to reconstruct a 2D image from the measured projections (the sinogram). A practical, exact implementation of the inverse Radon transform does not exist, but there are several good approximate algorithms available.

As the inverse Radon transform reconstructs the object from a set of projections, the (forward) Radon transform can be used to simulate a tomography experiment.

This script performs the Radon transform to simulate a tomography experiment and reconstructs the input image based on the resulting sinogram formed by the simulation. Two methods for performing the inverse Radon transform and reconstructing the original image are compared: The Filtered Back Projection (FBP) and the Simultaneous Algebraic Reconstruction Technique (SART). For further information on tomographic reconstruction (see [1, 5, 6, 7]).

**The forward transform.** As our original image, we will use the Shepp-Logan phantom. When calculating the Radon transform, we need to decide how many projection angles we wish to use. As a rule of thumb, the number of projections should be about the same as the number of pixels there are across the object (to see why this is so, consider how many unknown pixel values must be determined in the reconstruction process and compare this to the number of measurements provided by the projections), and we follow that rule here. Below is the original image and its Radon transform, often known as its \*sinogram\*:

```
"""
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt

from skimage.data import shepp_logan_phantom
from skimage.transform import radon, rescale

image = shepp_logan_phantom()
image = rescale(image, scale=0.4, mode='reflect')
fig, (ax1, ax2) = plt.subplots(1, 2, figsize=(8, 4.5))
ax1.set_title("Original")
ax1.imshow(image, cmap=plt.cm.Greys_r)
theta = np.linspace(0., 180., max(image.shape), endpoint=False)
sinogram = radon(image, theta=theta)
dx, dy = 0.5 * 180.0 / max(image.shape), 0.5 / sinogram.shape[0]
ax2.set_title("Radon transform\n(Sinogram)")
ax2.set_xlabel("Projection angle (deg)")
ax2.set_ylabel("Projection position (pixels)")
ax2.imshow(sinogram, cmap=plt.cm.Greys_r,
           extent=(-dx, 180.0 + dx, -dy, sinogram.shape[0] + dy),
           aspect='auto')
fig.tight_layout()
plt.show()
```

**Reconstruction with the Filtered Back Projection (FBP).** The mathematical foundation of the filtered back projection is the Fourier slice theorem [6]. It uses Fourier transform of the projection and interpolation in Fourier space to obtain the 2D Fourier transform of the image, which is then inverted to form the reconstructed image. The filtered back projection is among the fastest methods of performing the inverse Radon transform. The only tunable parameter for the FBP is the filter, which is applied to the Fourier transformed projections. It may be used to suppress high frequency noise in the reconstruction. “skimage” provides the filters ‘ramp’, ‘shepp-logan’, ‘cosine’, ‘hamming’, and ‘hann’:

```
import matplotlib.pyplot as plt
from skimage.transform.radon_transform import _get_fourier_filter
filters = ['ramp', 'shepp-logan', 'cosine', 'hamming', 'hann']
for ix, f in enumerate(filters):
    response = _get_fourier_filter(2000, f)
    plt.plot(response, label=f)
    plt.xlim([0, 1000])
    plt.xlabel('frequency')
    plt.legend()
```

```
plt.show()
```

Applying the inverse radon transformation with the ‘ramp’ filter, we get:

```
**Kalit so'zlar:** modulli o'qitish, dastur, dasturlash muhiti, keys-stadi, interfaol ta'lif.

*В настоящее время разработка специального программного обеспечения для каждой отрасли является одной из важнейших задач. Можно преодолеть возможные проблемы и добиться производства качественной продукции. С этой целью одной из наиболее актуальных проблем сегодня является повышение знаний и интереса учащихся к языкам программирования, а также разработка конкретных рекомендаций по изучению языков программирования.*

**Ключевые слова:** модульное обучение, программа, среда программирования, тематическое исследование, интерактивное обучение.

*Nowadays, the development of specific software for each industry is one of the most important tasks. possible problems can be overcome and quality product production can be achieved. To this end, one of the most pressing issues today is to increase students' knowledge and interest in programming languages, to develop specific guidelines for learning programming languages.*

**Key words:** modular learning, program, programming environment, case study, interactive learning.

**Kirish.** Hozirgi davrda inson hamjamiyatining barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayoni olib borilmoqda. Buning uchun har bir insondan o'z kasbni chuqur anglashi, yetarli darajada bilim va malakaga ega bo'lishi talab etladi. Shu boisdan o'quvchilarni raqamli texnologiyalar bilan hamnafas holda, ayniqsa, dasturlash tillariga doir bilimlar bilan ularni boyitish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham ayni vaqtida jamiyatning barcha sohalariga jadallik bilan raqamli texnologiyalar kirib kelmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ish sifatini oshirish, vaqt tejamkorligaga erishish va turli xildagi xatoliklarni bartaraf etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy makteblarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4537-son, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son Qarorlarining asosiy g'oyasi umumiy o'rta ta'lim makteblarini zamon talablari darajasida rivojlantirish, o'quv-adabiyotlarini yangilash hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi [7].

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lif va fanni rivojlantirishga asoslangan uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari salohiyatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, oliy va umumiy o'rta ta'lif makteblari o'quv adabiyotlari sifatini tubdan yaxshilash nazarda tutilgan. Bundan tashqari, ta'lif sifatini tubdan yaxshilashda fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimligi ta'kidlangan.

**Asosiy qism.** Ta'lifning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta'lif muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda o'quvchilarga uzlusiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lif sifatining oshishiga olib keladi. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy taskilotchisi - pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Darsga kiruvchi har bir o'qituvchidan quyidagi 3 ta sifat talab qilinadi:

- o'qituvchi bilimi ya'ni o'zi o'qitadigan fanni chuqur bilishi;
- o'qituvchining pedagogik mahorati, ya'ni mavzuni o'quvchilarga yetkaza berishi;
- o'qituvchining psixologik holati ya'ni hayotiy, oilaviy muammolarni unutgan holda darsga kirishi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, yuqori darajada o‘zlashtirish natijalariga erishishni ta’minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo‘yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi [1, 49]:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’motini yaratish;
- ta’lim oluvchilarining xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Yuqoridaq vazifalarni hal qilishning eng to‘g‘ri yo‘li dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdan iboratdir. Informatika fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir [2, 30]:

- o‘yinli texnologiyalar;
- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Ushbu metodlar o‘quvchilarining faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga mo‘ljallangan. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturlash tillaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, algoritmlar va dasturlarni tuzish, ularni kompyuter yordamida amalga oshirish, ishlab chiqilgan dasturlarni jamiyatning turli sohalarida qo‘llash va natijalarni tahlil qilishga o‘rgatadi. O‘quvchilarga dasturlash fanlarini o‘qitishda asosan ularning qobiliyatlarini inobatga olib, qaysi dasturlash tillariga qiziqishiga qarab yo‘naltirish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, o‘yin dasturlari, trenajor dasturlar, ko‘rgazmali, multimedia vositalaridan foydalanilsa o‘quvchi eslab qolishi va jarayonni ko‘z oldida tasavvur qilishi oson kechadi.

**Muhokamalar va natijalar.** Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo‘lib, bularga Delphi, C++, C#, Python, Java va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo‘nalishdagi masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin [6]. Dasturlash tillari ichida keng tarqalgani bu Paskal dasturlash tili bo‘lib, dasturlash tilini o‘rgatish maqsadida ishlab chiqilgan. Paskal dasturlash tilidan keng foydalanishga asosiy sabab dasturning soddaligi va undan foydalanish qulayligidadir. Bundan tashqari Delphi dasturlash muhitida ilova va komponentalardan foydalanib, tuziladigan dasturni ko‘rgazmali qilish imkoniyatlari mavjud. O‘quvchi Delphi dasturlash muhitidan foydalanganda ilova oynasini hosil qilish, unga tayyor boshqarish obyektlarini joylash va interfaol ilovalarni yaratish imkoniyatlarini o‘zlashtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi o‘zining ma’naviy, ruhiy va intelektual salohiyatini rivojlantiradi, kamolotga intilish, kognitivlik ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish va o‘z xatti-harakatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Delphi muhitida quyidagi dasturlarni ko‘rib chiqamiz, bu dasturlar o‘quvchini dasturlashga qiziqtiradi, mantiqiy fikrlashga undaydi va shu bilan birgalikda matematika, fizika fanlarini yaxshi o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi [3, 78].

Zamonaviy ta’lim metodlardan foydalanib dars mashg‘ulotlarni olib borishni faol o‘qitish shakllaridan biri deb qarash mumkin. Bunday darslar o‘qituvchi va o‘quvchilarining ijodiy yondashuvini, o‘quvchilarining faol bilish faoliyati jarayonida malakalarini o‘zlashtirishlarini, o‘zining kelajakdagagi pedagogik faoliyatida o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. O‘yinli texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish o‘rganilayotgan materialga doir atamalarni mukammal tushunishda va eslab qolishda muhim asos bo‘lib hisoblanadi. O‘yinli texnologiyalar natijasida talabalarning bilish faoliyati rivojlanadi, o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishi uyg‘onadi, olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aynan yosh avlodni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatishdan iborat [2, 56].

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mos metodlar hozirda mayjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun mos metodlarni ajratib olib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi doimiy rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlardan biri “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”) hisoblanadi. Keyslardan foydalanish talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘laydi [2].

Interfaol ta’lim metodlari ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari bilan bir vaqtida qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Odatda insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. O‘quvchilarining mактабдаги о‘quv materialлари асосидаги аqliy harakatlarini shakllanish qонуниятлари o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Interfaol ta’lim metodlaridan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarни mustaqil izlanishlariga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga, zukkolik, hozirjavoblik qobiliyatlarining rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Interfaol ta’lim metodlari o‘quvchi ongida mavzuni to‘liq mustahkamlashiga, undagi bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlanishiga, dasturlash tillariga mukammal o‘rganishga, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

**Xulosa** qilib aytganda, umumiyl o‘rta maktabda zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitilishi o‘quvchilarда dasturlash muhitida ishslash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

## Adabiyotlar

1. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv – tarbiya jarayoniga qo‘llash. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. - 184 bet.
2. Olimov Sh. Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. -Buxoro: “Sadreddin Salim Buxoriy” Durdona nashryoti, 2019. -184 b.
3. Малеев В. В. Общая методика преподавания информатики: учеб. пособие. -Воронеж: ВГПУ, 2005. – 271 с.
4. Zaripov N.N. Kompyuter grafikasi // O‘quv qo‘llanma. –Buxoro: “Durdona”, 2020. - 202 b.
5. Zaripov N.N. Delphi dasturlash muhitida komponentalar bilan ishslash texnologiyalari // O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2020. - 128 b.
6. Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Musayev M.M., Ne’matov A.N. Delphi tilida dasturlash asoslari. – T.: “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. –280 b.
7. www.lex.uz

## **TA'LIMNI RAQAMLI MUHITGA MOSLASHTIRISH SHAROITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI**

*Maqolada ta'lismi tizimida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi olib borilayotgan islohotlarning tahlili xususida so'z boradi. Erasmus+ dasturi ko'magida amalga oshirilayotgan tizimni takomillashtirishning tizimli vazifalari, shuningdek, oliy ta'lismi tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar hamda ularni amalga oshirish darajasi borasida muallif o'z mulohazalarini bayon qilgan. O'zbekistonda masofaviy ta'limning yo'lga qo'yilishi, sohadagi yutuq va kamchiliklar xususida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Erasmus+ dasturi, innovatsion ta'lismi texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, elektron resurlar, masofaviy ta'lismi, Smart-Education, blended-learning, flipped classroom, big data, blockchain, data science.

*В статье анализируются проводимые реформы использования информационных технологий в системе образования. Автор комментирует системные задачи совершенствования системы, реализуемые при поддержке программы Erasmus +, а также задачи, поставленные в концепции адаптации системы высшего образования к цифровому поколению и уровень их реализации. Состоялся разговор о внедрении дистанционного обучения в Узбекистане, достижениях и недостатках в этой сфере.*

**Ключевые слова:** программа Erasmus +, инновационные образовательные технологии, цифровые технологии, электронные ресурсы, дистанционное обучение, Smart-Education, смешанное обучение, перевернутый класс, большие данные, блокчейн, наука о данных.

*The article analyzes the ongoing reforms in the use of information technology in the education system. The author comments on the systemic tasks of improving the system implemented with the support of the Erasmus + program, as well as the tasks set in the concept of adaptation of the higher education system to the digital generation and the level of their implementation. There was a talk about the introduction of distance learning in Uzbekistan, the achievements and shortcomings in this area.*

**Key words:** Erasmus + program, innovative educational technologies, digital technologies, electronic resources, distance learning, Smart-Education, blended-learning, flipped classroom, big data, blockchain, data science.

**Kirish.** So'nggi yillarda ta'lismi tizimini isloq qilish davlat siyosatida hal qiluvchi va dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida alohida so'z yuritish, ta'lismi yangiliklarini keng jamoatchilikka tarqatish ishlarini bajarishda ommaviy axborot vositalari, xusan, internet tarmog'i manbalarining o'rni beqiyosdir. Jumladan, uza.uz saytining 2020-yil 15 dekabrda e'lon qilingan postida "Erasmus+ dasturining yillik konferensiyasi o'tkazildi" nomli posti e'lon qilingan edi. Unda ta'lismi tizimini isloq qilishdagi qator masalalar yuzasidan ma'lumotlar berilgan. Jumladan, postda shunday ma'lumotlar keltiriladi:

Mazkur tizimni yanada takomillashtirish maqsadida THE, QS kabi reyting agentliklari bilan yaqindan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

"Erasmus+ ko'magi bilan mamlakatimizda o'qituvchilarni tayyorlash tizimini xalqaro talablar darajasida takomillashtirilishi va o'zbekistonlik o'qituvchilar va talabalarning almashinuv dasturlari orqali Finlyandiya tajribasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish.

Oliy ta'lismi muassasalarining o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish.

Pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, zamonaviy o'qitish usullarini qo'llashga qaratilgan o'quv dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish.

Oliy ta'lismi tizimiga sohadagi ilg'or standartlarni joriy etish, xusan, o'quv dasturlarini nazariy bilimlarga asoslangan ta'lismidan xalqaro tajriba asosida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lismi tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish.

Ta'lism, fan, innovatsiya va oliy ta'lismi muassasalaridagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Yuqoridaqni vazifalarni amalga oshirish uchun Yevropa Ittifoqi universitetlari bilan hamkorlikni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilganligi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ta'lism sohasidagi

islohotlarni samarali amalga oshirishda xalqaro ekspertlarning tajribasi hamda Erasmus+ dasturining ko‘magi bunda muhim o‘rin egallashi ham nazar tutilgan.

Erasmus+ dasturida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari qamrab olingan, ayniqsa, oliv ta’lim muassasalarining rivojlanish tendensiyalari qayta ko‘rib chiqish, isloh qilish borasidagi sa’y-harakatlar zamonning aktual muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda [9].

Kelajak avlod haqida gap borganda, barcha u yoki bu fikr-mulohazalar bilan ularni bilim olishga undaydi. O‘quvchilar, talabalar ta’lim dargohlarida hayoti va kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimga ega bo‘lishiga ishongimiz keladi. Shu munosabat bilan ta’lim darajasini ko‘tarish uchun o‘quv jarayonining hozirgi holati va tendensiyalarini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Bugungi kun auditoriyalari o‘n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagи ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlod – televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart soatlari paydo bo‘ldi. Bunday zinch raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Raqamli avlod ota-onalarimiz o‘rgangan uslubda o‘qitilishi mumkin emas va bo‘lmasisligi ham kerak. Bu avlodni o‘qitishda qora doska va oq bo‘rdan foydalanish mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo‘rni markerga o‘zgartirish hech narsani o‘zgartirmaydi, ya’ni zamonaviy talabalarini bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo‘la olmaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va IT - kompetensiya asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta’lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma’ruzalar va seminarlarni ma’lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi.

O‘qituvchining obro‘sni va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an’naviy uslubda o‘qishni xohlasmaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas.

**Muhokamalar va natijalar.** Yuqoridagi masalalarning maqsadi va vazifalari 2019-yilda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish” konsepsiyasida batafsil tahlil qilingan. Quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma ishlab chiqish.
2. Ko‘rsatmani nashr etish va uni barcha o‘qituvchilarga yetkazish:
  - qog‘oz nusxasi ko‘rinishida;
  - Internetda interfaol multimediali ko‘rinishda.
3. Umumiy innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali ko‘rsatmaning asosiy mavzulari bo‘yicha video ma’ruzalar uchun ommaviy virtual kutubxona ishlab chiqish.
4. Innovatsion ta’lim texnologiyalari markazlarining milliy tarmog‘ini yaratish.
5. Moslashuvchan vositalardan foydalangan holda universitet ichida o‘zaro raqamli aloqalar uchun yagona axborot markazini ishlab chiqish maqsadida “SMART-EDUCATION” strategik rejasini yaratish va joriy qilish.
6. O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lамини kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihamlariga jalb qilish bilan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish.
7. Yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriylar, mediastudiylar va boshqalarni o‘z ichiga olgan “Raqamli kompetensiylar markazlari”ni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash.
8. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minalash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlucksiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish, quyidagi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish:
  - interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish;

- ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish;
- real vaqt rejimida quyidagilardan foydalanib masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish: - interfaol taqdimot tizimlari; - video-konferensaloqa tizimlari; - virtual zallar;
- elektron resurslardan foydalangan holda istalgan vaqtida masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish: - matnli / grafik formatda; - video formatda;
  - bulutli texnologiyalardan foydalanish;
  - virtual voqelikdan foydalanish;
  - kengaytirilgan voqelikdan foydalanish;
  - didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash;
  - raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash;
  - o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihibar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-sayt ishlab chiqish.

**Elektron, mobil va har joydagagi ta’limni rivojlantirish:**

1. Universitetning virtual umumiy muhiti bo‘lgan elektron ta’lim platformasini takomillashtirish.
2. Elektron o‘quv platformsida barcha asosiy kurslarning ma’ruza va seminar materiallarini quyidagi formatda nashr etish:

- matnli / grafik shaklda;
- video shaklda.
- 3. Muhandislik kurslari uchun virtual laboratoriyalarni ishlab chiqish.
- 4. Elektron interfaol multimediali o‘quv materiallarini yaratish.
- 5. Kutubxona fondlarini raqamlashtirish va virtual kutubxonada ularni nashr qilish.
- 6. Oliy o‘quv yurtlari uchun raqamli ta’lim resurslarining milliy fondini (elektron interfaol multimediali o‘quv materiallari, virtual trenajyorlar va boshqalar) yaratish.
- 7. Ommaviy ochiq onlayn kurs formatida onlayn trening kurslarini talabalar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham ishlab chiqish va joriy etish.
- 8. Raqamli avlod uchun asosiy imkoniyatlarni ta’minlaydigan elektron darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini hamda o‘zlashtirilgan materiallarni tekshirish uchun interfaol testlar hamda mavjud va avval aniqlangan bilimdagisi bo‘shliqlar uchun interfaol vositalarni ishlab chiqish.
- 9. Ommaviy ochiq onlayn kurslarni uslubiy va texnik xususiyatlarni yaxshilash.
- 10. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinlar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyatga keng joriy etish.
- 11. Juhon elektron ta’lim resurslaridan, shu jumladan, elektron kutubxonalar, ma’lumot bazalari, laboratoriya protokollari va boshqalardan foydalanish uchun universitetning obunasini davom ettirish va kengaytirish.
- 12. BigData, Blockchain, sun’iy intellekt, Data Sciense kabi raqamlashtirishning eng yuqori darajasidagi vositalarni ta’lim jarayoniga joriy etish [3, 7-9].

Ta’lim jarayoniga yuqorida qayd etilgan vazifalarni qisqa muddatda joriy etishning imkonsiz. Vazifalar bosqichma-bosqich to‘laqonli amalga oshirilgan taqdirda ham biz ta’limning yuqori marralarini egallashimizga shubha yo‘q. Shunga qaramay, tizimda haligacha moddiy-texnik bazaning yetarli darajada emasligi ta’lim tizimining eng og‘riqli nuqtalaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘rta maktablarni tugatib, OTMlarga o‘qishga kelayotgan aksariyat talabalarning eng oddiy kompyuter savodxonligi borasidagi bilimlarining mavjud emasligi oliy ta’lim dargohlarida sifatli kadrlarning yetishib chiqishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biridir.

**Xulosa.** 2020-yilning pandemiya davrida ta’lim shakli masofaviyga o‘tkazilgan davrda poytaxt hamda viloyat OTM talabalari va professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma ularning 80 foizi ZOOM yoki Telegram tarmog‘i orqali dars o‘tganligini qayd etgan. Ishtirokchilarning 20 foizi butun jahonda onlayn ta’lim uchun foydalilanayotgan Moodle, eSllass (Rasm), Google Classroom (2-rasm) hamda onlayn kurslar bilan tanilgan Coursera, EdX, Udacity, Udemy kabi platformalarni bilishini aytgan [8]. Bizningcha, muammo shu yerdan boshlanadi, ta’limning onlayn shakliga o‘tishda ushbu ta’lim platformalarini va bu bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish zarurati mavjud.



**1-rasm. eClass platformasining bosh sahifasi**

**2-rasm. Google Classroom platformasida yaratilgan kurslar**

Umumta'limga muktablarida ham masofaviy ta'limga ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borildi. Albatta, shu o'rinda televidenie orqali "Onlayn maktab" turkum dasturlarining tashkil etilishi muammoni ma'lum darajada hal qildi deyish mumkin. Lekin bunday yondashuv raqamli ta'limga muhitini yaratishning tugal yechimi bo'lmaydi. O'rta maktab va kasb-hunar makteblarining o'quv jarayonlarini: fanning kontentini yaratish, uyga vazifa va mustaqil shug'ullanish uchun topshiriqlar va ularga tegishli bo'lgan xususiyatlarni yagona obyektga birlashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish monitoringini yuritish kabi pedagogik vazifalarni amalga oshirish uchun yagona tizimni joriy Xalq ta'limi tizimi oldida turgan aktual masala hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. Oliy ta'limga tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. -Toshkent, 2019.
4. Муцurova З.М. (2021) Современные методы и технологии обучения информатике в условиях цифровой трансформации образования // Цифровизация: россия и снг в контексте глобальной трансформации: сборник статей II Всероссийской научно-практической. -Петрозаводск: МЦНП "Новая наука". Стр. -29-34.
5. Turaeva G.X. (2020) Проблемы машинного перевода при переводе на узбекский язык // Universum: технические науки. Стр. 47–49.
6. Исмоилова М.Н., Тураева Г.Х. (2021) Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. Стр. – 65-67.
7. Buranova G.B., Narzullayeva F. Turayeva G.H. Universal methods of organizing "robototechnics" circles in the primary classes of the school with the help of virtual didactic means // Asian Journal of Research. Pp.– 21-38.
8. Sharipov A. (2021). Ta'limga islohotlari: qay biri afzal? <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/9570/>.
9. Erasmus+ dasturining yillik konferensiysi o'tkazildi. <http://uza.uz/posts/194736>.

## **O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM BOSHQARUVINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH IMKONIYATLARI**

*Ushbu maqolada maktablar uchun LMS nima va undan qanday foydalanish mumkinligi aytilgan. Maktablar uchun LMS turlari va LMS haqida ba'zi savollarga javoblar berilgan. Hozirgi pandemiya davrida o'quvchilarga uzlucksiz bilim berib borish maqsadida onlayn maktablarning o'rni haqida fikr yuritilgan. LMSda ta'lism standartlariga muvofiq dasturiy ta'minotni yaratish, maktabim maxfti ma'lumotlarini himoya qilish, LMSni boshqa dasturlar bilan integratsiya qilish, o'qituvchilar va o'quvchilarni LMSga o'tishga rag'batlanirish kabi mavzular mazmuni tushuntirilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** masofali ta'lism texnologiyalari, axborot kommunikatsion texnologiya, LMS, mustaqil ta'lism, E-Learning, onlayn ta'lism, onlayn maktab.

*В этой статье объясняется, что такое LMS для школ и как ее можно использовать. Были даны ответы на некоторые вопросы о типах LMS и LMS для школ. В условиях нынешней пандемии учитывается роль онлайн-школ в обеспечении непрерывного образования учащихся. LMS объясняет такие темы, как создание программного обеспечения, соответствующего образовательным стандартам, защита конфиденциальной информации моей школы, интеграция LMS с другими программами и поощрение учителей и учеников к переходу на LMS.*

**Ключевые слова:** технологии дистанционного обучения, информационно-коммуникационные технологии, LMS, самостоятельное обучение, электронное обучение, онлайн-образование, онлайн-школа.

*This article explains what LMS is for schools and how it can be used. Some questions about LMS types and LMS for schools have been answered. In the current pandemic, the role of online schools has been considered in order to provide continuous education to students. The LMS explains topics such as creating software that meets educational standards, protecting my school's confidential information, integrating LMS with other programs, and encouraging teachers and students to transition to LMS.*

**Key words:** distance learning technologies, information and communication technology, LMS, independent learning, E-Learning, online education, online school.

**Kirish.** Maktab xodimlarining ishini yengillashtirish, o'qituvchi-o'quvchi va ota-onalarning o'zaro hamkorlikdagi ta'sirini kuchaytirish sharoitlari kengaymoqda. Bugungi kunda hayotning deyarli barcha sohalari internetga o'tmoqda. Biz oziq-ovqatga buyurtma beramiz, kiyim sotib olamiz, moliyaviy masalalarni boshqaramiz, smartfonlarimiz yordamida til darslarini o'tamiz. Raqamlashtirish tendensiyasi ostida hamma narsa o'zgarmoqda va biz chetda tura olmaymiz. Ta'lism sohasi ham bundan mustasno emas: u elektron ta'lism dasturlari, raqamli aloqa va onlayn uy vazifalari bilan to'lib toshgan. Maktablar ham bu tendensiyani qo'llab-quvvatlaydilar va asta-sekin zerikarli byurokratiyadan boshqaruvning yangi yechimlariga o'tadilar. Nega maktablar bu o'zgarishni xoxlashyapti? Chunki raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun ham, o'quvchilar uchun ham ta'lism imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bir savol tug'iladi: qanday qilib "zamonaviy ta'lism" iborasini eshitganlarida, odamlarning hayoliga birinchi keladigan maktablardan biri bo'lish mumkin? Javob juda oddiy. Avval kuchli maktab ta'limi boshqarish tizimini yaratish kerak.

Maktablar uchun LMS (Learning Management Systems) - ta'limi boshqarish tizimlari nima va undan qanday foydalanish mumkin?

Maktab LMS - bu maktablar yoki boshqa ta'lism muassasalari tomonidan ma'lumotlarni boshqarish maqsadida ishlatalidigan tizim. Maktablar uchun ta'limi boshqarish tizimlari maktab xodimlariga jarayon bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni boshqarishga imkon beradi, o'quvchilar esa o'quv jarayoni va faoliyatini bir joyda nazorat qilish va kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktablar uchun eng yaxshi LMS hozirgi ma'lumotlarni boshqarish uchun juda yaxshi ishlaydi, lekin siz uni rejalashtirish va prognoz qilish, oldini olish va tahlil qilish uchun ham ishlatishingiz mumkin.

LMS nima qiladi? Maktab uchun ta'limi boshqarish tizimi sizga turli xil vositalarni beradi, ulardan ba'zilari tizimdan tashqarida mavjud emas. LMS yordamida hal qilishingiz mumkin bo'lgan ba'zi yechimlar:


1. Muayyan hujjatni qidirish, javonlarni teskari aylantirish uchun soatlab vaqt sarflashni unuting. LMS ta'limi bilan tizimni ochish va qidirish uchun hujjat sarlavhasini yozish kifoya.

2. Ota -onalarning farzandlarining o‘qishidagi to‘liq ma’lumotlarini ko‘rsatishni so‘ragan vaqtlarini unuting. Ta’lim uchun LMS yordamida siz ish stulidan chiqmasdan ota-onalar bilan kerakli ma’lumotlarni almashishingiz mumkin bo‘ladi.

3. Hisobotlarni bir bo‘limdan boshqasiga o‘tkazish zarurligini unuting. Maktablar uchun eng yaxshi LMS-da, kerakli bo‘limdagi ma’lumotlarni yangilash kifoya va boshqa xodimlar bu yangilanishni real vaqtda ko‘rishiadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, LMS funksiyasining imkoniyatlari yuqorida to‘liq aytib o‘tilmagan. Aloqa yoki moliya menejmenti, hisobot yoki maktab faoliyatini boshqarish, resurslar yoki maktabni onlayn ko‘rib chiqish - LMSning ta’limdagisi afzalliklari ro‘yxati cheksizdir. Shunday qilib, sizning asosiy vazifangiz - sizning eng puxta rejalariningizni amalga oshiradigan dasturiy ta’midotni ishlab chiqish bo‘yicha munosib guruhni topish. Maktablar uchun LMS turlari:

Maktablar uchun har xil turdagiligi platformalar mavjud. Ba’zilar tashrif yoki resurslarni boshqarishni taklif qiladilar, boshqalari esa moliyaviy hisobot va ilmiy boshqaruvga asoslangan.



#### O‘qituvchilar va xodimlar uchun LMS

O‘qituvchilar va maktab xodimlari uchun dasturiy ta’midot ularga maktab bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni bir joyda boshqarishga imkon beradi. Kasallik varaqalarini so‘rash, o‘quv dasturiga o‘zgartirish kiritish, darslarni o‘zgartirish, o‘quvchilar yozuvlarini boshqarish - bularning har birini maktabda o‘qishni boshqarish tizimi yordamida bajaring. Kuchli dasturiy ta’midot yordamida o‘qituvchilar vaqt va kuchini tejaydi va ularni o‘z ishining yanada ijodiy va yoqimli qismiga, ya’ni kelajak avlodni tarbiyalashga sarflaydi.

#### Talabalar uchun LMS

Maktab dasturlarining yana bir turi - bu o‘quvchilar uchun interaktiv ta’limni boshqarish tizimi. Agar sizning o‘quvchilarining akademik ko‘rsatkichlarini kuzatib borish qiyin bo‘lsa, o‘quv jarayoniga maktab uchun yangi kuchli boshqaruv tizimini joriy eting. Undan foydalanib, sizning yosh o‘quvchilarining o‘qish qanday davom etayotganini yaxshiroq tushunadilar. Ular darsni rejalashtirishga osonlik bilan kirishadilar, dars davomida qanday ball to‘plaganlarini bilib olishadi va agar savollar tug‘ilsa o‘qituvchilar bilan muloqot qilishadi.

#### Ota-onalar va manfaatdor tomonlar uchun LMS

Ushbu turdagiligi dasturiy ta’midot ota-onalarga o‘qish jarayonida faol ishtiroy etishiga imkon beradi. Boshlang‘ich maktab dasturiy ta’midotini yaratish, siz ularga maktab o‘quvchilarining ilmiy yutuqlarini tahlil qilish va bolalarini yaxshiroq ishlashga rag‘batlanirish usullarini topish imkoniyatini berasiz. Ular jarayonni ko‘proq nazorat qiladilar va sizning maktabning o‘z farzandlariga yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar.

Shu bilan birga, dasturiy ta’midotni boshqarish manfaatdor tomonlar uchun foydali bo‘ladi. Faraz qilaylik, sizning investorlaringiz sizning islohotlaringiz sizning maktabning uchun qanday ishlashini ko‘rsatishningizni so‘raydi. Samaradorlikni ko‘rsatishning eng yaxshi usuli - ularga ijobjiy statistikani berish. Ammo uni qanday yig‘ish kerak? Ta’limni boshqarish yechimidagi ma’lumotlarni ishlating va boshqaring va ularni manfaatdor tomonlaringiz bilan baham ko‘ring.

#### LMS haqida ba’zi savollarga javoblar.

##### 1. Ta’lim standartlariga muvofiq dasturiy ta’midotni qanday yaratish kerak?

O‘rta ta’lim maktablariga davlat ta’lim standartlariga amal qiladi. Agar maktab LMS-ta’limni boshqarish tizimini raqamlı ko‘rinishga o‘tkazishni rejalashtirsa, jamoa bu standartlarni chuqur bilishi kerak. Aks holda, xavf butun tizimning to‘g‘ri ishlamasligiga olib keladi. Maktab xodimlari tizimdagisi ichki jarayonlarni boshqara olmaydi. Yagona boshqaruv dasturini yaratish g‘oyasi behuda bo‘ladi. Buning uchun maktabning strategiyasi va ehtiyojlarini chuqur o‘rganib chiqish kerak va buni LMSda qo‘llash kerak.

##### 2. Maktabim maxfiy ma’lumotlarini qanday himoya qilish kerak?

Ma'lumotlaringiz o'g'irlanadi yoki yo'qoladi. Albatta, maktablar odatda kompyuterlarida katta ma'lumotlar bazalarini saqlaydi. Bu ma'lumotlar bazalari o'quvchilar, o'qituvchilar va boshqa maktab vakillarining shaxsiy ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Ular moliyaviy ma'lumotlar va boshqa ma'muriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, aksariyat maktablarning o'z ilmiy manbalari bor, ularni maktab kutubxonasidan boshqa hech qanday joyda topib bo'lmaydi va ularga bepul kirish mumkin emas. Shuning uchun ham ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash LMS ishlab chiqaruvchilarning birinchi vazifalaridan biridir. Ishlab chiquvchilar muntazam ravishda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy xavfsizlik bo'yicha treninglar tarmoqqa kirishni imkonsiz qiladi. Onlayn maktab tizimi ma'lumotlaringiz xavfsizligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin.

#### 3. Mening LMSni qanday qilib integratsion qilishim mumkin?

Ma'lumotlarni bir ma'lumotlar bazasidan ikkinchisiga o'tkazish ko'p vaqtini oladi. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi yozma yozuv yozishi kerak. Keyin ular uni shaxsiy ma'lumotlar bazasiga o'tkazishlari kerak. Shundagina boshqa o'qituvchilar o'sha ma'lumotlar bazasiga kirishlari va ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Ammo kimdir xato qilsa nima bo'ladi? Bunday hollarda, biz bu qadamlarning barchasini yana boshdan boshlashimiz kerakmi? Yoq, buning LMSda imkoniyati mavjud, ya'ni har bir qilingan oxirgi o'zgarishdan so'ng ma'lumotlarni rezerv xotiraga olib qoyish imkonii bor. Ma'lumotlar ma'lum sabablarga ko'ra o'chirilib yuborilgan taqdirda olib qoyilgan rezerv ma'lumotlar qayta tiklanadi.

#### 4. O'qituvchilar va o'quvchilarni LMSga o'tishga qanday rag'batlantirish mumkin?

Sizning dasturiy ta'miningiz yoshlari uchun juda zerikarli va qariyalar uchun juda murakkab bo'lib ko'rindi. Maktablar uchun dasturiy ta'minot maqsadli auditoriyasi tufayli ulardan foydalanish oson bo'lishi kerak. Bir tomonidan, bu hatto eng keksa foydalanuvchilar uchun ham tushunarli bo'lishi kerak. Boshqa tomonidan, bu kichkintoylar uchun yetarlicha qiziqarli bo'lishi kerak. Avval matabingiz va sizning foydalanuvchilaringizning talablarini chuqur o'rganiladi. LMS qulay interfeysi va keng funksionalligiga ega bo'lish uchun maksimal imkoniyatlarga ega.

Dunyodagi pandemiya vaziyati tufayli raqamli ta'lim bozori kundan-kunga o'sib boryapti. Maktablar uchun masofadan o'qitish odatiy holga aylanmoqda, shuning uchun ta'lim LMSlari ham. Agar siz ta'lim sifatini pasaytirishni va yuqori ilmiy natijalarni ko'rsatishni xohlamasangiz, samarali LMS platformalarini qidiring. Yoki sizga eng yaxshi strategiyani tanlash va elektron ta'limning eng yaxshi maxsus yechimini yaratishga yordam beradigan ishlab chiqish guruhini yollang.

## **Adabiyotlar**

1. E-learning: concepts, trends, applications. Corporation Trust Center by Epignosis LLC 2013.
2. The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Siân Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy, 2013.
3. Evaluation of Evidence - Based Practices in Online Learning: A MetaAnalysis and Review of Online Learning Studies. U.S. Department of Education Office of Planning, Evaluation, and Policy Development Policy and Program Studies Service, 2010.

**Махсума ИСМОИЛОВА**

Старший преподаватель кафедры  
прикладной математики и технологии  
программирования  
Бухарский государственный университет

**Лобар КАРИМОВА**

Преподаватель кафедра биологии, факультет  
агрономии и иотехнологии  
Бухарский государственный университет

**ХАРАКТЕРИСТИКИ КИБЕРНЕТИЧЕСКОЙ РЕВОЛЮЦИИ В РАЗВИТИИ И ПРИМЕНЕНИИ БИОТЕХНОЛОГИЙ**

*Биотехнологии сегодня используются очень широко: в сельском хозяйстве, различных отраслях промышленности, например пищевой, при создании препаратов и продуктов для бытового использования, лекарственных и других медицинских средств, в исследовании человеческого генома и процесса репродукции, в защите окружающей среды от загрязнения и т.д. В данной статье речь идёт о характеристиках кибернетической революции в развитии и применении биотехнологий.*

**Ключевые слова:** кибернетическая революция, биотехнологическое производство, научно-информационная фаза, биоудобрение, биосубстрат.

*Biotexnologiya bugungi kunda quyidagi sohalarda keng qo'llaniladi: qishloq xo'jaligida, oziq-ovqat kabi turli sanoat tarmoqlarida, maishiy maqsadlarda foydalanish uchun dori vositalari va mahsulotlar, dori vositalari va boshqa tibbiy asboblarni yaratishda, inson genomini va ko'payish jarayonini o'rGANISHDA, atrof-muhitni himoya qilishda, ifloslanish va boshqalar. Ushbu maqolada biotexnologiyani ishlab chiqish va qo'llashda kibernetik inqilobning xususiyatlari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** kibernetik inqilob, biotexnologik ishlab chiqarish, ilmiy va axborot bosqichi, bioo'g'it, biosubstrat.

*Biotechnology is widely used today: in agriculture, various industries, such as food, in the creation of drugs and products for household use, medicines and other medical devices, in the study of the human genome and the reproduction process, in protecting the environment from pollution, etc. This article deals with the characteristics of the cybernetic revolution in the development and application of biotechnology.*

**Key words:** cybernetic revolution, biotechnological production, scientific and informational phase, biofertilizer, biosubstrate.

1930–1940-е гг. ознаменовались предпосылками для перехода к кибернетической революции. В это время начинается промышленное производство некоторых витаминов, например витамина С. Зарождается производство препаратов, полученных биотехнологическими методами. Первым массовым биотехнологическим производством считается получение пенициллина, которое было запущено в 1943 г. Мировая война выявила острую необходимость в налаживании массового производства дешевых лекарств, пищевых продуктов и витаминов.

1950-е гг. являются началом кибернетической революции (ее научно-информационной фазы), когда получает системное выражение целый ряд тенденций, которые являлись несистемными по отношению к предшествующему принципу производства. В этот период биотехнология окончательно становится промышленным сектором, быстро растущим и оказывающим влияние на всю экономику. Продукты биотехнологии применялись очень широко. В первые десятилетия после Второй мировой войны было организовано крупно масштабное производство аминокислот, кормового белка одноклеточных (из нефти и отходов целлюлозно-бумажной промышленности), освоено культивирование клеток животных и растений. Уже с конца 1940-х гг. началась организация массового производства антибиотиков. Они нашли широкое применение не только в медицине, но и в сельском хозяйстве для лечения животных и растений, в качестве биодобавок в корма. С помощью мутаций были созданы высокоеффективные формы антибиотиков. Клетки микроорганизмов стали широко использоваться для получения лекарственных веществ стероидной природы, были организованы крупные производства вакцин. Производство лекарственных препаратов стало успешным, а также очень прибыльным направлением, поэтому в данную отрасль устремились капиталы и научные силы. Количество медикаментов, полученных биотехнологическим методом, начало неуклонно расти. Биотехнология стала мощным подспорьем сельскому хозяйству, с помощью ее методов стали производить многие органические соединения, корма, добавки, витамины, аминокислоты, гормоны, осуществлять защиту от вредителей. С ее помощью также получают биоудобрения, органические кислоты, альтернативные источники энергии, утилизируют биологические отходы. Промышленное биотехнологическое производство стало возможным еще и за счет высокой степени автоматизации

процессов. Автоматизация - одна из ключевых характеристик кибернетической революции в ее начальной фазе.

**Kirish.** Ta’lim maskanlarida kuzatganlarimdan kelib chiqib, qaysi ta’lim maskanini olmaylik, biz o‘qishni boshlaganimizdan toki bitirgunimizga qadar bir xil ko‘rgazmalar, partalar, stullar, xonalar barcha-barchasi o‘zgarishsiz bir xilligicha qolaveradi. Endi o‘ylab ko‘ring, maktabda 9 yil, kollejda 3 yil, institutda esa 4 yil bir xil parta bir xil sinflardagi ko‘rgazmalar orqali ta’lim olayotgan yoshlarda ta’limga bo‘lgan qiziqish qay darajada bo‘lishi mumkin? Bunga yechim sifatida sindf xonasi devorlarini to‘liq ekranlar va animatsiyalarga aylantirishni va bu orqali har bir dars va fanga yangi olam paydo bo‘lishi mumkin. Har bir dars uchun sindf xonasi devorlari shu mavzuga uyg‘un tarzda o‘zgarib borishi va bu orqali o‘quvchining bor e’tiborini sindf xonasiga qaratish mumkin. Ammo bu yechim ham optimal yo‘l bo‘la olmaydi, sindf devorlaridagi tasvirlar orqali ta’lim oluvchilarni shu muhit va olamga tushub qolgandek taassurot uyg‘otish qiyin va bu katta mablag‘ talab qilib qolmay, o‘quvchilar laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlarni yana an’anavyi tarzda o‘rganishga majbur bo‘lishadi.

**Asosiy qism.** Zamonaviy VR texnologiyalari orqali yuzaga keladigan mavjudlik hissi tufayli ta’lim oluvchilar o‘rganilayotgan muhitda yashab, tajribalar va amaliy mashg‘ulotlarni xavfsiz, chiqindisiz samarali amalga oshirishlari mumkin.

**VR:** (inglizcha virtual reality, VR, sun’iy reallik) - bu texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning sezgilari: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar orqali uzatiladigan dunyo. Virtual haqiqat ham ta’sir qilishni, ham ta’sirga javoblarni simulyatsiya qiladi. Haqiqat tuy’ularining ishonchli kompleksini yaratish uchun real vaqt rejimida virtual haqiqat xususiyatlari va reaksiyalarining kompyuter sintezi amalga oshiriladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi zamonaviy texnologiyalar orqali yaratilayotga turli antimatsion o‘yinlar, Instagram, Telegram, TikTok, YouTube kabi ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida ulg‘ayayotgan yoshlarni an’anavyi bir xil ko‘rinishdagi sindf xonalari, kitoblardagi yozuv va rasmlar orqali yoshlarga ta’lim berilganda tabiiyki bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari tushib boraverishi bilan bir qatorda doimiy bir xil ramkada ta’lim berilgan bolalarda ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyati ham qiyin shakillanadi yoki umuman shakillanmay qolishi mumkin. Hozirda ta’limda quyidagi muammolar ko‘proq uchrab kelmoqda:

~ yoshlarning bilim olish va mavjud davlat ta’lim maskanlarida ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini kamayib borishi;

~ masofaviy ta’limning moodle tizimlarida ta’lim beruvchi va oluvchining real vaqt davomiyligida muloqotining yo‘qligi;

~ ko‘z orqali ko‘rish imkonsiz bo‘lgan abstrakt olam haqidagi bilimlarni egallahdagil qiyinchiliklar;

- ~ an'anaviy ta'lim tizimi va metodlari orqali eng yuqori o'zlashtirish imkonining atigi 60-70%da ekanligi;
- ~ laboratoriya asbob va uskunalaring tannarxi qimmatligi sababli amaliy laboratoriya xarajatlarining kattaligi;
- ~ kimyo, fizika, biologiya kabi fanlar laboratoriya predmetlarining yaroqlilik muddatining tez o'tib qolishi va yaroqsiz holatga oson kelib qolishi.
- ~ laboratoriya predmetlarini, ya'ni turli moddalar, oqsil va boshqa materiallarni sifatli saqlash bilan bog'liq muammolarning mavjudligi va bu katta mablag' va maxsus e'tibor talab qilishi;
- ~ tarix, geografiya, zoologiya kabi fanlarni o'rganishdagi zamon va makon bilan bog'liq muammolar;
- ~ insonlarda balandlik qo'rquvini yengish, fobiya, travmadan keyingi stress buzilishi bilan bog'liq psixologik muammolar;
- ~ harbiy sohada harbiy tajriba va amaliyotlar uchun sarflanadigan katta xarajatlar, qayta takrorlash imkonsiz bo'lgan turli missiyalar va muhitlardagi taktik amaliyotlar.

Zamonaviy VR texnologiyalarini ta'lim tizimiga qo'llash va VR darsliklar, VR laboratoriylar, mavzuga mos 360 media mahsulotlari, 3D modellarni yaratish orqali yuqoridagi muammolarga quyidagicha yechimar topishimiz mumkin:

- ✓ o'quvchilarni virtual olamga shong'itish orqali ta'lim olishga qiziqtirish;
- ✓ AI sun'iy aql tizimini darsliklar va platformalarga qo'llash orqali ta'lim beruvchilarning mavzu va fanni o'rganishdagi yuzaga keladigan taklif va savollariga real vaqt mobaynida javob olish imkonining mavjudligi;
- ✓ AI sun'iy aql tizimini qo'llash orqali o'quvchilarning darsga qanchalik darajada e'tibor qilayotganini nazorat qilish va to'liq e'tiborini mavzuga yo'naltirish imkonining mavjudligi;
- ✓ abstrakt olamni virtual reallik yordamida to'liq ochib berish;
- ✓ o'quvchilarga qiyin tushuniladigan va tasavvur qilish orqali o'rganiladigan fan va mavzularni 90% va undan yuqori natija bilan o'rgatish;
- ✓ laboratoriya asbob-uskuna va materiallari uchun ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirish;
- ✓ ta'lim olishdagi zamon va makon bilan bog'liq muammolarni yo'qotish;
- ✓ laboratoriya asbob-uskuna va predmetlarining virtual modelini yaratish orqali yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin bo'lgan modda va predmetlardan butunlay voz kechish imkonni orqali Ekologiyaga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan chiqindilardan qutilishga erishish mumkin;
- ✓ virtual modelini yaratish orqali laboratoriya moddalari va predmetlarini saqlash uchun maxsus muhit va zarur texnik vositalar uchun ortiqcha harajatlardan qutilish;
- ✓ virtual olam va modullarni yaratish orqali istalgan zamonga va vaqtga sayohat qilib, o'sha vaqtdagi voqeя va hodisalarни qahramonlar bilan yonma yon turgan holda o'rganish imkoniyati;
- ✓ psixologik muammolari bo'lgan insonlarga VR muolajalar, tajribalar yordamida yordam berish va davolash;
- ✓ harbiy sohada navigatsiya, omon qolish va qiyin va murosasiz vaziyatlarda jamoaviy ishslash kabi o'rganish ko'nikmalariga ajoyib realizm yordamida erishish mumkin. Boshqa hech qanday texnologiya bu darajadagi ishtirot yoki tajribani VR bilan bir xil darajada ta'minlay olmaydi.

**AI:** (inglizcha sun'iy intellekt) – bu an'anaviy ravishda insonning vakolati deb hisoblangan ijodiy funksiyalarni bajarish uchun aqlii tizimlarning mulki.

**3D model:** - bu har qanday bir matematik muvofiqlashtirishga asoslangan uch o'lchov orqali ixtisoslashgan dasturiy ta'minot.

**360 media** – bu qamrab oluvchi sharsimon maxsus texnikalar orqali yaratiluvchi audi, video, foto mahsulotlar.

Real ta'lim tizimida guruhdagi har bir ta'lim oluvchi bilan bir vaqtida shug'ullanishning imkoniyati mavjud emas. Ta'lim oluvchilar, e'tibordan chetda qolishsa o'z-o'zidan mavzudan chalg'ishga olib kelishi va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2020-yil butun dunyoda Pandemeya e'lon qilingan bir vaqtida butun sanoat, ijtimoiy soha, ta'lim sohasi to'xtab qoldi. Insonlar masofalashuvga majbur bo'lishdi. Ta'lim tizimida yechim sifatida Moodle tizimlari va zoom platformalar rivojlandi. Ammo Moodle tizimi bilimlarimizni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini cheklab qo'ygan edi. Shuningdek, Moodle tizimida ta'lim olganda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasida muloqotning ma'lum vaqt talab qilishi yoki umuman muloqotning iloji yo'qligi, o'rganish bilan parallel holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy savollarga javobning bo'lmasisligi kabi o'ta muhim muammolar mavjud. Bank tizimi ham butunlay to'xtab qoldi, internet saytlar orqali bank xizmatlari ko'rsatishda turli muammolar paydo bo'la boshladi.

Pandemeya bizga turli ofat va dilxiraliklar bilan bir qatorda yangi imkoniyatlar ham yaratdi. Xususan, video konfrensiyalar, masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasi, marketing sohasi, moodle tizimi rivojlandi. Shu bilan bir qatorda VR-University, VR-School kabi yangi tizimlar ishlab chiqildi. Ta'lif maskanlari darslarni VR-gadgetlar va platforma dasturlar orqali o'ta boshlashdi.

**Muhokamlar va natijalar.** VR-classroom yordamida dars o'tilganda AI sun'iy aql tizimini qo'llash orqali ta'lif oluvchilarning har soniyasini kuzatish, uning bilim berilayotgan doska yoki virtual modelga qanchalik tarzda qarayotganidan va shunga o'xhash tamoyillarni AI sun'iy intellekt yordamida o'rganib, ta'lif oluvchiga aynan o'sha yerdan 360 kontentni moslab doska yoki VR modelni ochib berishimiz mumkin. AI sun'iy aql tizimidan foydalangan holda har bir ta'lif oluvchining mavzu yuzasidan beriladigan savollariga shu real vaqt mobaynida javob berib borilishiga erishish mumkin.

**VR-classroom** – bu zamonaviy VR texnologiyalari bilan jihozlangan va ta'lif oluvchilarning yanada yaxshiroq ta'lif olishi uchun imkon beruvchi sinf xonasi.

VR to'plamini sotib olish orqali har bir oila farzandlari ehtimoliy pandemeya, karantin va tabiiy ofatlarga qaramasdan VR darsliklarni internetdan yuklab olish orqali bemalol uylarida turib fanlardan nazariy bilimlarni olish bilan bir qatorda, olgan bilimlarini uydan chiqmagan holda tajriba qilib ko'rishlari ham mumkin. Bu esa ham ta'lif xarajatlarining qisqarishiga ham ta'limning uzuksiz olib borilishiga juda kata imkon yaratadi. Ta'lif oluvchilar o'zлari tasavvur qilgan va istaydigan muhitlarida ta'lif olish imkonini ham beriladi.

Masalan: Pekinda o'tkazilgan tadqiqotda bir guruh talabalar VRdan foydalanishni o'rgandilar, nazorat guruhi esa an'anaviy o'qitish usullari orqali o'rgandilar. Darhol post-testda VR guruhi o'rtacha 93%, nazorat guruhi o'rtacha 73% ball to'pladi. Ikki haftadan so'ng, nazorat sinovi o'tkazildi va yana VR guruhi nazorat guruhiga qaraganda yaxshiroq ishladi: VR guruhi uchun o'rtacha ball 90%, nazorat guruhi uchun o'rtacha ball 68%. Xuddi shu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quv oldidan test sinovlarida o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan talabalar VR - takomillashtirilgan o'quv dasturidan o'tib, testning eng yaxshi to'purarlaridan ustun bo'lishdi. Butun dunyo vertuallashayotgan bir paytda O'zbekiston uchun ham virtuallashuv imkonini yaratish, ta'lif tizimidagi 90% gacha bo'lgan samaradorlikka erishish imkoniyati. Shuningdek, iqtisodiyotda 2014-yilda Bostonda joylashgan "Fidelity Investments" moliyaviy xizmatlar kompaniyasining investorlar uchun "StockCity" onlayn dasturining yaratilishi, 2017-yildan boshlab Buyuk Britaniya va AQSHda ham harbiy o'quv mashg'ulotlarida VR texnologiyalardan foydalanib kelishayotganligi, dunyoda tashvish fobiya, depressiyani davolash uchun samarali qo'llab kelishayotganliklari, 2018-yildan boshlab VR dan jarrohlik amaliyotlari va protseduralarda foydalanishni boshlanilishi, ta'lif tizimida 2019-yil 7-fevralda UNICEF tashkiloti tomonidan Nigeriyalik o'quvchilar uchun amalga oshirgan "VR Imisi 3D" loyihasini amalga oshirilishi, Gucci, NIKE kabi nufuzli kompanyalar o'zlarining virtual krassovkalarini 7\$ dan boshlab 500\$ gacha sota boshlaganlari - butun dunyo vertuallashayotganining yorqin misollaridir.

Dunyoning yetakchi ta'lif maskanlari hozirda VR laboratoriya va sinf platformalarini yaratish orqali ta'limning yanada samarali usuliga o'tishmoqda. Masalan:

- Janubiy Kaliforniya universitetining aqlbovar qilmas eksperimental VR laboratoriysi harbiy tayyorgarlik simulyatsiyasini yaratish uchun yangi ko'ngilochar vositalari va virtual haqiqat minigarnituralar, giper-realistik raqamli odamlar bilan ishlashi bilan mashhur;
- Doña Ana jamoatchilik kolleji (Nyu-Meksiko shtati): Virgin Galactic/Challenger Center Outreach loyihasi virtual aerokosmik simulyatsiya tajribasini taqdim etadi va VRda kosmik parvoz asoslarining asosiy tushunchalarini tushuntiradi;
- Bahcesehir universiteti (Turkiya): VitiVR uzumchilik ta'lumi tajribasi qishloq xo'jaligi, vinochilik, uzumchilik fakultetlari va vinochilik uchun uzumchilik amaliyotini o'rgatadi;
- Oklaxoma shtati universiteti: AR-ga asoslangan mobil ilovalar loyihasi - bu jismoniy nuqsoni bo'lgan va insult tufayli xotirani yengil yo'qotadigan shaxslar uchun haqiqatga asoslangan obyektlarning joylashuvi va ma'lumotlarining kengaytirilgan tizimi;
- Kajaani amaliy fanlar universiteti (Finlyandiya): VirtualAutoedU - bu avtomobil mexanikasini o'rganish uchun o'yinlashtirilgan VR muhiti;
- Kanterberi universiteti (Yangi Zelandiya): O'rgimchak terapiyasi fobiysi AR -dan foydalanib, odamlarga araxnid qo'rquvi bilan xavfsiz va virtual tarzda kurashishga yordam beradigan virtual o'rgimchak yaratdi.

VR darslik va platformalarni yaratish uchun zarur bo'lgan texnik va dasturiy vositalarni sotib olib VR-soft laboratory tashkil etish lozim. Zaruriy texnik va dasturiy taminotga ega bo'lganimizdan so'ng daturchi, pedagoglar, metodistlar, marketolog va grafik dizaynerlar 360 video mantajchi va 360 video operatorlardan iborat guruhni shakllantirish lozim. Guruh bilan birgalikda talabni o'rganish orqali Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda zaruriy fan yoki mavzu tanlanadi va shu tanlangan mavzu

yoki fanlar asnosida amalga oshirish rejasi tuziladi. Amalga oshirish rejasi tuzilganidan so'ng bosqichma-bosqich reja asosida ish olib boriladi.

Respublikaning barcha oliy va o'rta maxsus ta'lif maskanlarida, xususiy va davlat maktablarda VR sinf xonalarini yaratib dars jarayonlarini tashkil etish va har bir ta'lif maskani o'ziga kerak bo'ladigan VR dars mavzulari yoki laboratoriya mashg'ulotlarini o'zlari mustaqil yarata olish imkoniyatini yaratish lozim. Shunda oliy va o'rta maxsus ta'lifdagi ta'lif oluvchi va professor o'qtuvchilar o'zlarining ilmiy ishlammalarini taqdimot qilish va ular ustida turli yangilanish, o'zgartirishlar olib borishda zamonaviy va juda qulay samarali VR texnologiyasidan foydalanishlari mumkin. VR texnologiyalarini ta'lif tizimiga olib kirish texnologiya haqida chuqur bilim va ko'nikmalarini yaratadi, bu esa Virtual Reallikni turli ijtimoiy iqtisodiy va tijoriy maqsadlarda ham qo'lashga yo'l ochadi, rivojlanishiga sabab bo'ladi. Barcha fanlar va laboratoriya xonalarini o'zida jamlagan 15 kishi bir vaqtning o'zida ta'lif olishi mumkin bo'lgan VR sinf xonasini 152 053 720 so'mga yaratish mumkin.

VR-classroomlarni ochish orqali ta'lif oluvchilarning fanni o'zlashtirish imkoniyatlari 75%dan 90%gacha oshirish mumkin, laboratoriya va amalyotlar uchun ketadigan sarf xarajatlarni 50- 60%gacha qisqaartirish mumkin. Laboratoriya va turli amaliy mashg'ulotlardan so'ng hosil bo'ladigan chiqindilar ekologiya uchun bir kata muammo bo'lib sanaladi, VR texnologiyasi orqali bu tajriba va laboratoriya mashg'ulotlarini amalga oshirsak, tabiatga hech qanday ortiqcha chiqindilar chiqmaydi. Shuningdek harbir loyihaning iqtisodiy yutuqlari ham inobatga olinadi, Dunyo bozorida VR dasturlar va platformalar narxlari:

Agar biz VR darsliklar va modullarni o'zimiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysak: 6 oyda 10 darslik chiqara olsak, o'rtacha 2500\$ dan hisoblaganda loyiha 6 oyda 25000\$ mablag' keltiradi.

VR darslik va platformalarni yaratish imkonini beruvchi 10 kishidan iborat darslik yaratuvchilari proffisional ishlashi mumkin bo'lgan laboratoriya uchun esa 289 496 223 so'm sarflanadi (asbob uskuna va jihozlar uchun narxlar NDSsiz ko'rsatilgan).

VR classroomlar ochish samaradorligi quyidagilar orqali baholanadi: VR darsliklar, VR laboratoriyalarga bo'lgan talablarni tahlil qilish. Ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchilardan so'rovnomalari olish va tahlil qilish. VR classroom orqali ta'lif oluvchilarning fan va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash uchun so'rovnomalari o'tkazish, bilimini aniqlash uchun test sinovlari va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda VR darsliklarga ehtiyoj yuqori bo'lgan fanlar va mavzularning birinchi to'plami saralanadi. Zaruriy texnik va dasturiy vositalarni o'zida jamlagan VR-soft laboratoryni tashkil etishimiz, Dasturchi, marketolog, metodist, pedagog, 3D grafik dizayner, 360 video mantajchi va 360 video operatorlardan iborat professional jamoani shakllantirishimiz. Internetda mavjud darslar va laboratoriya modullarini bazasini to'plash va mahalliylashtirish yoki foydalanish yechimlarini ta'lif beruvchilarga o'rgatib borish. Talabdan kelib chiqgan holda tasavvur qilish orqali o'rganiladigan yoki tushunilishi qiyin bo'lgan abstrakt olam bilan bog'liq bo'lgan o'ta muhim mavzu va darslarni VR modelini yaratishimiz. Tayyorlagan VR darslarimizni ta'lif beruvchilarga foydalanish ko'nikma va texnika qoidalarini o'rgatib, VR sinf xonalarini yaratish orqali VR darslarni o'rgatib borishimiz, ta'lif maskanlari bilan aloqada bo'lgan holda ehtimoliy hollarni bartaraf etishda yordam berib borishimiz lozim.

**Xulosa.** Zamonaviy VR texnologiyalari ta'lif oluvchilarga inson tanasining mikrokosmosidan tortib, quyosh tizimining uzoq qirralariga qadar hamma narsani 3D formatida o'rganishga yordam beradi. Yuqori samarali protsessorlar realizmni virtual voqelikka qo'yib, ajoyib animatsiya, fizika, fazoviy audio va boshqalar orqali tajribalarni jonlantiradi. An'anaviy ta'lif tizimi va metodlari orqali eng yuqori o'zlashtirish imkonining atigi 50-60% da, VR texnologiyalari orqali o'tilgan darslarning o'zlashtirish imkonini esa 87-90% ni tashkil qiladi. VR texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan laboratoriya mashg'ulotlari esa inson hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz, ekologik jihatdan chiqindisiz, nisbatan arzon va bajarish oson bo'lib hisoblanadi. Ta'lif maskanlari uchun eng yaxshi VR tizimlari sinfni kerakli o'quv muhitiga aylantira oladi. VR qurilmalar virtual dunyoni yaratgani uchun siz vaqt o'tishi bilan, masalan, qadimgi Misr va Temuriylar davriga ham sayohat qilishinggiz mumkin. Agar VR texnologiyalar ba'zi mifik tabrlar uchun juda qimmat bo'lsa, VR darslarni qog'oz kartondan yasalgan Google Cardboardlar va smartfonlar orqali atiga 5\$ evaziga amalga oshirish mumkin. Bu katta yutuq!

## Adabiyotlar

- Плютто, П. А. Исследование реальности социокультурного виртуального. Опыт анализа социокультурных иллюзий / П.А. Плютто. - М.: "Прогресс-традиция", 2014. - 368 с.
- Бабенко, Валерий Сергеевич Виртуальная реальность. Толковый словарь терминов / Бабенко Валерий Сергеевич. - М.: "Трамвай" (Магадан), 2012. - 675 с.

3. Decreusefond L, Moyal P (2012) Stochastic Modeling and Analysis of Telecom Networks. John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, NJ
4. Cleophas TJ, Zwinderman AH (2010) Linear Regression (20 Patients). In: Zwinderman AH (ed) SPSS for Starters: SPSS for Starters. Springer Netherlands, Dordrecht, pp 15–19
5. Кадубец, Тамара Воспитание школьников в педагогической среде виртуальной реальности / Тамара Кадубец. - М.: "LAP Lambert" Academic Publishing, 2012. - 176 с.
6. Плютто П.А. Исследование реальности социокультурного виртуального. Опыт анализа социокультурных иллюзий / П.А. Плютто. - М.: "Прогресс-традиция", 2014. - 368 с.
7. Менбек Влад Варианты виртуальной реальности / Влад Менбек. - Москва: РГГУ, 2013. - 480 с.
8. Линовес, Джонотан Виртуальная реальность в Unity / Джонотан Линовес. - М.: "ДМК Пресс", 2016. - 316 с.
9. Дистанционного обучения. Журнал "ACADEMY" №10 (61) 2020 год [Электронный ресурс]: URL: <http://academicjournal.ru/home/arkhiv-zhurnala-academy.html>
- 10.J.J. Atamuradov. Principles of construction of effective information systems. "Science and practice: a new level of integration in the modern world" Conference proceedings 11th International Conference. September, 10 - November, 30, 2020.UK, S Yorkshire, Sheffield DOI: [http://doi.org/10.15350/UK\\_6/11.39](http://doi.org/10.15350/UK_6/11.39) [http://scope-science.com/assets/research-article\\_uk\\_6\\_11\\_39.pdf](http://scope-science.com/assets/research-article_uk_6_11_39.pdf)
- 11.Атамурадов Ж.Ж. Анализ проблемы организации и управления дистанционного образования в общеобразовательных учреждениях // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 4(85). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11472>
12. Atamuradov Jamshid Jalilovich. Designing stages of construction and planning of distance learning course // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. april, 2021-vii. issn 2181-9750.  
URL:<http://khorezmscience.uz/web/archive/1621255365.pdf>
- 13.Jalilovich A. J. Masofaviy ta'linda mobil ilovalardan foydalanish // "Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari" xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021. – B. 637-639.
14. Atamuradov J. The main didactic principles of teaching informatics: ЖЖ Атамурадов. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). 2020;1(1).

**INTELEKTUAL TIZIMLARIDAN FOYDALANISH**

**Annotasiya:** Zamonaviy jamiyatda tobora o'sib borayotgan axborot oqimi, axborot texnologiyalarining turli-tumanligi, kompyuterda yechiladigan masalalarning murakkablashuvi ushbu texnologiyalardan foydalanuvchining oldiga bir qator vazifalarni quyadi. Kerakli variantlarni tanlash va qaror qabul qilish ishlarini insondan EHMga o'tkazish masalasi yuzaga keladi. Bu vazifani yechish yo'llardan biri - bu intelektual tizimlarini yaratish va foydalanish sanaladi. Maqolada intelektual tizimlaridan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** Растущий поток информации в современном обществе, многообразие информационных технологий, усложнение решаемых на компьютере задач ставят перед пользователем этих технологий ряд задач. Возникает вопрос выбора необходимых вариантов и передачи работы по принятию решений от человека к ЭВМ. Один из способов решить эту проблему - получить доступ к интеллектуальным системам. В статье представлена информация об использовании интеллектуальных систем.

**Annotation:** The growing flow of information in modern society, the variety of information technologies, the complication of tasks solved on a computer pose a number of tasks for the user of these technologies. The question arises of choosing the necessary options and transferring the decision-making work from a person to a computer. One way to solve this problem is to gain access to intelligent systems. The article provides information on the use of intelligent systems.

**Kalit so'zlar:** intelektual tizim, kasbiy imkoniyat, foydalanuvchi, bilimlar bazasi, ekspertlar.

**Ключевые слова:** интеллектуальная система, профессиональные возможности, пользователь, база знаний, эксперты.

**Keywords:** intelligent system, professional capabilities, user, knowledge base, experts.

Intelektual tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish axborot texnologiyalaridan foydalanishning kontseptual bosqichlaridan biridir. Ba'zi bir predmetli sohaning muammolarini intellektual yechishning asosida tajribali mutaxassis - ekspertlar bilimlarining qayta tiklash tamoyili etibdi. Intelektual shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda vaziyatni tahlil qiladi va eng foydali axborotlarni bilib oladi, qarorlar qabul qilishni muvofiqlashtiradi, boshi berk yo'llarni yopib qo'yadi [1].

«Intellekt» so'zi lotincha «intellectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki faxmlash (aql) ma'nosini beradi.

«Intellekt» so'zini aniqlovchi, psixologlar tuzgan uchta tushunchani (Katta sovet entsiklopediyasi va Vesterning amerika luratidan olingan) keltiramiz. Bu tushunchalar «intellekt» tushunchasi mazmunini aniqlash uchun yordam beradi.

Intellekt —fikrlash qobiliyati, ratsional bilish va shunga o'hshash. Umumiylarda esa fikrlash, shaxsni aqliy rivojlanishi sinonimi bo'lib xizmat qiladi.

Intellekt (aql) — o'z xulqini sozlash yo'li bilan xar qanday (ayniqsa yangi) xolatga etarli baxo berish qobiliyati.

Intellekt —turmushdagi dalillar o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni tushunish qobiliyati. Bu qobiliyat belgilangan maqsadga erishishga olib boruvchi xarakatlarni ishlab chiqish uchun kerak bo'ladi.

«Sun'iy intellekt» tushunchasiga turlicha ma'no kiritish mumkin. Turli mantiq va xisoblash masalalarini yechuvchi EXMdagi intellektni e'tirof etishdan tortib, to insonlar yoki ularning ko'pchilik qismi orqali yechiladigan masalalar majmuasini yechadigan intellektual sistemalarga olib boradigan tushunchagacha kiritish mumkin.

Intelektual tizimi - bu ba'zi bir predmetli sohadagi murakkab vazifalarni yechish uchun bilimlarni tashkil qilish, jamlash va qo'llash usullari va vositalarini majmuasidir. Intelektual tizimi - bu bilimlarga asoslangan usul, unda predmetli bilimlar yaqqol ko'rinishda ko'rib chiqilgan va boshqa bilimlardan ajratilgan.

Intelektual tizimlari bugun bir necha mingdagi har xil dasturiy majmuallarni birlashtiradilar, ularni har xil mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin. Har bir mezon bo'yicha tasnifi ko'rib chiqamiz.

Yechilayotgan vazifa bo'yicha tasnif. Ma'lumotlarning interpretatsiyasi. Bu Intelektual tizimlar uchun an'anaviy vazifalarning biridir. Interpretatsiya ostida ma'lumotlarning ma'nosini aniqlash tushuniladi, uning natijalari kelishilgan va aniq bo'lishi kerak. Odadta ma'lumotlarning ko'p variantli tahlili ko'zda tutiladi.

Diagnostika (tashxis). Diagnostika ostida ba'zi bir tizimdagi nosozlikni topish tushuniladi. Buzuqlik - bu me'yordan chetga chiqishdir. Bunday talqin ham uskunalar va texnik vositalarning nosozligi va ham tirik organizmlarning kasalliklari va ehtimol bo'lgan tabiiy anomaliyalarni yagona nazariyu nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi. Diagnostikanayotgan tizimning vazifaviy tuzilishi (anatomiyasi)ni tushunish zaruriyati muhim o'ziga xoslik bo'ladi. Monitoring. Monitoringning asosiy vazifasi vaqtning haqiqiy qo'llashida ma'lumotlarni uzlusiz interpretatsiyalangan va u yoki bu o'lchamlarni yo'l qo'yiladigan chegaradan tashqariga chiqishi haqida xabar berishdir. Asosiy muammolar tashvishli vaziyatni "o'tkazib yuborish" va "yolg'ondan" ishlab ketishning inversli vazifasidir. Bu muammolarni murakkabligi tashvishli vaziyatlar alomatlar (simptom)larini emirilib ketishi va vaqt kontekstini hisobga olishning zaruriyatidan iborat. Loyihalashtirish. Loyihalashtirish oldindan belgilangan xususiyatlarga ega "ob'ektlar"ni tayyorlashga ixtisoslikni tayyorlashdan iboratdir. Ixtisoslik ostida zaruriy hujjatlar-rasm, izohli yozuv va x.k.ning butun majmuasi tushuniladi. Bu yerda asosiy muammolar - ob'ekt "haqidagi" bilimlarning aniq tarkibiy bayonni olish va "iz"ning muammosidir. Samarali loyihalashtirish va yanada ko'proq darajada qayta loyihalashtirishni tashkil qilish uchun nafaqat loyiha qarorlarini o'zini balki ularni qabul qilish sabablarini shakllantirish zarur. Shunday qilib loyihalashtirish vazifalarida tegishli ET doirasida bajariladigan ikkita asosiy jarayonlar: xulosalarни chiqarish jarayoni va izohlash jarayoni yaqindan bog'lanadi. Bashoratlash. Loyihalashtirilayotgan tizimlar berilgan vaziyatlardan ehtimol bo'lgan oqibatlarni mantiqan keltirib chiqaradi. Loyihalashtirilayotgan tizimda odatda parametrik dinamik modeldan foydalaniladi, unda parametrlerning ma'nosini berilgan vaziyat ostiga to'g'rlanadi. Ushbu modeldan chiqarilayotgan natijalar ehtimollik baholarga ega bashoratlar uchun asosni tashkil qiladi. Rejalashtirish. Rejalashtirish ostida ba'zi bir vazifalarni bajarishga qodir ob'ektlarga tegishli harakatlar rejalarini topish tushuniladi. Bunday ETda rejalashtirilayotgan faoliyat natijalarini mantiqiy chiqarish uchun haqiqiy ob'ektlar xulqi modelidan foydalaniлади. O'qitish. O'qitish tizimi qandaydir fanni EHM yordamida o'rganishda xatolarni diagnostikalaydi va to'g'ri qarorlarni ayтиб beradi. U gipotetik "o'quvchi" va uning o'ziga xos xatolari haqidagi bilimlarni jamlaydi, keyin ishlashda o'qiyotganlar bilimlaridagi kuchsiz joylarni diagnostikalash va ularni bartaraf qilish uchun tegishli vositalarni topishga qodir. Bundan tashqari ular bilimlarni uzatish maqsadida o'quvchining muvaffaqiyatlariga ko'ra o'quvchi bilan muloqot qilish hujjatini rejalashtiradilar. Umumiy holda, bilimlarga asoslangan barcha tizimlarni tahlil vazifasini yechuvchi tizimlar va sintez vazifasini yechuvchi tizimlarga bo'lish mumkin. Tahlil vazifalarining sintez vazifalaridan asosiy farqlari quyidagilardan iborat: agar tahlil vazifalarida ko'pchilik yechimlarni sanash va tizimga kiritish mumkin bo'lsa, unda sintez vazifalarida yechimlarning ko'pchiligi potentsial tarkibiy qismlarining yechimlaridan yoki muammo ostida quriladi [2].

Haqiqiy vaqt bilan aloqa bo'yicha tasnif. Statistik ET predmetli sohalarda ishlab chiqiladi, unda bilimlar bazasi va interpretatsiyalananayotgan ma'lumotlar vaqtida o'zgarmaydilar. Ular barqarordir. Kvazidinamik ET vaqtning ba'zi bir qayd etilgan oralig'ida o'zgaradigan vaziyatlarni interpretatsiyalaydi. Dinamik ET kelib tushayotgan ma'lumotlarni uzlusiz interpretatsiyasiga ega haqiqiy vaqt rejimidagi ob'ektlar datchiklar bilan birgalikda ishlaydi. EHMning turi bo'yicha tasnif. Bugungi kunda quyidagilar mavjud: Super EHM (Elbrus, CRAY, CONVEX va boshqalara)dagi noyob strategik muhim vazifalar uchun ET. O'rta unumdorlik (EC, EHM mainframe turi)dagi EHMdagи ET. Alomatli protsessorlar va ishchi stantsiyalar (SUN, APOLLO) dagi ET. Mini va supermini EHM (VAX, misro - VAX va boshqalar)dagi ET. Shaxsiy kompyuterlar (IBMPC, MACII va Shunga o'xshashlar)dagi ET. Boshqa dasturlar bilan interpretatsiyalashish darajasi bo'yicha tasnif. Avtonom ET o'ziga xos "ekspert" vazifalari uchun foydalanuvchi bilan maslahat rejimida ishlaydi, ularning ba'zi birlarni yechish uchun ma'lumotlarni ishlab chiqishning an'anaviy usullar (hisoblashlar, modellashdirish) talab qilinmaydi. Gibriddi ET agregatsiyalovchi standart amaliy dasturlar paketlari (masalan, matematik, statistik, to'g'ri chiziqli dasturlash yoki ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari) va bilimlar bilan manipulyatsiya qilish vositalarining dasturiy majmuasida iboratdir.

Intelektual tizimi mutaxassislar guruhining yuqori malakali tajribasiga suyangan holda qarorlarni tanlab olishda ko'p sonli muqobillarning oshiqchaliqi hisobiga yuqoriroq samaradorlikka erishadi, yangi omillarning katta hajmining ta'sirini strategiyalarni qurishda ularni baholab, bashorat imkoniyatlarini qo'shib tahlil qiladi. Intelektual tizimining asosi qarorlar qabul qilish jarayonini shakllantirish maqsadlarida tarkiblashtirilgan bilimlar (bilimlar bazasi)ning majmuasidan iborat.

Intelektual tizimlari o'qitishni hisobga olish bilan ishlab chiqiladi va qarorlarni tanlash mantiqini asoslashga qodirlar, ya'ni moslashuvchanlik va uni dalillar bilan isbotlash xususiyatlariga egadir. Ko'pgina Intelektual tizimlarida izohlash mexanizmi mavjud. Bu mexanizm tizim qanday qilib ushbu qarorga kelganligini izohlash uchun zarur bilimlardan foydalaniladi. Intelektual tizimini qo'llash sohasini, undan foydalanish va harakat qilish chegaralarini aniqlash juda muhimdir. Tajribali mutaxassislardan foydalanishga nisbatan intelektual tizimining afzalligi quyidagilardan iborat: erishilgan omilkorlik yo'qotilmaydi, hujjatlantirilishi, uzatilishi, qayta tiklanishi va ko'paytirilishi mumkin.

Intelektual tizimlarining zamonaviy holati uchun xos bo'lgan kamchiligi yangi qoidalar va kontseptsiyalarga o'qitishga, ijodiyot va kashf qilishlarga kamroq moslashuvchanligidan iboratdir. Intelektual tizimlaridan foydalanish ko'pgina hollarda yuqori malakali mutaxassislardan voz kechishga imkon beradi, ammo tizimda pastroq malakali ekspertga joy qoldirishni ko'zda tutadi. Intelektual tizimlari yakuniy foydalanuvchining kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish va kuchaytirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Intelektual tizimi omilkorlikni namoyish qilishi, ya'ni aniq predmetli sohada mutaxassis-ekspertlar darajasiga erishishi kerak. Yaxshi qarorlarni topish etarli emas, buni tez qilish kerak. Tizimlar predmetni nafaqat chuqur, balki yetarlicha keng tushunishi kerak. Muammolar yechimlarini topish usullariga noaniq ma'lumotlar yoki qoidalarning to'liq bo'limgan majmualari hollaridan fundamental tamoyillardan kelib chiquvchi mulohazalar asosida erishiladi. Bunday xususiyatlar kompyuterli intelektual tizimlarida kamroq ishlab chiqilgan, ammo xuddi ular yuqoriroq darajadagi mutaxassislarga xosdir. Quyidagilar Intelektual tizimlarining oddiy kompyuter tizimlaridan farqlari bo'ladi. Intelektual tizimlari bilimlar bilan, qolgan har qanday tizimlar ma'lumotlar bilan manipulyatsiya qiladilar. Intelektual tizimlari qoidaga ko'ra, samarali muvofiq qarorlarni beradi va ba'zida xato qilishga qodirlar, ammo an'anaviy kompyuter tizimlaridan farqliroq ular o'zlarini xatolaridan o'qishning salohiyatlari qobiliyatlariga egalar. Intelektual tizimlari foydalanuvchilar ishidagi instrument sifatida amaliy ishni borishida qiyin, ajoyib vazifalarni yechuvchi o'z imkoniyatlarini takomillashtiradi [3].

Intelektual tizimlarini qo'llash sohalari: Harbiy ish, meteorologiya, geologiya sanoat, muxandislik ishi, qishloq xo'jaligi, informatika, jarayonlarni boshqarish, kompyuter tizimlari, fizika, kosmik texnika, kimyo, matematika, elektronika, tibbiyat, huquqshunoslik.

Intelektual tizimlari o'z imkoniyatlarini chegaralarini bilib olishda va ularni qo'llanish chegaralari yaqinida ishonchsiz faoliyat yuritadi. Sun'iy intellekt sohasidagi bundan keyingi taraqqiyot vaqt o'tishi bilan o'z imkoniyatlarining chegaralarini aniqlash usullarini taklif qiladi.

Bilimlar bazasini to'ldirish uchun katta mehnat sarflanishi intelektual tizimining boshqa kamchiligi bo'ladi. Ekspertlardan bilimlarni olish va ularni bilimlar bazasiga kiritish va mablag'larni ancha sarflanishi bilan bog'liq murakkab jarayondan iborat bo'ladi. Intelektual tizimlarini loyihalashtirish ham belgilangan qiyinchiliklar va cheklanishlarga ega, bu ularni ishlab chiqishga ta'sir qiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, intelektual tizimlari asosan universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari va kosmik tashkilotlarda ishlab chiqiladi, shu jumladan moliya sanoati uchun ham moliyaviy xizmat ko'rsatish sohasida bu tizimlar sug'urta kompaniyalariga tijorat xavf-xatarini tahlil qilish va baholash tashkilotlarga kredit ajratishda qarz miqdorini belgilash, loyihamalar smetasini tuzishda yordam beradilar. Intelektual tizimlarini qo'llash sohasi kengaymoqda. Faoliyatning har xil sohalarini qamrab olishdan tashqari, bilimlarni zamonaviylashtirish intelektual tizimlarini ishlab chiqishning eng muhim oqibatlaridan biri bo'ladi. Ishlab chiquvchilar bilimlarning katta murakkab bazalarini ko'rganlari sari kompyuter tizimiga bog'liq bo'limgan bilimlar bozori paydo bo'lmoqda. Belgilangan amaliy sohani o'rganuvchilar uchun o'qitish vositalari paydo bo'lmoqda. Metabilimlar, ya'ni predmetli bilimlardan foydalanishning muvofiq strategiyalari va tadbirdari haqidagi bilimlar, tijorat mahsuloti bo'ladi. Intelektual tizimlarini intellektga rivojlanishi uskunalar, ularni yaratish vositalari (tillari) va Intelektual tizimlarining o'zlarining kontseptsiyalarini birlashishidan iboratdir. Intelektual tizimlarni birlashishi ayniqsa murakkab infratuzilmalarda samaralidir. Intellektual tizimlar xorijda faqat tijorat foydalanishi uchun ishlab chiqilmoqda va joriy qilinmokda.

Intelektual tizimining intellektual omilkorligi odamni to'liqligicha almashtirmaydi. Intelektual odam axborot va bilimlarni qayta tashkil qilishga va ulardan yangi bilimlarni sintez qilish uchun foydalanishga qodir. Ijodiy faoliyat sohasida odamlar eng aqlli tizimlarga nisbatan kattaroq qobiliyatlar va mikoniyatlarga egallar. Ekspertlar hodisalarining kutilmagan o'zgarishlari uddasidan chiqadilar, va yangicha yondashishlardan foydalanib, boshqa predmetli sohalardan o'xshatishlarni o'tkazishga qodirlar. Ekspertlar o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtilar va o'z strategiyalarini muammolar va vazifalarning kengroq diapazoniga yangi holatlariga moslashtiradilar. Intelektual tizimlari yangi kontseptsiyalar va yangi qoidalar darajasidagi o'qitishga kamroq moslashganlar, ular haqiqiy vazifalarning butun murakkabligini hisobga olish kerak bo'lgan holda unchalik samarali emaslar va kamroq yaroqlidirlar.

Intelektual tizimlarining axborot bilan ta'minlanishining vazifasi barcha martabadagi ishbilarmonlarni sifatli axborotlar tizimi bilan o'z vaqtida ta'minlashdir. Axborotlarga ehtiyoj Intelektual tizimini axborotlar bilan ta'minlanishining asosiy sharti bo'ladi. Axborotlarga ehtiyoj korxonalar tomonidan bajarilayotgan ishlarni hisobga olgan, ularning maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqqan xolda aniqlanadi.

Axborotlar xajmi, ularning turlari, ularda qayd qilingan kerakli xujjatlarning miqdori, ko'rsatkichlarni aniqlash axborotlar bilan ta'minlash tizimi tashkilotchilarining birinchi navbatdagi ishi bo'ladi. Korxonalar samarali ishlashi uchun etarli miqdordagi barcha kerakli axborotlar bilan taminlangan bo'lishlari kerak. Axborot to'g'ri, ishonchli va aniq bo'lishi, o'z vaqtida kelib tushishi kerak.

Xar bir korxonada xujjatlarni o'rganish jarayonida doimiy, o'zgaruvchan va xosila axborotlarni, ularni davriyilagini, qaror qabul qilish uchun ishlatalishini aniqlash kerak. Xujjatlarni biznesning bajarilayotgan u yoki bu xizmatlariga tegishli ekanligini aniqlash uchun xujjatlarni yo'nalishlari: texnik, rejaviy, moliyaviy, me'yoriy, dasturiy va x.k. buyicha guruhlarga ajratish o'tkaziladi.

Xujjatlarni bunday turkumlash xujjatlar xarakatining umumiyligini qonuniyatini aniqlashga, xujjatlarni tuzilishi, ma'lumotlarni qayta ishlashning ketma-ketligini va xodimlarni ish bilan band qilish darajasini, xamma hisoblash texnikasini belgilashga imkon beradi.

Shunday turkumlashga muvofiq xujjatlar aylanuvining mavjud tasvirining taxlili o'tkaziladi, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining umumiyligini doiralarini aniqlashga va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Xujjatlarni shakllanishi va xarakati qonuniyatini hisobga olgan xolda xujjatlar aylanuvi tasvirini ko'rish mumkin.

Intelektual tizimlarini axborot bilan ta'minlashni tashkil qilishda mavjud hisoblash texnikasida, axborotlarni yig'ish, qayta ishlashning avtomatlashtirilishi va mexanizatsiyalashtirilishi darajasidan kelib chiqish kerak. Intelektual tizimlarini axborot bilan ta'minlanishini tashkil qilish yana xujjatlarni saqlash vositalari: tokchalar, joyonlar, kartotekalar, magnit tasmalari, magnit va lazer disklarini mavjudligini ko'zda tutadi. Aloqa vositalarining: telefonlar, telefakslar, ATS, direktorlik va dispetcherlik komutatorlari, radioaloqa, chaqirish va avariya signal berish qurilmalari va x. k. larning mavjudligi xam juda muhim.

Elektron-hisoblash mashinalari murakkab mantiqiy operasiyalarni: taqqoslash, keyingi amalni tanlash, ishlab chiqarilgan dasturlar bo'yicha murakkab hisoblarni o'tkazishni bajarish qobiliyatiga ega.


Axborotlar bilan ta'minlashni tashkil qilish axborotlarni yig'ish, uzatish va qayta ishlash bilan mashg'ul xodimlar mehnatini ham tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Unumli mehnat uchun quyidagilar zarur:

- ishchi o'rinalarini tashkil qilish va ularga xizmat ko'rsatish;
- mehnatni aniq taqsimlash va birlashtirish;
- mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, xodimlar mehnati va turmuShining kulay sanitariya-gigiena sharoitlarini yaratish.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djekson Piter. Vvedenie v ekspertnie sistemi. Per. s angl: Uchebnoe posobie. – M., «Vilyams» 2001. -400 c.
2. Digo S.M. Bazi dannix. Chast I: Uchebnoe posobie. – M., MESI 2004. -250 c.
3. Tixonirov N.P. Intellektualnie sistemi v ekonomike: Uchebnoe posobie. – SPb. Piter, 2003.-300 c.
4. Бердиева С.М., Имомова Ш.М. Использование инновационных технологий на уроках информатики// Наука, техника и образование. 2018. № 10 (51). С. 28-31.
5. Исмоилова М.Н., Имомова Ш.М. Интерполяция функции// ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2020. № 3 (81). Часть 3. С.5-8.
6. Бердиева С.М., Имомова Ш.М. Построение двухмерных графиков на уроках информатики средствами Excel//ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. 2017. №12(30).
7. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad// ACADEMY. № 6(57), 2020. С9.
8. Имомова Ш.М., Тохиров Б. Н. Глобал бронлаш тизимлари// БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТИ. 2020. №1. С48.
9. Имомова Ш.М. Использование электронной цифровой подписи // БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ АХБОРОТИ. 2018. №4.С62.
- 10.Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(79), 2020. С. 22-25.
- 11.Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
- 12.Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Работа с криптовалютой//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(91), 2021. С. 18-21.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririyy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi  
23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU 400110860064017950100079002**

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlaniramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2021-yil maxsus son**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:  
Alijon HAMROYEV.  
Musahih: Muhiddin BAFAYEV.  
Muarrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2021  
Bosmaxonaga topshirish vaqtি

30.12.2021

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 20,6

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 484.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.